



Xurshida ABDULLAYEVA,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: khurshidakhon.abdullayeva.86@mail.ru

ADTI dotsenti L.Xudayberdiyeva taqrizi asosida

SEHRLI ERTAKLARNING O'ZIGA XOS TABIATI VA GENEZISI

Annotatsiya

Ushbu maqolada sehrli ertaklarning o'ziga xos tasviriy hamda talqiniy tabiati, ularda taqdim qiluvchi hayoliy obrazlar harakatlanishi haqida so'z boradi. Sehrli ertaklarda u yoki bu totem hayvon yetakchi obraz, asosiy personaj bo'lib, bosh qahramon yoki uning yaqin yordamchisi sifatida keltirilishi, sehrli ertaklarda tilsim alohida o'rin tutishi keng ta'kidlab o'tilgan. Sehrli ertaklarning kelib chiqish tarixiga ularning afsonalar bilan bo'lgan umumlashmalariga nazar solingan.

Kalit so'zlar: Mifologik afsonalar, tilsim hodisalar, cho'rchak, cho'pchak, ushuk, varsoqi, epik janr, sehrli-fantastik, badiiy qonuniyat.

THE UNIQUE NATURE AND GENESIS OF FAIRY TALES

Annotation

This article is written about the unique pictorial and interpretive nature of magical tales, the movement of imaginary characters presented in them. In magical fairy tales, one or another totem animal is the leading image, the main character, and is brought as the main character or his close assistant. It is widely emphasized that talisman has a special place in magical fairy tales. The history of the origin of magical fairy tales, their legends generalizations were reviewed.

Key words: Mythological legends, magical phenomena, chorchak, chupchak, ushuk, varsoqi, epic genre, magic-fantasy, artistic law.

УНИКАЛЬНАЯ ПРИРОДА И ГЕНЕЗИС ВОЛШЕБНЫХ СКАЗОК

Аннотация

В данной статье говорится об уникальной изобразительной и интерпретационной природе волшебных сказок, движении представленных в них воображаемых персонажей. В волшебных сказках то или иное тотемное животное является ведущим образом, главным героем и приводится в качестве главного героя или его близкого помощника. Широко подчеркивается, что в волшебных сказках оберегу отведено особое место. Рассмотрена история возникновения волшебных сказок, их обобщения легенд.

Ключевые слова: Мифологические предания, магические явления, чорчак, чупчак, ушук, варсоки, эпический жанр, магия-фантазия, художественный закон.

Kirish. Ertaklar orasida sehrli ertaklar alohida turkumni tashkil etadi. Ularning kelib chiqish ildizlari qadimiy davrlarga borib taqaladi. Sehrli ertaklarda g'aroyib personajlar, sirli voqea-hodisalar g'ayritabiyy holda tasvirlanadi. Ulardagi har bir epizodda sehrli, mo'jizaviy voqelik talqini beriladi. Bunday voqealar markazida mifologik, afsonaviy, xayoliy obrazlar harakatlanadi.

Sehrli ertaklarda u yoki bu totem hayvon yetakchi obraz, asosiy personaj bo'lib, bosh qahramon yoki uning yaqin yordamchisi sifatida keltiriladi.

Sehrli ertaklar poetikasida tilsim alohida o'rin tutadi. Tilsim va tilsimli hodisalar ta'sirchanlikni orttirib, ertaklarga xos tabiat yaratadi, voqea-hodisalar mazmunini ochadi, qahramon ruhini belgilaydi. Tilsim syujetning asosiy bezagi, ertak poetikasining tarkibiy qismidir. Chunki sehr-jodu va tilsim vositalari ertak syujetini harakatga keltiradi, qahramonlar xarakterini belgilaydi.

Sehrli ertaklar tematikasi, g'oyaviy mazmuni maishiy ertaklardan farq qiladi. Bundan sehrli ertaklarning o'ziga xos spetsifik belgilarga ega ekani anglashilib turadi va bu belgilar uni tavsiflab ko'rsatishga va folklorning, jumladan, ertakning boshqa janrlaridan ajratib ko'rsatishga asos bo'ladi.

Ertak jahondagi deyarli barcha xalqlarning folklorida borligi uchun uni "umumfolkloriy janr" deyish mumkin. U juda qadimdan dunyo xalqlari og'zaki badiiy ijodida paydo bo'lgan va hozirgacha yashab kelmoqda. Ammo uning og'zaki shakli emas, adabiy shakli yaratilishda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek xalq ertaklarini yozib olishva nashr e'tish borasidagi ilk tajribalar XIX asrning oxiridan boshlangan. B. Karimiy ertaklar tasnifi hamda ularning tadqiqi haqida "O'zbek xalq ertaklari"[1] to'plamini nashr qildi. M.Afzalov esa "O'zbek xalq ertaklari haqida"[2] nomli kitobi, ertakchilik an'analar tarixi va uning ijrochilik masalalari yuzasidan K. Imomov[3], G'. Jalolov [4] X.Egamovlar[5] ko'plab samarali ishlar olib bordilar. Rus yozuvchisi V.Ya Prop ham sehrli ertaklar morfologiyasi haqida ko'plab ish olib bordi. Ingliz ertaklari hamda o'zbek ertaklari qiyosiy tahlilida ATU[6] ning katalogi, F.G'.Norton [7] kolleksiyasi syujet ko'rsatkichi muhim va yetakchi rol o'ynashligi ta'kidlab o'tish joizdir.

Ertak janri nomi ingliz folklorida tale, tales, fairy tales, folk tales nomlari bilan yuritiladi. O'zbek folklorida esa bu janr atamasi uchun ertak umumiy ilmiy atama qo'llansa, turli shevalarida uning o'rnida cho'rchak, cho'pchak, ushuk, varsoqi, ertangi kabi nomlar ham ishlatiladi.

Ertak – og'zaki nasr namunasi. Folklordagi alohida, mustaqil, epik janr. Sehrli-fantastik ertaklar esa uning alohida mavzuyi bir turidir.

Sehrli ertaklarning boshlanishi ham o'ziga xos. Unda g'aroyib voqealarga ishora qilinadi. Hayvonlar, qushlar tashxislantiriladi. Go'yo ular dastlab odam bo'lganu, keyin hayvon yoki qushga aylantirgandek talqin qilinadi. Jumladan, "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi, g'oz

karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, toshbaqa tarozibon ekan, qurbaqa undan qarzdor ekan, bir zamonda chol-u kampir bo'lgan ekan. Ular hech qachon farzand ko'rmagan ekan”.

Ertak janri qadimgi insonlarning turli mifologik tasavvur-tushunchalari, ayniqsa, animizm, totemizm, fetishizm, magiya, shomonlikka aloqador ishonch-e'tiqodlari asosida paydo bo'lgan. Ularda qadimgi insonlarning ilk turmush tarzi va madaniyati manzaralari aks ettirilgan. Ilk urf-odat va marosimlar o'ziga xos badiiy ifodasini topgan. Shunisi bilan ertaklar syujeti qiziqarli, g'aroyib voqealarga boyligi kuzatiladi.

O'tmishga xos unutilgan voqea-hodisalar reallikdan uzoqlashishi oqibatida ertaklarning syujetida hayoliy va hayotiy voqealar talqini namoyon bo'ladi.

Maqola metodologiyasi . Ertaklarning kompozitsion qurilishi barqarordir. Shunisi bilan ham ertaklar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan ajralib turadi. Jahon folklorshunosligida afsonalarning genezisini mif, ertak janrlarining tadrijiy rivojiga bog'lab talqin qilish an'anasi mavjud. Chunki ular birining ta'sirida ikkinchisi kelib chiqqan. Buni afsonalarining bir turi “mifologik afsona” deb yuritilishi yoki sehrli ertaklar bilan afsona janri namunalari hayoliy uydirmaning markaziy o'rin tutishi misolida ham kuzatish mumkin.

Sehrli ertak va afsonaning o'xshash hamda farqli belgilarini aniqlash insoniyat badiiy epik tafakkurining shakllanish tarixini yoritishga asos bo'ladi. Ularning har ikkalasi miflardan keyingi stadial bosqichda shakllanish jarayonini kechirgan.

K.Imomov afsonalarning bir turini xayoliy voqea va hayoliy qahramonlar haqidagi afsonalar deb ko'rsatib, ularda mif va ertaklarga xos ba'zi belgilar uchrab kelishini alohida qayd qilsa[8], M.Rahmonova “Afsonalarda xalqimizning eng kadimgi mifologik tasavvurlari o'z ifodasini topganligi xarakterlidir. Shuning uchun o'zbek xalq afsonalarining syujet silsilasida turkiy va boshqa xalqlar mifologiyasi bilan bog'liq ko'plab qadimgi motivlar saqlanib qolgan”, – deb yozadi[9].

Afsonalar miflardan keyingi stadial bosqichda paydo bo'lganligi sababli ularda g'aroyiblik, sehr-jodu yetakchi o'rin tutadi va ko'pincha u sehrli-fantastik ertaklardan farqli ravishda personajning xohishiga ko'ra emas, balki tashqi g'aroyib kuch bilan yuz beradi.

Ye.M.Meletinskiy “Mif ertakka transformatsiya bo'lgan” deb hisoblaydi. Darhaqiqat, ertakda ham, shuningdek, afsonada ham mif kabi sehr-jodu kuchiga ishonch ustuvorlik qiladi.

Tahlil va natijalar. Aytish kerakki, afsona va sehrli ertaklar syujetida bir xil motivlar uchraydi. Masalan, qarq'ish bilan insonning qushga evrilishi motivi bunga yaqqol misoldir.

Afsonada ham, sehrli ertakda ham mubolag'ali tasvirga alohida o'rin beriladi.

Ma'lumki, ba'zi bir hayvon, qush va baliqlarning kelib chiqishi, ularning o'ziga xos muhim belgilari haqida aytilgan afsonalar tipida yaratilgan etiologik ertaklar ham uchraydi.

M.Rahmonova ta'kidlaganidek, bu o'rinda afsonaning ertakka aylanishi qonuniyati ko'zga tashlanadi[10]. Qolaversa, Yu.M.Sokolov, V.I.Chicherevlar ertaklarning bir turini “ertak-afsona” deb atashgan. Chunki ayrim ertaklarning syujeti

butunlay afsonaviy motivlardan tashkil topgani ko'rinadi. Jumladan, ayrim afsona va sehrli ertaklarda Kenja o'g'il, ajdarho, dev, pari, sehrli pichoq va g'aroyib shamshir kabi an'anaviy obrazlar keltirilgan. Yana ularda evrilish motivi uchrashi kuzatiladi. Faqatgina afsonalardagi sehr-jodu talqiniga asoslangan bunday motivlar ko'pincha sehrli-fantastik ertaklar syujetida birmuncha kengroq, tafsilotlashtirilib, kuchaytirib ifodalanadi.

Afsonalarga o'xshab ketadigan sehrli ertaklar ham mavjud. Bunday ertaklarda afsonaviy syujet elementlari uchraydi. Hatto syujet tizimini tashkil etuvchi an'anaviy motivlari jihatidan mushtarak epik asoslarga ega bo'lgan afsona va sehrli ertaklar bor.

U yoki bu real voqea-hodisaning badiiy talqini afsona va sehrli ertaklarda sehr-jodu, mo'jizaviylik talqiniga asoslangan epik motivlar asosida ifoda topadi. Muhimi, afsonada uchraydigan epik motivlar sehrli ertaklarda ham uchraydi. Biroq, afsonalarda uchraydigan epik motivlar sehrli ertaklarga nisbatan qadimiyroqdir. Ertak motivlarining dastlabki namunalari ijtimoiy maishiy mohiyat kasb etishi ularning afsonalardan ko'chib o'tganligini bildiradi.

Aslida ertak syujetlarining ibtidoiy davrlardagi boshlang'ich namunalari afsonalar kabi juda sodda va qisqa shaklda yaratilgan bo'lib, turmushdagi biror voqeani izohlashga qaratilganligi jihatidan afsonalarga yaqin turadi. Afsonalarda esa tarixiy voqea va tarixiy shaxslar ertaklarga xos uslubda mubog'alashtiriladi, sehr-jodu, mo'jiza, tilsim orqali tavsiflanadi.

Afsonalar ertaklar kabi maxsus boshlanma va tugallanmaga ega bo'lmaydi va har doim ham ertaklar kabi yaxshilik bilan tugamaydi. Masalan, “Farhoddev”, “Cho'pon va pari” “Shirinqiz” singari afsonalar syujeti bunga misol bo'ladi. Chunki bu afsonalarda bosh qahramonlarning hayoti fojia, o'lim bilan tugagan. Ertaklarning tugallanmasi esa har doim yaxshilikka asoslanadi. Bu hatto badiiy qonuniyat kasb etgan.

Green Sleeves (“Yashil Yeng”) ertagida hikoya qilinishicha, Shotlandiya qirolining qimorda hammani yutadigan, hech kim u bilan o'ynashga jur'at etolmaydigan bir o'g'li bor ekan. Bir notanish odam tasodifan paydo bo'lib, uni yutgan odam o'zi xohlagan narsasini so'rashi, yutqazgan odam esa o'lim azobini ko'rishi sharti bilan o'yinga chorlabdi. Haligi begona odam o'yinda yutib chiqibdi va shahzodaga 12 oy ichida ismini va yashash joyini qaytib berishini aytibdi. Shahzoda uyiga borib siqila boshlabdi, otasi nima bo'lganligini so'rabdi va yigit begona odamning savollariga javob izlay boshlabdi.

Xulosa va takliflar. Ko'rinadiki, “Green Sleeves” – “Yashil Yeng” ertagida 13 ta sehr-jodu bilan bog'liq motiv keltirilgan. Xususan, undagi ko'p yil umr ko'rgan g'aroyib chollarning yo'l ko'rsatishi, maslahatlar berishi, sehrli buyumlar tortiq qilishi, qizlarning oqqushga evrilgani va yana o'z holiga qaytishi, oltin xo'roz va tovuq, igna kabi sehrli jonzotlar, tilsim narsalar obrazining ishtiroki ushbu ertak tabiatini belgilashga zamin yaratgan. Shu kabi o'zbek hamda ingliz ertaklari motiv va syujet, obrazlar jihatidan taxlilga tortib tajribadan o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

ADABIYOTLAR

1. Buyuk Karimiy. O'zbek xalq ertaklarining ba'zi bir xususiyatlari, O'zbek tili va adabiyoti-Toshkent, 1995.57-62 b.
2. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida”, Toshkent, Fan,1964.
3. Imomov K. O'zbek xalq satiric ertaklari.Toshkent, Fan,1974; Yana O'sha .O'zbek xalq prozasi.
4. Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi.-Toshkent.Fan.1976
5. Egamov X. Sharq turkiy xalqlari ertakchilik an'analari aloqalari tarixidan ocherklar.
6. <http://www.mftd.org/index.php?action=atu>
7. A dictionary of British folk-tales in the English language, incorporating the F. J. Norton collection by Briggs, Katharine Mary. cn; Norton, F. J. (Frederick John).
8. Imomov K., O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990 – 304 -14b.
9. Rahmonova M.R. Diss. O'zbek xalq afsonalarining badiiyati. – T.: Fan,32-bet 2009
10. Rahmonova M.R. Diss. O'zbek xalq afsonalarining badiiyati. – T.: Fan,35-bet 2009.



UDK:821.512.133-1

Xikmatoy ABDULXAMIDOVA,

Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: xikmatoy96@pf.fdu.uz

O'zbek tili va adabiyoti universiteti professori I.Yoqubov taqrizi asosida

ISAJON SULTON ROMANLARIDA INSON XRONOTOPI

Аннотация

Maqola borliqni anglash, dunyoni sohalar va fan tarmoqlari asosida tafakkur qilish inson tafakkuri asosida shakllanganligi sababli xronotopshunoslikga "inson xronotop" iborasi kirib keldi. Badiiy asar yaralishida bu muallif va qahramon xronotopi shaklida namoyon bo'lishi xususidagi qarashlar asoslangan.

Kalit so'zlar: Muallif "men"i, qahramon "men"i, ijodkor ongi, xronotop, biografik tahlil, ruhiy psixologizm, muallif biosferasi, portret, peyzaj.

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ХРОНОТОП В РОМАНАХ ИСАДЖОНА СУЛТАНА

Аннотация

Термин «хронотоп человека» вошел в хронотопологию потому, что на основе человеческого мышления формируется понимание существования, мышление мира, основанное на областях и отраслях науки. Создание художественного произведения основано на том представлении, что оно проявляется в форме хронотопа автора и героя.

Ключевые слова: «Я» автора, «Я» героя, разум творца, хронотоп, биографический анализ, духовный психологизм, биосфера автора, портрет, пейзаж.

HUMAN CHRONOTOPE IN THE NOVELS OF ISAJON SULTAN

Аннотация

The term "human chronotope" entered the chronotopology because the understanding of existence, the thinking of the world based on fields and branches of science is formed on the basis of human thinking. The creation of a work of art is based on the view that it is manifested in the form of the chronotope of the author and the hero.

Key words: "I" of the author, "I" of the hero, mind of the creator, chronotope, biographical analysis, spiritual psychologism, biosphere of the author, portrait, landscape.

Kirish. Adabiyot inson ongining amaliy faoliyati jarayonida ruhiy, hissiy va aqliy obrazlar shakllanishiga zamin hozirlaydi. Shuningdek, ijodkor ichki "men"i borliqni anglashi natijasida hosil bo'lgan tajribalardan zaruriy xulosalar chiqaradi. Germenevtika falsafasi esa buni o'zida namoyon qiladi. "Boqiy darbadar" romani qahramoni taqdirida, dastlab, ongsizlik ancha ustun mavqeda namoyon bo'ladi, bu ongsizlik dinamikasiga to'la muvofiq tarzda asar syujet linyalari shakllanishiga xizmat qiladi. Dabdurustdan u o'z faoliyatining kuzatuvchisini anglay olmaydi. Obrazning vaziyatni anglashi mushkul kechadi, u idrokining siqilib qolishi tufayli bo'ladi. Tarixiy-falsafiy ifoda orqali germenevtika insonni fenomen sifatida o'rganib, uning borlig'ini va borliqni anglash tafakkurini interpretatsiya qilish imkonini beradi. Inson adabiyotdagi ustuvor obrazdir, uning mavjudligi ta'sirida bugungi o'zbek adabiyotida islom madaniyati falsafasini aks ettiruvchi, diniy tushunchalar va qismatlar orqali o'zlikni anglashga yetaklovchi romanlar maydonga kelmoqda. Xayriddin Sultonning "Ko'ngil ozodadir", X.Do'stmuhammadning "Donishmand SiziP", Isajon Sultonning "Boqiy darbadar", "Ozod" romanlari buning isbotidir. Ulardagi milliy an'analarning aks etishi, shuningdek, yangilanishi, ramziy majoziy timsollar vositasida yaratilgan qahramonlarning adabiyot maydoniga kirib kelishiga zamin hozirlaydi. Buni hozirgi adabiy jarayonda milliylik qobig'ini yorib chiqib, global mavzularga tomon rivojlanish sifatida baholash mumkin. Bunday milliy o'zlikni yo'qotmasdan, sharqona falsafadan chekinmay g'arb liberalizimiga erishishini romannaviskidagi "o'zbek modeli"ni yaratishga urinish, deyish mumkin. Ushbu modelni yaratishda ijodkor biosferasi

va ichki meni ta'sirida yaratilgan badiiy asarlar muhim sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Inson ongidagi hissiy va aqliy obrazlar amaliy faoliyat ta'sirida uzluksiz ravishda o'zgarib turadi. Ayniqsa, ijod ahli subyektiv "men"i o'z hayotiy tajribalaridan tegishli xulosalar chiqaradi, rivojlanadi, shakllanadi. Romannavislarning yaqin va uzoq tariximizga murojaat qilishlari tarixiy romanchilikni shakllantirdi. Yozuvchi yaratgan qahramonlar tabiatidan va ijodiy ideallaridan kelib chiqib qahramonlar "mamlakati"ni yaratadi, boyitadi. Qahramonlarning o'zaro munosabatlarini tasvirlash jarayonida ular majburiy ijtimoiy me'yorlardan chiqib ijodkor tafakkuri mezonlarida harakatlanadi. Ba'zan esa ijodkorga ham bo'ysunmaydi. "Boqiy darbadar"dagi Ziyoy yaratgan mahluq, uning maktubida aytilgan so'zlar buning isbotidir. Hatto o'sha mahluq ham o'z umrini yashashda Ziyoga, fanga yoki muallifga bo'ysunmay harakatlanadi. Doimo nimanidir tushunishga intilish, qobiliyatini yuzaga chiqarishga urinishdagi astoydillik bir vaqtning o'zida ijodkor ongi, psixikasining betakrorligi ifodasi sifatida gavdalanadi. Bunday romanlarda an'anaviy realizmga xos zamon va makon kuzligi, bayon izchilligi, ifodaning mantiqiy asoslanganligi aniqlanmaydi. Ularda o'tmish va kelajak, ko'pincha, bir davrda hukm surayotganday aks etadi. Bu dramatiklik badiiy asar zamonida har bir onning hozir sodir bo'layotgani kabi gavdalanishi muallifning zamon va makon tasvirlash mahoratini namoyon qiladi. Zamon va makon tasvirida muallif tafakkuri muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif "men"i va uning qahramonlarda aks etishi uchun xronotop ahamiyatlidir.

Natijalar va muhokama. Jahon adabiy tajribalarida insonga xronotop sifatida qarash o'rnlari uchraydi. Demak,

zamon va makonning mavjudlik shaklini anglashda va yaratishda, inson bu ikki tushunchani foydalanuvchisi sifatida baholanib, uning tafakkur maydonida hosil bo'lgan makon hamda zamonni adabiy-badiiy tarzda adabiy mahsulotga – badiiy asarga aylantiradi. Uni yaratishdan maqsad esa adresat, ya'ni o'quvchi tafakkuriga ta'sir ko'rsatish. Bu orqali adresatning u anglagan borliq haqidagi qarashlarini o'stirish, rivojlantirishdir. Asar moddiy shakl va mazmun kasb etishdan avval ijodkor tafakkurida hosil bo'ladi. Yozuvchi ong ostida bir qancha voqeliklar qorishib, betakror zamonlar tasvirini hosil qiladi. Uning ma'lum badiiy niyatga tegishli qismigina asarga olib kiriladi. Ma'lum qismi o'sha yerdagina zohir bo'ladi. Shu tarzda kitobxon ongida ham shakllanadi. Ya'ni ma'lum badiiy asarni o'qish davomida o'quvchi tasavvurida uning yangi shakldagi olami paydo bo'ladi. Uning paydo bo'lishi har bir o'quvchining borliq xususidagi tasavvurlari bilan bog'liq tarzda kechadi. Qahramonlarga shu tasvir maydonidan turib munosabat bildirishi uning xronotop markazida ekanligini ko'rsatib beradi. Bunda so'zning qudrati orqali zamon va makonni anglash – uni tasvirlash, ifodalash, ayrim o'rinlarda uni ilohiyashtirish yoki moddiylashtirish orqali tadqiqotlar va qarashlar markaziga qo'yiladi. Alisher Navoiy ta'kidiga ko'ra, “So'z jon bo'lib, ruh uning qolipidir. Tanida ruhi bor odam doim unga ehtiyoj sezadi. So'z dunyoda bor barcha ko'ngillarni qutisidagi javhardir [Navoiy A. Xamsa. Xayrat ul abarop. Toshkent.: “Navr'uz”, 2018. – B. 23.]. “Lison ut-tayr” xususidagi mulohazalarida asarda badiiy talqin etilgan barcha voqealar asarning asl konsepsiyasi Alisher Navoiy dunyoqarashi, adabiy ideali, “men”ini aks ettiradi. Shu ma'noda “Lison ut-tayr” faqat badiiy asar emas, balki tom ma'noda inson fenomenini haqidagi universal hodisadir” [Juraqulov U.X. Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi. T.: 2017. – B. 120-6.], deya baholagan edi U. Jo'raqulov. “Olam ul-akbar”, “Olam-ul asg'ar” xususidagi qarashlariga ko'ra “G'arbdagi ezoterik adabiyotlar talqinida “bir butun kosmosga nisbatan makrokosmos, inson fenomeniga nisbatan esa mikrokosmos termini qo'llab kelinadi. Sharq manbalarida, aksincha, butun koinot insondan nusxa olib yaratilganligiga urg'u beriladi. Shunga asosan inson “Olam ul akbar” (makrokosm), undan zohirda mavjud bo'lgan barcha narsalar “Olam ul-asg'ar” (mikrokosm), deb yuritiladi”[1]. Demak, germenevtika insonni fenomenologik nuqtai nazaridan o'rganish, uning borlig'ini anglash imkonini beradi. U orqali inson o'z borlig'ini tahlil qilish va tushunish asosida reallashtirib borishi haqidagi yangicha qarashlar bugungi o'zbek romanlari mohiyatini tushunishga xizmat qiladi. Isajon Sultonning Ozod va darbadar etikdo'z obrazlari tafakkurida maishiy turmush tarzi tasvirlari uchraydi. Ibtidodan intihogacha qamralgan tasvirlar orqali borliq haqidagi yangicha qarashlarini asoslagan muallif va u yaratgan qahramonlar olamini tushunish mumkin.

Roman poetikasida ikkinchi aksda tasvirlangan voqelik Ozodni qattiq sinovdan o'tkazadi. Shamolning yetovida fojialardan ham omon qoladi. Aslida shamol bir sabab ekanligi, Ozodda ulg'aygan ulkan muhabbatni o'quvchi anglab yetadi. Yozuvchi keskin tragik sahnalarda – parda orqasida elas-elas ko'rinish berib turadigan vahshiy dev obrazi haqida so'z yuritmaydi. Shaytonga taslim bo'lish hayotda o'z qadrini yo'qotishga yo'l ochib berish, deb urg'ulaydi. Adib ayni shu jihatga qattiq e'tibor qaratadi. Ya'ni Ozodning hayotidagi son-sanoqsiz adashishlardan xulosa chiqarishga undaydi. Bir qarashda, didaktik masalalarning ramzlar negizida qayta idrok etilishi asardagi kuchli romantik bo'yoqdorlikni keltirib chiqaradi. Qalbdagi fanoni yengish va Allohni tanish maslagi har qanday odamni tozarishga chorlaydi. Gunohlardan forig' bo'lgan insongina so'z va niyat birlashuvi tufayli go'zal maqsadga erishadi. Yozuvchi voqelikni tasvir etishda so'z va niyat uyg'unligini tabiat hodisalari bilan bog'lab tadqiq qiladi.

Romanning “Mulki fano” qismida uch aksli g'oyaviy tadrijdan keyin ijodda qarashlari va fikrlari yuqori sanalgan Mashrab va Navoiyga murojat qiladi. Mulki fanoda uchratgan kishisi kim ekanligini so'ragan Ozodga “Nafaqat bu makonlardan, balki dunyoning ustidan ham hakikasifat hakkalab o'tib ketgan zot” [Isajon Sulton. K'ursatilgan manba, B – 296], – deya shamol javob beradi. Undan-da baland maqomda Navoiy ekanligini aytib uning tabiridagi fano vodiysi tasvirini keltiradi. “Bu yer shunday bir joy ediki, aql uning kengligini idrok qilishga ojizlik qilardi. Butun osmon hatto u yerdagi oddiy bir xasdan ham kichikroq edi. Bu yerda extiyojsizlik bulutidan jala yog'ardi. Bu yerda yetti ko'k bir hovuch tuproqqacha jannatda o'sadigan sidra va to'bi kabi daraxtlar esa xas kabi qadsiz edi.” Muallif esa Mulki fanoga erishish uchun nasfni yengishi, hayot sinovlaridan beqadr bo'lmasdan o'tishi, hayot hikmatlariga amal qilishi kabi hayotiy xususiyatlar insonga muboraklik maqomini taqdim etishini Ozodning qarashlariga singdiradi. Shuningdek, muallif “men”idagi ustozlar, o'zidan avvalgi ijodkorlar tutgan yo'lga ergashishni maqsadi esa yuqoridagilar kabi Mulki fano uchun munosib bo'lish, munosiblikka esa tajribalilar tajribasi muallifga u orqali Ozodga dasturamal vazifasini o'taydi. Reminisensiya asosida ijodkor qarashlarining yetilishi kuzatiladi. Demak, ijodkor asarlarida intertekstuallik va reminisensiya muhim badiiy estetik vazifa bajara olgan. Shunday ekan, bu ikki adabiy hodisadan xunimli va maqsadli foydalanishni ijodkorning uslubiy o'ziga xosligi sifatida talqin etishimiz mumkin.

Xronotopshunoslikda inson xronotopi haqidagi nuqai nazarlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga keldik. Borliqning mavjudlik shakli inson tomonidan anglanishi natijasida, dastlab olam haqidagi tasavvurlar yuzaga keldi, keyinchalik, fanlar, sohalar sifatida shakllandi. Boshqacha aytganda inson ong ostida xronotopning dastlabki shakli va unga munosabat paydo bo'ldi. Ijodkorlar ongida bu aksni o'z san'at yaratish predmetidan kelib chiqib farqli namoyon etadi. Ayniqsa, so'z san'atkorlari olam haqidagi tasavvurlarni so'z orqali boshqa tafakkurda qayta gavdalandiradi. Bu muhim mas'uliyat badiiy asar muallifi va uning qahramoni zimmasiga tushadi. Demak, badiiy asarda zamon va makon haqidagi tasavvurlar muallif tafakkuri orqali gavdalanib, ular muallif va qahramon nutqi orqali ifoda etiladi. Shundan kelib chiqib, inson xronotopining ikki shakli – muallif xronotopi va qahramon xronotopi yuzaga keladi deb xulosa qilish mumkin. Bu ikkisi ijodkor biosferasini o'zida namoyon qilib, muallifning jamiyat tafakkuriga ta'sirini belgilaydi. Natijada, qahramon yashagan jamiyat va uning kishilari hayoti o'quvchida o'sha va o'zlari yashayotgan zamon va makonga munosabatni shakllantiradi. Shu sababdan inson ongi xronotopik markaziy nuqtalardan biridir. Yuqoridagi mezonlarga asoslanib, Isajon Sulton va u yaratgan badiiy asardagi ayrim qahramonlarga inson xronotopi sifatida yondashildi. Masalan, “Boqiy darbadar”dagi darbadar, professor Ziyo, “Genetik”dagi Omon, “Ozod”dagi Ozod, shamol obrazi kabilarni qahramon xronotopi sifatida baholash mumkin.

Demak, badiiy asarda har bir qahramonning bioolami, hududiy-geografiyasiga xos milliy va ummuminsoniy qarashlar tasviri zamon va makonda yuzaga chiqqanligi uchun jahon xronotopshunosligiga “inson xronotopi” iborasi kirib kelgan. Unda badiiy asarda “muallif” va “qahramon”larning biosferasi tasviri ham bu iborani takomillashtiradi. Borliqning inson tafakkurida anglanishi, zamon va makon, borlik va yo'qlik tushunchlari odamning turmush tarzidagi ahamiyatli anglami sanaladi. Adabiy manbalarda tasvirlangan voqeliklarga zamon va makon hodisalariga aniq munosabati bo'lgan, qahramonlar va muallif inson xronotopining muhim adabiy namunasi sanaladi. Asarda uchraydigan barcha qahramonlar inson xronotopi darajasiga ko'tarila olmaydi.

Ammo detal va obrazlarning insoniylashuvini ham ayrim o'rinlarda inson xronotopi darajasida tasvirlash o'rinlari uchraydi. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar"da etikdo'z (samum odami), professor Ziyo va uning o'g'ili, maxluq, hazrat, Tyanshon bag'ridagi avliyo obrazlarini inson xronotopi sifatida talqin etish mumkin. "Ozod" romanida Ozod, Oydin, Dilorom, Eran, toshkesar, uzumzorlar egasi, ko'r kishi, tuz odam, murtad, ota, o'g'il, buvi kabi inson xronotopi

talablariga munosib obrazlar uchraydi. Asardagi shamolning yuksak insoniy tafakkur egasi sifatida tasvirlanishi pyezajning insoniylashuvi bo'lib inson xronotopining ahamiyatini o'zida namoyon qila oladi. Yozuvchining "Genetik" romanida Omon, Genetik, do'st obrazlari bilan birgalikda fizika (Abdunazar domla), jug'rofiya (Mo'minjon domla), biologiya (Hoshimboy aka), tarix, adabiyot, genetika fanlar bilan suhbat orqali ularning insoniylashuvi uchraydi.

Isajon Sulton romanlarida inson xronotopi			
	"Boqiy darbadar"	"Ozod" romanida	"Genetik"
	Etikdo'z(darbadar)	Ozod	Omon
	Hazrat	Dilorom	Genetik
	Tyanshondagi avliyo	Eran	Erbug'u
	Professor Ziyo	Toshkesar	Jug'rofiya (Mo'minjon domla)
	Ziyoning o'g'ili	Ko'r kishi	Fizika (Abdunazar domlar)
	Maxluq (yaratilgan darbadar)	Uzumzorlar egasi	Biologiya (Hoshimboy aka)
		Ota	
		O'g'il	
		Murtad	
		Shamol	

Muallif biografiyasi va hayotidagi ayrim kishilar ba'zan badiiy asarda aks etadi. Ijodkorning olamni anglashiga, uni qayta ishlab tasvirlashiga sabab bo'lganligi uchun ularni o'z asarlariga prototipi mavjud bo'lgan qahramonlar sifatida olib kiradi. Bu muallif va inson xronotopi oraliqidagi hodisadir. Masalan, "Otamning bor-yo'g'i bitta ko'k to'ni bor. Uzoqdan ekinlar ichida kuymayotgani ko'rinadi. To'ning yelkasi ilma-teshik bo'lib ketgan. Otam ozg'in, bug'doylar esa bo'liq"[Genetik 45-bet]. Bu o'rinda ijodkor biografiyasiga oid tasvirlar ifodalangan bo'lib, ijodkor yoshlik yillariga to'g'ri kelgan og'ir turmush tarziga va bu davrda ro'zg'or yukini ortmoqlagan otalar yelkasining hayot ilma-teshik qilganligiga ishora mavjud. Yolg'iz ko'k to'ni ota tasviri yozuvchining otasi (bobosi) Sulton ota bo'lib, "Genetik romanidagi "Bobom" qismli voqeada mosh-guruch soqolli, nonvoy, hudojo'y odam sifatida tasvirlanadi. "Sakson to'rt yoshida jonini haqqa topshirdi. O'shanda men o'n to'rt yashar bola edim", deya ifodalangan voqelik ijodkor biografiyasiga oid ma'lumotni qatnashda aks etishidir. "Ozod"da keyingi o'rinlarda yozuvchi qishlog'ida uchraydigan ishkomlar tasviri biorgafik xronotop sifatida ifodalanadi. "Hammaning uyida ishkom bor. Terakning yog'ochidan qilingan, issiqda bu yog'och oqarib qoladi – oppoq-oppoq, qizil, qora och yashil uzumlar osilib turadi. Odamlar ari yeb ketmasin deb, ularni bo'z latta bilan o'rab chiqishadi. Har qanday ijodkor yaratgan ijodiy namunada uning ilk hayoti o'tgan qishloq, shahar, ovul tasviri uchrashi aqlga tayin. Bu badiiy asarga biografik va lingvistik nuqtai nazardan yondashishga zamin hozirlaydi.

"Genetik" romanida Omon genetika fani bilan davrlar osha harakatlanadi. Fan bilan suhbat uyushtirish asarning o'ziga xos jihatlaridan biridir. Avvalgi romani "Ozod"da muallif shamolni detaldan obrazga tomon shakllantirgan bo'lsa, "Genetik" romanida qahramonning tarix, botanika, fizika, genetika fanlari bilan suhbat boshqa ijodkorlar ijodida uchramaydigan hodisa hisoblanadi. Fanlar orqali zamon va makon tarangligiga erishadi, ularning imkoniyatlari – muallifning imkoniyati darajasida shakllanadi. Suhbat davomida fanlar go'yoki qahramonga shu fanni o'qitgan o'qituvchi ovozi bilan suhbat quradilar. Ular orqali asar syujeti

voqealari davrlar aro harakatlanadi. Voqeani uyushtirishda Omonning bolalik, maktab yoshdagi va undan keyingi xotiralaridan foydalanilgan. Shunday bo'lsa-da, bu tasvirlarda yozuvchining bolalik taassurotlari ifoda etiladi. Davrlararo harakatda ushbu usulning tanlanishi muallifning ifodaviy o'ziga xosligi hisoblanadi. Shuningdek, fan o'qituvchisi sifatida asarga olib kiritilgan Abdunazar domla, Hoshimboy domla, Sulton domlalar muallif ta'lim olgan maktabda ishlagan o'qituvchilar hisoblanadi. Ularning prototip sifatida tanlab, nomlarini asarga muhrlaydi. "Fizika! – Labbay. Quyosh nurini yoyib bera olasanmi? – Marhamat. Quyosh nurining ko'rinadigan spektri bir qancha ranglardan iborat. Chapdan o'ngga qarab, binafsha, ko'k, yashil, sariq, qizil, uzoq-qizil nurlarga bo'linadi, - deydi fizika maktabdagi ustozim Abdunazar domlaning ovozi. – Biologiya, g'o'za fotosintezi uchun eng muhim nur qaysi? Biologiya esa yana bir ustozim – Hoshimboy akaning ovozi bilan javob qaytaradi"[Genetik 89-bet]. Bu o'rindagi "Abdunazar domlaning ovozi", "Hoshimboy akaning ovozi bilan javob qaytaradi" iboralari fanga oid bilimlar bola tafakkuriga fan o'qituvchisi ovozi bilan birga kirib kelishini, u hatto ijod jarayonida ham uni tark etmasligining ifodasidir. Qahramonga tarixga oid bilimlarni "cho'tir muallim" ovozi tomonidan olib kiritilishda reallik va ramziylik mavjud. Mustaqillik davrida tarixiy manbalarimiz to'liq yuz ochmagan edi. Uning tadqiqotchilariga nisbatan avval qo'yilgan taqdiri, tariximizdagi xatoliklarni ifodachisiga "cho'tir muallim" iborasi ishlatilgan, deya talqin etishimiz mumkin. Demak, xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Omondan dunyo tan olgan olimning shakllanishida mahalliy muallimlarning elementar tushunchalarni to'g'ri anglatganligi, keyinchalik butun jahon genetiklari uni mukofotlashi natija sifatida ko'rsatiladi. Bular esa yozuvchi biografiyasiga oid ma'lumotlarni badiiy asarda aks etishi bilan bog'liq muallif "men"ining inson xronotopi tomon shakllantiruvchi omildir.

Demak, Isajon Sulton asarlari biosferasida ijodkor romanlari zamon va makoniga xos umuminsoniylik asosidagi, globalizm bilan sug'orilgan milliylikni ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентриқ тадқиқи (номинатив аспект): фил.фан.доктор. дисс. – Самарқанд, 2020, – Б.148-149.
2. Навоий А. Хамса. Ҳайрат ул абарор. Тошкент.: "Наврўз", 2018. – Б. 23.

3. Жўрақулов У.Ҳ. Алишер Навоий “Ҳамса”сида хронотоп поэтикаси.Т.: 2017. – Б. 120-б.
4. Баходир Карим. Рухият алифбоси.: – Тошкент, 2018. – Б.79.
5. Парандовский Я. Сўз кимёси. Toshkent: “Yangi asr”, 2022. – Б. 247-248.
6. А.А Тараканова. Замоनावий адабиётда хронотоп тушунчаси.М.: 2011.Б.9.
7. Беруний А.Р Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал боқия). Toshkent:“O‘zbekiston”, – 2020. – Б. 37.
8. Бочаров прославился своими исследованиями по русской литературе XIX века, в первую очередь книгами «Роман Л.Н. Толстого „Война и мир“»(1963).<https://meduza.io/news/2017/03/06/umer-literaturoved-sergey-bocharov>
9. Исажон Султон насри бадийати, Кўп пўртаналардан бахс этувчи асар. Ёқубов.И. Т.:2017. 122-б.
10. Нилуфар Тошева Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насри мисолида). Автореферат Тошкент 2020. 21-б.
11. Генетик. Исажон Султон. Ozod – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.217-б
12. Abdulkhamidova Khikmatoy Akhroqjon Qizi. Хоразм Маъмун Академияси Ахборотномаси. Isajon Sultonning “Ozod” romanida aks xronotopi. Xorazm. 2021.
13. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. “Actual problems of classical and modern uzbek literature” In Конференции.
14. Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси: Монография. – Тошкент: “Nurafshon business”, 2021. Б – 48.



Zilola ABULOVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti
E-mail: zilolaa849@gmail.com

BuxDU dotsenti, f.f.d.(PhD) M. Akhmedova taqrizi asosida

APHORISM AS AN INTEGRAL TEXT: MECHANISMS OF STRUCTURAL AND SEMANTIC ORGANIZATION

Annotation

The relevance of the undertaken research is determined by an integrated approach to the study of an aphorism as an integral text. Of particular importance is the inclusion in the scientific paradigm of the study of those communicative factors, extralinguistic and linguistic, that determine the production of the text and its interpretation. an aphorism is considered from the standpoint of communicative stylistics as a special type of text, linguoculturally and genre specific.

Key words: Aphorism, text, linguistic-stylistic specificity, structural-semantic features, context, pragmatic effect, value picture of the world.

АФОРИЗМ КАК ЦЕЛЫЙ ТЕКСТ: МЕХАНИЗМЫ СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация

Актуальность предпринятого исследования определяется комплексным подходом к изучению афоризма как целостного текста. Особое значение имеет включение в научную парадигму изучения тех коммуникативных факторов, экстралингвистических и лингвистических, которые определяют производство текста и его интерпретацию. афоризм рассматривается с позиций коммуникативной стилистики как особый тип текста, лингвокультурно и жанрово специфический.

Ключевые слова: Афоризм, текст, лингвостилистическая специфика, структурно-семантические особенности, контекст, прагматический эффект, ценностная картина мира.

AFORIZMLAR INTEGRAL MATN SIFATIDA: STRUKTURAL VA SEMANTIK TUZILMASI

Annotatsiya

O'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi aforizmlar integral matn sifatida o'rganishga kompleks yondashuv bilan belgilanadi. Ilmiy paradigmaga matnning ishlab chiqarilishi va talqin qilinishini belgilaydigan ekstralingvistik va lingvistik kommunikativ omillarni o'rganish alohida ahamiyatga ega; aforizm kommunikativ stilistika nuqtai nazaridan lingvomadaniy va janrga xos bo'lgan maxsus matn turi sifatida qaraladi. Maqolaning maqsadi aforizmlar integral matn sifatida loyihalashning asosiy tarkibiy mexanizmlarini o'rganish va bunday aforistik tuzilmani aforizmlarning semantikasi va pragmatikasiga bog'lashdir.

Kalit so'zlar: Aforizm, matn, lingvistik-stilistik o'ziga xoslik, tarkibiy-semantik xususiyatlar, kontekst, pragmatik effekt, dunyoning qimmatli surati.

Introduction. The mechanisms of the structural-semantic organization of an aphorism, identified in the process of research, are determined by certain semantic features of this integral text: first of all, the aphorism must have a laconic volume (no more than three sentences), in the coordinates of which a certain universal idea must be realized, revealing ontological aspects, guiding human reflections to reveal universal values, which can provide answers to important questions of existence. The mechanisms of the structural and semantic organization of an aphorism are determined by its general significance and expressiveness (considering its particular characteristics of expressiveness, emotionality and imagery). Intertextuality can also play an important role in the design of the structure of an aphorism and its functioning in the text. Modern linguistics generates an integrated approach to the study of literary text, which is aimed at considering the influence of linguistic and extralinguistic communicative factors of communication on the process of generating a text and its interpretation. Extralinguistic factors include the personality of the author and the specifics and features of the implementation of aesthetic communication, as well as the nature of the communicative situation, genre, etc. For a functional approach, significant within the framework of communicative stylistics, the determining factor is not the structural-linguistic method of describing styles, but the identification of the specifics of the functioning of styles in the

correlations of “style-forming factors and linguistic means” and the disclosure of the importance of the extralinguistic in communication.

Modern concepts of communicative stylistics interpret an aphorism as a special text, which is characterized by linguistic-stylistic and genre specificity. Traditionally, aphorisms are understood as judgments that are brevity, characterized by philosophical meaning and completeness in semantic terms. The purpose of the article is to study the basic structural mechanisms of the design of an aphorism as an integral text and the conditioning of such an aphoristic structure on the semantics and pragmatics of an aphorism.

Literature review. An aphorism as a complex phenomenon is a relevant object of linguistic research, developing in several directions, the priority among which are communicative-stylistic, cognitive-pragmatic, linguoculturological and structural-semantic. Communicative stylistics creates the necessary conditions for clarifying the specific features of an aphorism, in particular, recognizing its artistic and figurative speech concretization as fundamental. This basic feature of a literary text is determined by a number of extralinguistic factors that distinguish it from figurative concretization in a literary text, and in this regard, it is important that the concept of artistic figurative speech concretization is much broader than the understanding of verbal imagery.

Research methodology. Aphorisms are used in a variety of social spheres (science, art, politics, law, religion, everyday life, etc.), in official and informal communicative situations, combining logical and figurative thinking, which is facilitated by a complex of aphorism functions, including aesthetic, communicative, expressive function. In addition, an aphorism is potentially characterized by pragmatic attitudes of reasoning, denunciation and reproach, warning, (self) justification, statement, justification, appeal to authority (including the author himself), motivation, advice, knowledge, aesthetic impact, etc. The study of an aphorism from the standpoint of systemic stylistic analysis and the method of linguistic interpretation of a text makes it possible to identify its constitutive features – universal significance, expressiveness, information density (conciseness) - and to describe the correlative connections of the logical-semantic and linguistic aspects in an aphorism as a special type of text.

Traditional for linguistics is the consideration of aphorisms as texts, regardless of whether they are individual literary works (i.e. isolated aphorisms) or they are presented in larger texts (i.e. introductory aphorisms). In addition, the texts may contain aphorisms that are not interpreted adequately out of context, i.e. structurally limited by context.

As a special type of text, an aphorism is both a speech work, which is characterized by independence, and a microtext (a component of the macrocontext), and such characteristics can be applied to the same aphorism, which determines its structure and functions. Based on the structural criterion, isolated and introductory aphorisms are distinguished. Isolated aphorisms are statements that the author himself qualifies as aphorisms, which allows him to sometimes combine them into separate collections of his own sayings.

Analysis and results. Introductory aphorisms are studied as sayings that are an integral component of an artistic or journalistic, scientific text, which are nevertheless isolated from larger texts on the basis of the implementation of conceptually significant ideas in them (in this case, the marker is lexemes and lexical combinations included in a certain concept sphere) and the possibility of limiting the volume of the introductory aphorism (no more than three sentences).

In our opinion, if an aphorism is not initially isolated, but is presented in the text as its semantic and structural component, as a separate syntactic unit within the text, then it can be studied from the perspective of linguistics only as an integral text, and its semantic structure in this case acquires a more universal meaning, applicable not only to the specific context from which it is isolated, but also realizing ontological content. In other words, the structural and functional autonomy of an aphorism becomes possible only if its original meaning is transformed when extracted from a specific context in the coordinates of a literary text.

In our opinion, the mechanisms of the structural-semantic organization of an aphorism are determined by certain semantic features of such a complete text: first of all, the aphorism must have a laconic volume, the coordinates of which must contain a certain universal idea that clarifies aspects of human existence, guides his thoughts about universal values, capable of giving answers to ontologically important questions. It is also important to note that the design of an aphoristic statement within an integral text of a larger

volume is also influenced by extralinguistic factors that make it possible to translate linguistically and culturally significant meanings through an aphorism. Elucidation of the mechanisms of the structural organization of aphorisms is necessary, first of all, for their correct isolation from the macrocontext. The semantics of an aphorism must be broader than the context that surrounds it; it must be free from contextual and situational restrictions, for example: "Generally speaking, it is not known how much a person needs. Probably more than what he needs, and no less than what he wants."

The aphorism given as an example is indeed a statement that has a universal meaning, which is realized through the use of the lexeme *man* and other grammatical means (pronouns *how many*, comparative degrees of adjectives *more, less*, etc.). An aphorism can be included by the author in a broader context in different ways. An aphorism does not always undergo transformations in the text: it may not depend semantically on the context, its representation as an independent text does not entail changes in the structural-semantic and/or lexico-grammatical organization. Such aphorisms are autonomous in relation to the surrounding context, for example: "Some of us earn well. Some people win on loans. Some people even know where they get their money from. But we have little idea what wealth is." We emphasize here that the autonomy of the highlighted aphoristic statement can be recognized through the use of the pronouns *we* and *some*, which expands the applicability of the verbalized situation to the widest addressee.

Conclusions and suggestions. This article tries to systematize the mechanisms of the structural and semantic organization of an aphorism as an integral text and, on this basis, to establish criteria for isolating an aphoristic statement from a larger literary text. Clarification of the factors that determine the semantics and pragmatics of an aphorism as a special type of text seems relevant for modern linguistics due to the blurred boundaries and the lack of a clear methodology for a relatively new field of research - aphorism. Aphorisms act as separate statements, characterized by general significance, expressiveness, and laconic volume.

In addition, alogism, which often forms the basis of the structure of an aphorism, is capable of imparting additional expressiveness to an aphoristic statement and revealing ontologically significant meanings thanks to a unique form of representation of an idea. An important role in determining the structural and semantic mechanisms that are important for the design of the boundaries of an aphorism is also played by the author's intention, which allows the addressee to evaluate both the linguo-creative potential of the linguistic personality of the producer of the aphoristic statement and to perceive the dominants of his value picture of the world. In our opinion, a promising approach to studying aphorisms presented in this article is studying the representation of the author's value picture of the world in aphoristic form, identifying correlations between the genre of the source text and the frequency of occurrence of aphorisms in such a text. It also seems important to parameterize the signs of aphorism, allowing one to correctly determine the boundaries of an aphorism in a larger literary or journalistic text, which should strengthen the evidentiary power of the concepts of aphorism as a promising area of the science of language.

REFERENCES

1. Stylistic encyclopedic dictionary of the Russian language / [ed. M.N. Kozhina]. M.: Flinta: Nauka, 2006.
2. Odintsov V.V. Stylistics of the text. M.: Nauka, 1980.
3. Epshtein M.N. Aphoristics. Literary encyclopedic dictionary. Moscow, 1987:43.
4. Fedorenko N.T. Aphoristics / N.T. Fedorenko, L.I. Sokolskaya. M.: Nauka, 1990.
5. Artemova A.V. Emotive-evaluative objectification of the concept WOMAN in the semantics of phraseological units (based on English and Russian phraseology): abstract. dis. ...cand. Philol. Sci. Pyatigorsk; 2000:16.

6. Anastasyeva O.A. Extralinguistic conditioning of the linguistic-style specificity of the English aphorism. Scientific notes of the Taurida National University named after. IN AND. Vernadsky. Series "Philology. Social communications". Volume 24 (63). 2011;4:2:208-212.
7. Manyakina T. N. Linguistic and stylistic characteristics of the genre of aphorisms (based on the material of the German language): abstract. dis. ...cand. Philol. Sci. Dnepropetrovsk, 1980:230.
8. Tarasenko T.P., Velichko M.A. Cognitive-pragmatic features of aphoristic discourse (based on the aphorisms of V. I. Dahl and S. Johnson). Philological sciences. Questions of Theory and Practice, 2017;3(69):3:171-175.
9. Bulanin D.M. Political doctrine in aphorisms: little-studied sources of the "First Message" of Ivan the Terrible to Andrei Kurbsky. Welt Der Slaven-Halbjahresschrift Fur Slavistik, 2019;64(1):87-107. ISSN: 0043-2520. Accession Number: WOS:000456218200005.
10. Patrusheva E.V. On the issue of identifying linguistic and speech aphorisms. Almanac of modern science and education, 2010;2(33):II:124-126.
11. Marinchenko I.A. Structural and semantic features of aphorisms with the pronoun "nothing". Philological sciences. Questions of Theory and Practice, 2016;9(63):3:117-121.



Zohida AMIROVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD

O'zDJTU dotsenti, A.Qo'ldoshov taqrizi asosida

“DISKURS” TUSHUNCHASI VA TILSHUNOSLIKDA DISKURS TAHLILI METODOLOGIYASI

Annotatsiya

Pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri nutq masalasidir. Munozara atamasi kundalik hayotda tez-tez uchrab turadi. Tilshunoslikda «diskurs» tushunchasi nisbatan yaqinda o'rganilmoqda. O'tgan asrning o'rtalariga qadar tilshunoslar tilni rasmiy nuqtai nazardan - ma'lum bir vaziyatda odamlar tomonidan o'z maqsadlariga muvofiq foydalanadigan juda mavhum tizim sifatida ko'rib chiqdilar. Nutq formalistik tahlilga bo'ysunadi, lekin u bilan cheklanib bo'lmaydi. Funktsionalistlar tilning mavjudligi shaklinigina emas, balki u bajaradigan vazifalarni ham hisobga oladi.

Kalit so'zlar: Diskursiv tahlil muammolari, diskursiv tahlil, pragmatik tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lisoniy, nolisoniy, antropologik tadqiqot, kommunikativ-diskurs, kognitiv-diskurs.

CONCEPT OF "DISCOURSE" AND METHODOLOGY OF DISCOURSE ANALYSIS IN LINGUISTICS

Annotation

One of the main problems of pragmatic and cognitive linguistics is the issue of speech. The term debate is often encountered in everyday life. In linguistics, the concept of "discourse" has been studied relatively recently. Until the middle of the last century, linguists considered language from a formal point of view - as a very abstract system used by people in a given situation according to their goals. Speech is subject to, but not limited to, formalistic analysis. Functionalists consider not only the form of existence of language, but also the tasks it performs.

Key words: Problems of discursive analysis, discursive analysis, pragmatic linguistics, cognitive linguistics, anthropological research, communicative-discourse, cognitive-discourse.

ПОНЯТИЕ «ДИСКУРС» И МЕТОДОЛОГИЯ ДИСКУРСНОГО АНАЛИЗА В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

Одной из основных проблем прагматической и когнитивной лингвистики является проблема речи. Термин «дебать» часто встречается в повседневной жизни. В языкознании понятие «дискурс» стало изучаться сравнительно недавно. До середины прошлого века лингвисты рассматривали язык с формальной точки зрения — как весьма абстрактную систему, используемую людьми в данной ситуации в соответствии со своими целями. Речь подлежит формалистическому анализу, но не ограничивается им. Функционалисты рассматривают не только форму существования языка, но и выполняемые им задачи.

Ключевые слова: Проблемы дискурсивного анализа, дискурсивный анализ, прагматическая лингвистика, когнитивная лингвистика, антропологическое исследование, коммуникативно-дискурс, когнитивно-дискурс.

E.Benveniste birinchilardan bo'lib «nutq», terminologik ma'nosi «so'zlovchi tomonidan tayinlangan nutq» tushunchasini bergan. Nutq nazariyasining kelib chiqishi va uni tahlil qilish usullarini tildan foydalanish (P.Xartmann, P.Vunderlix va boshqalarning nemis maktabi), muloqotning sotsiolingvistik tahlili (E.Shecheglovning Amerika maktabi, G. Zaks va boshqalar), har xil turdagi matnlarning mantiqiy-semiotik tavsifi (A. Greymas, E. Landovskiy va boshqalarning tadqiqotlari), kognitiv psixologiyada nutq ishlab chiqarishni modellashtirish, antropologik tadqiqotlarda muloqotning etnografik tavsifidir.

Bugungi kunda asosiy kommunikativ tilshunoslik va zamonaviy ijtimoiy fanlardan biri bo'lgan nutq kategoriyasi, shuningdek, keng qo'llaniladigan har qanday tushuncha turli xil ilmiy talqin qilish imkonini beradi va shuning uchun, ayniqsa, matn, nutq va dialogga tegishli atamalarga nisbatan aniqlik kiritishni talab qiladi. Birinchi ma'noda nutq sotsial-madaniy vaziyatga singib ketgan matn, gap sifatida tushuniladi. Darhaqiqat, tilshunoslikda 70-yillardagi matn. 20-asrda odatda "diskurs" va "matn" atamalarini aniqlangan, bu ba'zi Evropa tillarida frantsuz-inglizcha "diskurs" ga ekvivalent so'zning yo'qligi bilan izohlangan - uni "matn" nomi bilan almashtirishga majbur bo'lgan. Bu terminologiya nutq va matn ekvivalent sifatida qarala boshlaganiga olib keldi. Tushunchalarni ishlab chiqarish uchun birinchi bo'lib

aspektlarni farqlash qo'llanilgan, ular ifodalagan: nutq ijtimoiy, matn esa lingvistik. Shu ma'noda, nutq bayonot bilan bog'liq. Aytish mumkinki, matn o'zining hosil bo'lish va idrok etish sharoitida gap sifatida nutq vazifasini bajaradi. Muloqot inson faoliyatining uni shakllantiradigan shakllari: nutqlar, intervyular, hisobotlar va boshqalar bilan bir qatorda o'rganiladigan matn orqali hayotga singib ketgan deb ataladi. Shu bilan birga, D. Shifrin shakl va funktsiyaning o'zaro ta'sirini aytib, topadi. "Diskurs as so'z" dan kelib chiqadiki, nutq "ko'proq jumla" til strukturasiining ibtidoiy izolyatsiya qilingan birliklari emas, balki funktsional jihatdan tashkil etilgan, kontekstualashtirilgan ajralmas to'plam sifatida. tildan foydalanish birliklari. Shu nuqtai nazardan, bayonotni aniqlashga yondashuvlarning noaniqligi namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, rasmiy yoki tizimli yo'naltirilgan tilshunoslik nuqtai nazardan amalga oshirilgan birinchi yondashuv nutqni matn sifatida, "til jumladan yoki gapdan yuqori" deb belgilaydi. "Demak, nutq ostida bir-biri bilan semantik aloqada bo'lgan ikki yoki undan ortiq gaplar tushuniladi".

Shuni hisobga olish kerakki, diskursiv tahlil metodologiyasida nutqni tahlil qilishning istiqbolli yo'nalishlari sifatida ikkita zamonaviy yondashuv mavjud: kommunikativ-diskursiv va kognitiv-diskursiv. Kommunikativ paradigma asosiy e'tiborni aloqa funktsiyalariga,

kommunikativ faoliyatga va uni amalga oshirish kontekstining ta'siriga qaratadi. Muloqot yondashuvi birinchi navbatda pragmatikada nutq aktlari nazariyasida J. Ostin, J. Searl, D. Vunderlix, G.P. Grice, P.F. Strouson, S. Levinson va boshqalar. Ushbu yondashuv nuqtai nazaridan, nutq so'zlovchilar / til foydalanuvchilari tomonidan ma'lum kommunikativ vaziyatlarda bajaradigan ijtimoiy mazmunli harakatlar (nutq harakatlari) nuqtai nazaridan tavsiflangan ijtimoiy shartli o'zaro ta'sir jarayoni sifatida tushuniladi. Ushbu nazariya so'zlovchining (murojaat qiluvchining) niyatini, niyatning boshqa ekstralingvistik omillar bilan bog'liqligini, nutqiy maqsad va nutq harakatining holatlarini, so'zlovchining psixologik holati o'rtasidagi muvofiqlik shaklida hisobga olishga imkon beradi, uning ijtimoiy mavqei, aloqa holati va tinglovchi haqida g'oyalar [Milevskaya, 2003; Kubryakova va Tsurikova, 2004; Grigorieva, 2007].

Shuni ta'kidlash kerakki, pragmatik asarlar orasida madaniyatlararo muloqotda nutqning xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan, qarama-qarshilik va madaniyatlararo pragmatik nuqtai nazardan olib borilgan (masalan, nutq aktlarini qanday amalga oshirishning tavsifi) mavjud. turli tillarda so'rash, kechirim so'rash va boshqalar) [Serkova, 2000; Kubryakova va Tsurikova, 2004]. Bundan tashqari, muloqotga yo'naltirilgan yondashuvga ko'ra, nutq odamlarning ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansubligi nuqtai nazaridan yoki ma'lum yoki boshqa tipik nutq vaziyatiga nisbatan muloqoti sifatida ham tushuniladi. Misol tariqasida, V.I. Karasik institutsional muloqotni bir-birini tanimaydigan, ammo ma'lum bir kasbiy yoki ijtimoiy guruh me'yorlariga muvofiq muloqot qilishi kerak bo'lgan odamlar o'rtasidagi aloqaning ixtisoslashgan klişe shakli sifatida taqdim etadi [Karasik, 1998].

Kognitiv-diskursiv (kognitiv-kommunikativ) yondashuv nutqni o'rganish uchun juda katta imkoniyatlarni beradi, chunki u muloqot jarayonini eng tugallangan shaklda o'rganishga imkon beradi: ma'lumotni shakllantirish va saqlashdan tortib uni uzatishgacha bo'lgan shartlarga muvofiq aloqa.

E.S. ta'kidlaganidek. Kubryakova va L.V. Tsurikov, kognitiv-kommunikativ yondashuv doirasida nutq muayyan maqsadlarni ko'zlab, odamlarning ijtimoiy faoliyati turi bilan belgilanadigan ma'lum vaqtinchalik va umumiy xronologik doiralat bilan chegaralangan tildan foydalanish (nutq faoliyati) jarayoni sifatida o'rganiladi. va maqsadlari va uni amalga oshirishning umumiy ijtimoiy-madaniy va individual parametrlari nuqtai nazaridan qat'iy belgilangan sharoitlarda davom etish.

Diskursiv tahlil muammolarida ta'kidlanganidek, uning kognitiv yo'nalishi tasvir, fakt, haqiqat, fikr, baholash kabi hodisalarga qiziqanligi sababli, modus kategoriyalarining tilda amalga oshirilishini sub'ektiv-baholash pozitsiyasini ifodalash usullari sifatida ko'rib chiqdi. nutq tahliliga kognitiv-diskursiv yondashuv doirasida adreslovchi.

Kognitiv tilshunoslik doirasidagi mod kategoriyalari (modus kategoriyalari) insonning muloqot haqidagi bilimlarini, uning mavjudligi va amalga oshirilishi me'yorlarini tartibga soluvchi tushunchalarni aks ettiradi. Modus toifalarining o'ziga xosligi shundaki, ular ma'ruzachi tomonidan u yoki bu kontseptual mazmuni turli xil talqin qilish imkoniyatini beradi. Ushbu turkum tipi inson ongi uchun ontologik va atrofdagi dunyo va til dunyosiga nisbatan gnoseologikdir [Boldyrev, 2005].

Modus kategoriyalari kommunikativ xarakterga ega, chunki ular muloqot jarayonining o'zi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular muloqot va tushunish jarayoniga xizmat qiladi va inson sub'ektivligini ifodalash shakli sifatida mavjud. Bundan tashqari, ushbu toifalar nutq faoliyatining amalga oshirilgan usullari va mexanizmlaridir [Popova, Sternin, 2007;

Boldyrev, 2005b; Kobrina, 2006 yil; Vasilyeva, 2010; Tupikova, 2014].

Umumiy bilim fondining madaniy yuki, birinchi navbatda, ekstralingvistik komponentni belgilash bilan belgilanadi va oldindan belgilanadi. Madaniy komponent ma'lum bir etnosotsiatsiyaning madaniy sohasiga oid nomlarni, tipik bayonotlarni, matnlarni og'zaki zikr qilish shaklida yorqin va vizual tarzda amalga oshiriladi. Yuqoridagi nomlash fon bilimlarini olgan umumiy bilim fondining og'zaki tomoni ustuvorlik bilan tavsiflanadi.

Ustunlik fon bilimlarining eng muhim xususiyati bo'lib, etnosotsiatsiya va uning xarakterli modellarini sotsial-madaniy xulq-atvor va mental-lingvistik idrokni birlashtiruvchi lingvokulturologik jihatdan fon bilimlarini ko'rib chiqishga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, "fon bilimi" atamasi tilshunoslikda boshqacha ma'no talqiniga ega. U ikkita elementning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi: bevosita aloqa holatini bilish va tushunish (uni "vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari" deb atash mumkin, atamani biroq o'zgartirgan I. N. Gorelova va qo'shimcha ravishda dunyo haqida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lish, bu shaxsning ma'lum bir milliy-madaniy an'anaga mansubligi bilan bog'liq. Vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish bilan bog'liq bilimlarni so'zning tor ma'nosida fon bilimlari deb atash mumkin. Bu erda ko'rsatilgan elementlarning ikkinchisi madaniy va lingvistik kodga ega bo'lishni o'z ichiga oladi (shu bilan birga, madaniy-lingvistik kod ma'lum bir milliy-lingvistik jamoaga xos bo'lgan til va madaniyat tomonlarini birlashtirishni o'z ichiga oladi). Ushbu tabiatning fon bilimlarini izolyatsiya qilish o'rganilayotgan hodisaga keng yondashishning natijasidir. Asosiy bilimlarni bunday ikki tomonlama (keng va tor) tushunish tilshunoslikda ushbu hodisa to'g'risida allaqachon shakllangan tushunchaga mutlaqo zid emas. Terminologiyada tafovutlar mavjud bo'lsa-da foniyl bilimlarning belgilovchi xususiyatlariga ulara og'zaki bo'lmaganligi bilan tavsiflanadi, bu muloqot jarayonining og'zaki bo'lmagan komponenti, bu og'zaki bo'lmagan aloqa komponentini o'zaro bilish aloqa jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi va madaniyat, tarix, geografiya, pragmatik bilimlarga taalluqlidir.

So'zning keng ma'nosida fon bilimlari bir xil madaniy va lingvistik kodning barcha tashuvchilarini birlashtirishini hisobga olgan holda, fon bilimlarining madaniy tarkibiy qismini, ya'ni fonning butun hajmidan aniqlashni maqsad qilib qo'yish kerak. bilimlar madaniy komponent mavjudligi bilan belgilanadiganlarni tanlaydi. Shu ma'noda, quyidagi ma'lumotlar qiziqarli: (1) madaniy komponentlarning tabiati: voqelikning qaysi ob'ektlari uning manbai bo'lib xizmat qilgan, (2) madaniy komponentning lingvistik ifodasi: lingvistik ierarxiyaning qaysi darajasining birliklari madaniyatning uzatilishi bo'lib xizmat qiladi. ma'lumot, (3) bu turdagi asosiy bilimlarning tabiati. Madaniy rejani o'rganish vazifasi muloqotda eng ko'p uchraydigan madaniy jihatdan belgilangan fon bilimlarining turlarini aniqlash bo'lishi mumkin.

Madaniy komponent voqelikka nisbatan eng aniq namoyon bo'ladi. Realiza - tarixiy davr bilan bevosita bog'liq bo'lgan moddiy narsalar, hodisalar, tushunchalarning nomidir. Demak, voqelikka quyidagilar kiradi: (1) madaniy-tarixiy assotsiatsiyaga ega geografik nomlar (toponimlar), (2) mashhur kishilarning nomlari (antroponimlar), (3) adabiyot va san'at asarlarining nomlari, tarixiy faktlar va hayotdagi voqealar. mamlakat, davlat va xususiy muassasalarning nomlari va boshqalar, (4) geografik joylashuvi, fauna va floraning o'ziga xos xususiyatlarini bildiruvchi geografik atamalar, (5) davlat, siyosiy tizimga oid ba'zi so'zlar (jumladan, taniqli atamalar) mamlakat, huquqshunoslik, san'at, ta'lim tizimi, ishlab chiqarishdir.

Madaniy komponentning manbai atrofida dunyo haqida og'zaki bilim bo'lib xizmat qilishi mumkin, bu madaniy va til hamjamiyatida keng tarqalgan. Madaniy va tilshunoslik jamiyatining kundalik turmush tarzi xususiyatlarini bilish quyidagi fikrni tushunish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega: They agreed in nothing but their perfect neatness, their display of the whitest linen, and their storing up, wheresoever the existence of a drawer, small or large, rendered it possible, of quantities of rose-leaves and sweet lavender. (Tarjimasi: Ular o'zlarining mukammal ozodaligi, eng oq choyshabni ko'rsatishlari va kichik yoki katta tortmasi bo'lishi mumkin bo'lgan joyda atirgul barglari va shirin lavantalarni saqlashlari bilan rozi bo'lishdi). Kitobga berilgan sharhlarda matnda tilga olingan atirgul barglari va lavanta uy bekalari tomonidan xushbo'ylik uchun zig'ir ko'zoynagiga qo'yilganligi ko'rsatilgan.

Shu sababli, fon bilimlarining madaniy tarkibiy qismi manbalarining turli xil tabiatini ta'kidlash kerak: bu voqelik ob'ektlari, ma'lum bir madaniy va lingvistik sohada keng qo'llaniladigan umumiy madaniy ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalar, madaniyat tushunchalari va hodisalari bo'lishi mumkin. etnosentrik tabiat, lingvistik tartibdagi hodisalar, ob'ektiv voqelik ob'ektlari yoki faktlari bilan bog'liq tasavvurlar. Shunga ko'ra, fon bilimining madaniy komponenti, birinchi navbatda, leksik tizim birliklari bilan bog'liq, ammo u iboralar, va matnlar shaklida amalga oshiriladigan til tizimlarining boshqa darajalarida lokalizatsiya qilinishi mumkin.

Ushbu bobda nutq va nutq tahlili tushunchasining tarixiy va nazariy asoslari haqida ma'lumot berilgan. Zamonaviy fanda nutqni tushunish tobora chuqurlashib bormoqda, bu ushbu tushunchani o'rganishga zamonaviy yondashuvlarda o'z aksini topmoqda. Bundan tashqari, ishning ushbu qismida nutqning nazariy asoslari va uning metodologiyasi taqdim etilishi mumkin. "Madaniy" fakt sifatida nutq madaniy ma'lumotlarning tarjimoni va til yordamida ushbu madaniyatni yaratuvchi shaxs sifatida tilning

o'zaro ta'siriga asoslanadi. Tashuvchi til yoki til shaxsi, ma'lum bir vaziyatda muloqot maqsadlari, kommunikativ odob-axloq qoidalari to'g'risida ma'lumotga ega, ma'lum bir klişe iboralar to'plamiga va madaniy aloqa holatlarida diskursiv xatti-harakatlar modellariga ega. Madaniy belgi nutqni milliy miqyosda belgilaydi va uning tarkibiy tomonlari va tarkibiy qismlari u yoki bu tilda muloqot qilish uchun madaniy talablar bilan belgilanadi. Bu talablar nutq tizimida shakllarni tanlash va u yoki bu nutq modellarini ustuvorlashtirish orqali namoyon bo'ladi. Nutq tizimi amalda u yoki bu modellar shaklida amalga oshiriladigan ma'lum bir nutq konstruksiyasining mavjudligini nazarda tutadi. Nutq shakli uning tuzilgan usulini aktuallashtiradi.

Nutq tizimi va kommunikantlarning lingvomadaniy birligi uchun asos yaratadi. Ushbu birlikning asosi suhbatdoshlarning o'xshash axborot darajasi sifatida taqdim etilgan kommunikativ hamjamiyatdir (ushbu maqolada u yagona axborot bazasi mavjudligi deb hisoblanadi), o'tmishdagi o'xshash aloqa tajribasi, taniqli ma'lumotlarga tayanish. Ushbu kommunikativ jamoaning tabiati pretsedentlik xususiyatiga ega. Ustuvorlik deganda lingvomadaniy hamjamiyat a'zolarining lingvistik tajribasida ularning takrorlanuvchanligi tufayli madaniy jihatdan belgilangan kvant bilimlarining mavjudligi tushuniladi. Bunday holda, logopistema nutqda namoyon bo'ladi. U jamiyatning madaniy hayotida o'ziga xos o'rin egallagan pretsedent hodisalarni tilda belgilash uchun ishlatiladi.

Nutq fanining tamoyillari shaklga moslashtirilgan nutq tizimi tomonidan belgilab qo'yilgan nutq modelini qurishni belgilaydi. Shakl nutqi, shaxs va shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy tomonidan qabul qilingan tushunchalariga qarab qurilish usulini tanlash bilan bog'liq holda, nutq xatti-harakatlarining og'zaki tarkibiy qismiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Nutq xulq-atvorining og'zaki tomoni - talaffuz, leksik-grammatik, strukturaviy va estetik tarkibiy qismlarni belgilash natijasidir.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.supersummary.com/discourse-in-literature-definitionexamples/#discourse-outside-of-literature>
2. Kubryakova 2000:6).
3. Definition and Examples of Discourse:Glossary of Grammatical and Rhetorical Terms By Richard Nordquist Updated January 30, 2020
4. Hinkel va Fotos 2001
5. Genri va Tator 2002
6. <https://literarydevices.com/discourse/>
7. <https://www.supersummary.com/discourse-in-literature-definition-examples/>
8. Alvesson, M. & Skoldberg, K. (2000). Refleksiv metodologiya: Sifatli tadqiqotlar uchun yangi vistalar. London: Sage.
9. Alvesson, M. & Willmott, N. (1992a). Menejment va tashkilotni o'rganishdagi ozodlik g'oyasi to'g'risida. Menejmentni ko'rib chiqish akademiyasi. 17.432-164.
10. Alvesson, M. & Willmott, N. (1992b). Boshqaruvni tanqidiy o'rganish. London: Sage.
11. Berger, P. L. va Luckmann, T. (1967). Haqiqatning ijtimoiy qurilishi: sotsiologiyasi haqidagi risola. bilim. Garden City, NY: Anchor.



Zulxumor ASHUROVA,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dots. v.b , f.f.d. (PhD)
E-mail: ashurovazulxumor1@gmail.ru

NamDU dotsenti D.Babaxanova taqrizi asosida

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF CHILDREN'S LITERATURE OF THE PERIOD OF INDEPENDENCE (IN THE CASE OF THE POEMS OF F/OBIDJON, O.DAMIN, D.RAJAB)

Annotation

Studying the language features of children's literature of the period of independence and their linguopoetic features is one of the important tasks facing our linguistics. In this article, the children's literature of the period of independence is discussed in terms of today's style. A. Obidjon, O.Damin, D.Rajab's poetic skills were discussed.

Key words: Word, text, metaphor, metonymy, synecdoche, composition, lexeme, sema, phrase, emotion, feeling, experience, style, poetics.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ (НА ПРИМЕРЕ А.ОБИДЖОНА, О.ДАМИНА, Д.РАЖАБА)

Аннотация

Изучение языковых особенностей детской литературы периода независимости, и их лингвопоэтических аспектов является одной из важных задач, стоящих перед нашим языкознанием.

В данной статье детская литература периода независимости рассматривается с точки зрения сегодняшнего стиля, а представителям детской литературы, созданной в период независимости, являются А.Обиджон, О.Дамин, Д.Ражаб и его поэтическим способностям.

Ключевые слова: Слова, текст, метафора, метонимия, синекдоха, композиция, лексема, сема, единство, фраза, эмоции, чувство, опыт, стиль, поэтика.

MUSTAQILLIK DAVRI BOLALAR ADABIYOTINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI (A.OBIDJON, O.DAMIN, D.RAJAB SHE'RLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mustaqillik davri bolalar adabiyotining til xususiyatlarini, ularning lingvopoetik qirralarini o'rganish tilsunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Mazkur maqolada mustaqillik davri bolalar adabiyotining bugungi kundagi o'rni haqida to'xtab o'tilgan bo'lib, istiqloq davrida ijod qilgan bolalar adabiyotining vakillari A.Obidjon, O.Damin, D.Rajabning poetik mahorati haqida mulohazalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: So'z, matn, metafora, metonimiya, sinekdoxa, kompozitsiya, leksema, sema, birlik, ibora, emotsiya, tuyg'u, kechinma, uslub, poetika.

Kirish. Mustaqillik davri bolalar adabiyotini o'rganish bolalar o'zbek tili badiiy uslubining shakllanish va taraqqiyotida ma'naviyatli, yetuk kadrlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish masalalari alohida belgilab qo'yilgan. Adabiyotni o'rganish, tadqiq qilish, kelajak avlodni mukammal tarbiyalash demakdir.

Bolalar adabiyoti so'z san'ati va tarbiya vositasidir. Shuningdek, mustaqillik davri bolalar adabiyoti o'sib kelayotgan yosh avlodni iymon-e'tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamalakatimizning tengsiz kuch qudratidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbek tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlar alohida monografik aspektida o'rganilgan bo'lsa-da, A.Obidjon, O.Damin, D.Rajab ijodi timsolida alohida tadqiq qilinmagan. Keyingi yillarda o'zbek badiiy matn muammolariga, xususan uning lingvopoetikasi masalalariga bag'ishlangan bir necha dissertatsiyalar himoya qilindi, monografiyalar nashr etildi. Tilshunos olimlardan I.Mirzayev, S.Karimov,

M.Yoqubbekova, M.Yo'ldoshevlarning doktorlik dissertatsiyalari, M.Yo'ldoshev, G.Muhammadjonova, D.Shodiyeva, Sh. Haydarova, G.Jamoliddinova, F.Ibragimovalarning nomzodlik dissertatsiyalari, M.muhammadjonov, S.Karimov hamda B.Yo'ldoshev, Z.Shodiyev, G.Jumanazarovalarning monografiyalarini keltirish mumkin. Biroq, zamonaviy o'zbek tilshunosligida monografik izlanishlar A.Obidjon, O.Damin, D.Rajab ijodi asosida to'laqonli o'rganilgan emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ishda mavzu talabidan kelib chiqqan holda, qiyosiy-tarixiy, tavsifiy va tasniflash metodlaridan foydalaniladi. Uning ob'ektini zamonaviy ilmiy manbalar va bolalar she'riyat materiallari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. "Badiiy matnning startifikatsiya hodisasi deganda, avvalo, badiiy bo'yoqdorlik, grammatik tuzilish, tagma'no va taqqatlamlarning stilistik xususiyatlari yagona markazda jiplashuvi, dominantat birliklar"ning o'zaro aloqasi tushuniladi. She'riy matnda esa mazkur birliklar faqatgina obrazlilikni yuzaga chiqaribgina qolmasdan, ulardagi tagma'nolarning o'ziga xos qirralarini ham namoyon qilishga keng yo'l ochadi [1]. Istiqloq davrida barakali ijod qilgan A.Obidjon, O.Damin, D.Rajab poetik mahoratida so'z birliklarini o'z o'rnida, vaziyatida qo'llay olganligini e'tirof etish joizdir. Lingvopoetika tilshunoslikda badiiy matni

o'rganishning uchinchi darajasi deya e'tirof qilinadi [2]. Darhaqiqat, semantic darajalarni tahlil qilish orqali lingvopoetik unsurlar dinamikasini aniqlashga keng yo'l ochish mumkin. Jumladan, shoir nima haqida yozayotganida – kimni nazarda tutishiga qarab anglash maqsadga muvofiqdir.

O'rmon bilan adimimg

O'rtasi dala.

Hammom qurdi shu joyga

Fil kuzak palla.

Suv isitish bo'yicha

Timsoh bo'ldi bosh.

Oq mushukxon pattachi,

Qora it farrosh[3].

Mazkur she'rdagi jonzotlarning o'xshatilishi, piching va kinoya, yengil yumorni yuzaga kelishiga zamin yaratgan. Buni o'qigan bola tasavvurida qo'ldan kelmaydigan ishga aralashish mudxish xatolarni keltirib chiqaradi degan tasavvur zohir bo'ladi. Natjada, bolalar dunyoqarashi tiniqlashuviga, ulardagi bilim va kuch to'plash zahirasidagi rangillashuviga, hayotiy xulosalar chiqarishga, aql bilan ish tutishlariga sabab bo'ladi. A.Obidjon she'rlarida ko'p hollarda mittivoylarning dunyoqarashini o'stirishga qaratilgan eng muhim jihatlar, ya'ni voqelikni ich-ichidan o'tkazib tasvirlash, narsa-buyum, predmetlarning tag ma'nosida inson shaxsi turishi, kattalarga hurmat belgisi eng oliy qadriyat sanalishiga da'vat qilinadi.

Biz O.Damin, A.Obidjon, D.Rajab singari shoirlar ijodidagi uslubiy dominant belgilarining bir-birini to'ldiruvchi komponent ekanligini aniqlashga erishdik.

M.Yuldoshev ta'kidlashicha: “xususiy -muallif o'xshatishlarini badiiy matnni shunchaki, bezovchi go'zallashtiruvchi vosita sifatidagina qarash to'g'ri bo'lmaydi. Mahoratli ijodkor bunday o'xshatishlarga badiiy-estetik ehtiyoj zaruriyati bilan murojaat qiladi. Tasavvur qilish qiyin bo'lgan tushunchalarni konkerlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarining eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida gavdalandirish, tasvirni quruq emas, balki quyuyq buyoqlar bilan amalga oshirishda ana shunday o'xshatishlar favqulodda muhim vositadir”[4]. Demak, shoir kutilmagan vaziyat, sharoit, nuqtai nazar taqozosi bilan ham o'xshatishlarga moyil bo'lishi tayin. O'xshatishlarning mazkur xili A.Obidjon ijodida juda ko'plab uchraydi. Bir qarashda olma, tulki, bo'ri, sichqon, ayiq, qoplon, og'a, amaki, chol, qarg'a singari nomlardan o'xshatishlarni she'riy tizmalarga shu qadar sodda, tushunarli va kinoyaviy shaklda joylay olganki, uning mohiyatida -qo'lingdan kelmagan ishga aralashma, degan ma'oviy qatlam anglashiladi:

Ayiq bo'lsam

Bo'rim bo'l.

O'choq bo'lsam,

Mo'rim bo'l[5].

Mazkur she'rdagi so'zning markaziy o'zagi -bola. U o'zini ayiqqa, o'choqqa o'xshatmoqda. Ayiq va bo'ri obrazi ham o'ziga xos tarzda jilvalanadi. O'choq va mo'ri shaklida esa buyum ma'nosida qo'llaniladi. She'riy matnlarda o'xshatishlarning bolalarni hayratga solishi eng birlamchi maqsad sifatida namoyish qilinadi.

Topgan -topaloq,

Boshi yapaloq.

Boyqushga o'xshab

Ko'zi shapaloq [6].

Shoir she'rlarida rang-barang tasviriy ifoda unsurlari, metaforik birliklar tarannumi o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi she'rlarida namoyon bo'lgan. Shuni alohida qayd etish joizki, A.Obidjon ko'p hollarda -o'xshatishlarning favqulodda, kutilmagan shakliga murojaat qiladi. U his va tuyg'u natijasida go'zal bir tarzda yuzaga chiqishi lozim. Chunki bola-qiziquvchanligi, ta'sirchanligi, bilan hayot va olam haqida tasavvur qilishga moyil bo'ladi. Bu jihat she'riy matn poetic tadrijida an'anaviylikdan ko'ra, favqulodda ta'sir maydoniga evrilishi sinalgan hodisadir.

Dilshod Rajab she'rlarida kinoyaviy munosabat tabiat va undagi o'sish-o'zgarishlar fonida jilvalanadi. Bolalar kayfiyati, bilimdonligi, ularning nozik sezgilarini yengil yumor bilan tasvirlab topishmoq she'rlarida shoir yanada obrazlikka erishadi:

Rosa katta jonivor,

Favvoraday sochar suv.

Faqat bitta “ayb”i bor,

Sichqon ko'rsa qochar u [5].

Filning haybatli bo'lishi bilan oddiy sichqondan hurkishi “kinoyaviy parodik” usulga evriladi. Unda muallif ob'ektga hazil-mutoyibani nozik o'xshatishlar negizida singdirib yuboradi. Bolalar bunday emotsiyani o'zgacha xursandchilik bilan kutib olishadi. Ayniqsa, katta jonivorning –kichik jonivorga taslim bo'lish holatini tasavvur qiladi. Bolalar ruhiyatida aks-sado bergan mana shu birgina epizodik lavhada katta-ijtimoiy g'oyaviy falsafada zuhur etilganligi anglash qiyin emas. Chunonchi shoir bilim va tafakkur bilan katta narsalarni zabt etish mumkinligini bolalarga tushuntirmoqda. Lirik qahramon uzil-kesil o'z-o'zini anglash borasida bosh qotira boshlaydi.

Olqor Damin ijodida metafora, metonimiya, kinoyaviy –parodik usullar yordamida ma'no ko'chish turli xil she'riy asarlarida aks etganligini ta'kidlash lozim. Uning “Quvnoq alifbe” manzumasida har bir harfga alohida izoh beradi. Hazil-mutoyiba bilan sabzovot ekinlari va hayvonot olamining jonivorlari, bolalar o'yinchoqlarining mehnatkashligi haqida emotsionallik kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu mavzuning ilmiy dolzarbligidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1.Olingan xulosalar, tilshunoslik fanini yangi ilmiy-nazariy ishlanmalar bilan yanada boyitishda, yetuk, salohiyatli kadrlar tayyorlashda, lingvopoetika sohasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Har uchala ijodkorning so'z va frazemalardan, metafora va metonimiyadan, matndagi sintaktik qurilmalarni talqin qilish negizida lingvopoetik xususiyatlarining adabiy til me'yorlariga muvofiqlik darajasi aniqlangan.

3.Har uchala shoirning she'riy asarlarida badiiy til imkoniyatlaridan foydalanishi hamda leksik-stilistik kategoriyalarni rivojlantirishga qo'shgan hissasi belgilangan.

ADABIYOTLAR

1. Шмуйль И.А. Лингвопоэтическая стратификация художественных текстов и изучение индивидуального авторского стиля: На материале произведений Шекспира. кандидат филол.наук. диссертации автореферата. –М. 2001. –С. 3
2. Киртаева А.В. Лингвопоэтика многокомпонентных атрибутивных словосочетаний в английской драме XVI-XVII веков. . кандидат филол.наук. диссертации автореферата. –М. 2001. –С. 2.
3. Anvar Obidjon. Kichikintoylar quvonchi.- –T., “O'zbekiston”. 2019. –B. 132.
4. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari.- – T.: Ma'naviyat, 2002. – 60.
5. Dilshod Rajab. Yo'lim quyosh tomondir. –T: “Cho'lpon” nashriyoti. 2019. –B.172.
6. Anvar Obidjon. Polosonlik polaponlar – T. O'zbekiston 2018 – B 15
7. Anvar Obidjon. Polosonlik polaponlar – T. O'zbekiston 2018 – B 14



Umidjon YODGOROV,
Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
E-mail: yodgorov@navoiy-uni.uz

Filologiya fanlari doktori, professor S.Muhamedova taqrizi asosida

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLIGIZMLARNING O'RGANILISHI, LISONIY XUSUSIYATLARI VA NUTQIY QIYMATI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning o'rganilishi, lisoniy xususiyatlari va nutqiy qiymati tahlil qilingan. Frazeologik birliklar til leksikasining ajralmas qismi bo'lib, ma'lum ma'noni ifodalashga yordam beradi, tasvirlaydi va nutqning ekspressivligini oshiradi. Frazeologik birliklarning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida tarixiy kontekst, madaniy xususiyatlar, lisoniy jarayon, metafora va obrazlar, boshqa tillarning ta'siri aytish mumkin. Mazkur maqolada, shuningdek, frazeologik birlashma, frazeologik chatishma, frazeologik qo'shilmaning o'ziga xos xususiyatlari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: Frazeologizm, frazema, frazeologik birlashma, frazeologik chatishma, frazeologik qo'shilma.

ИССЛЕДОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ, ЯЗЫКОВЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ И ЗНАЧЕНИЯ РЕЧИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В данной статье анализируется изучение фразеологизмов, языковых особенностей и речевого значения в узбекском языкознании. Фразеологические единицы являются неотъемлемой частью языкового лексикона, помогают выразить определенный смысл, описывают и повышают выразительность речи. В качестве факторов, влияющих на формирование и развитие фразеологизмов, можно назвать исторический контекст, культурные особенности, языковой процесс, метафоры и образы, влияние других языков. В данной статье также описаны специфические особенности фразеологической ассоциации, фразеологического сочетания и фразеологического сочетания.

Ключевые слова: Фразеологизм, фразема, фразеологическое сочетание, фразеологическое сочетание, фразеологическое сочетание.

STUDY OF PHRASEOLOGY, LINGUISTIC FEATURES AND SPEECH VALUE IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation

This article analyzes the study of phraseologisms, linguistic features and speech value in Uzbek linguistics. Phraseological units are an integral part of the language lexicon, help to express a certain meaning, describe and increase the expressiveness of speech. Historical context, cultural characteristics, linguistic process, metaphors and images, influence of other languages can be mentioned as factors affecting the formation and development of phraseological units. This article also describes the specific features of phraseological association, phraseological combination, and phraseological combination.

Key words: Phraseologism, phraseme, phraseological combination, phraseological combination, phraseological combination.

Kirish. Tilning frazeologik birliklari (yoki frazeologik birliklar) tarkibidagi mustaqil so'zlarning ma'nosidan farq qiladigan, qat'iy ma'noga ega bo'lgan bir nechta so'zlardan tashkil topgan barqaror iboralardir. Frazeologik birliklar o'ziga xos leksik va grammatik tuzilishga ega bo'lib, ma'lum fikr, obraz yoki vaziyatni ifodalash uchun ishlatiladi.

Frazeologik birliklar til leksikasining ajralmas qismi bo'lib, ma'lum ma'noni ifodalashga yordam beradi, tasvirlaydi va nutqning ekspressivligini oshiradi. Iboralar, shuningdek, lingvomadaniy jihatdan o'ziga xos bo'lib, boshqa tillarda ularning ekvivalentlari bo'lmashligi mumkin. Ma'lum bir tilning frazeologik birliklari jamiyatning lisoniy muloqoti va madaniy taraqqiyoti jarayonida shakllanadi, rivojlanadi. Frazeologik birliklarning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Tarixiy kontekst: frazeologik birliklar tarixiy voqealar, madaniy an'analar yoki badiiy ijod namunalari bilan kelib chiqishi mumkin. Ular tarixning ma'lum davr yoki davrlari bilan bog'lanishi, ma'lum bir tasviriy vazifa bajarib, o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi.

2. Madaniy xususiyatlar: frazeologik birliklar jamiyatning madaniy xususiyatlarini va qadriyatlarini aks ettiradi. Ular an'ana, urf-odat, din yoki tarixiy voqealar bilan

bog'liq bo'ladi. Madaniy omillar frazeologik holga keladigan so'z va iboralarni tanlashni belgilaydi.

3. Lisoniy jarayon: frazeologik birliklar tilning kundalik qo'llanish jarayonida shakllanadi. Ular turg'un bo'lib, yangi ma'no kasb etadigan takroriy iboralardan kelib chiqishi mumkin. Tez-tez qo'llanilishi va avloddan-avlodga o'tishi tildagi frazeologik birliklarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

4. Metafora va obrazlar: frazeologik birliklar ma'lum ma'no yoki fikrni bildirish uchun qo'llaniladigan metafora va obrazlar asosida shakllanadi. Masalan, "qalbi pok" frazeologik birlikmasi qalb obrazida juda musaffo yoki yorqin narsani tasvirlash uchun ishlatiladi.

5. Boshqa tillarning ta'siri: frazeologik birliklar boshqa tillar yoki madaniyatlardan o'zlashtirilishi mumkin. Turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi aloqa natijasida yangi frazeologik birliklar paydo bo'lishi yoki mavjudlari moslashishi va o'zgarishi mumkin.

Tilning frazeologik birliklarining shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning lisoniy va madaniy evolyutsiyasini aks ettiruvchi dinamik jarayondir. Ular tilning muhim qismi bo'lib, nutqning boyligi va ifodaliligiga hissa qo'shadi.


B.Mengliyev frazeologik birlikni lison/nutq dixtomiyasida farqlar ekan, shunday izohlaydi: "Ibora ham

leksema kabi lug'aviy birlik sanalib, tilning lug'at boyligini tashkil etadi. Ibora so'z birikmasi yoki gap singari nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki xuddi leksema kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Demak, ibora nutq hodisasi emas, balki lisoniy birlikdir" [1]. Olimning fikriga ko'ra, ibora tarkibidagi so'zlar mustaqil ma'noga ega emas. Ibora so'zlar yig'indisining ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Shuning uchun uning tarkibidagi bir necha so'z bir butunligicha gap bo'lagi vazifasida keladi: Ko'z ochib-yumguncha necha ming piyoda va suvoriy kishilar paydo bo'ldi. (A.Qah.) Ko'z ochib-yumguncha iborasining ma'nosi "juda tez" va gapdagi vazifasi – payt holi. Lug'aviy birlik sifatida ibora so'zga xos qator xususiyatga ega. Iboraning ma'no tarkibi frazeologik (atash semasi) va qo'shimcha ma'no (ifoda semasi)dan iborat. Iboradan anglashiladigan belgi, miqdor va harakat kabilar haqidagi ma'lumot frazeologik ma'no (iboraning atash semasi) deyiladi. Masalan, Qizim boshimni osmonga yetkazdi (A.Qah.) Endi to'rtinchi rotani ham ratsiya bilan ta'min qilsak, oshiq olchi bo'lardi (I.Rah.) Birinchi gapda harakat ("juda xursand qildi"), ikkinchisida belgi ("juda yaxshi") ifodalangan. Iboraning atash semasi biror leksemaning atash semasiga teng, lekin qo'shimcha ma'nosi (ifoda semasi) leksemada ko'pincha bo'lmaydi yoki iboranikidan kuchsiz

bo'ladi. Masalan, xufiya leksemasi va yeng ichida iborasining atash semasi bir xil. Ammo iborada uslubiy va hissiy ma'no (ifoda semasi) bo'rtgan. Frazeologik ma'no obrazli va jozibali bo'ladi. Shu xususiyati bilan leksema sememasidan farqlanadi [1].

Frazeologiya va uni o'rganish tarixiga doir. Frazeologiya yunoncha so'z bo'lib, fraza – ibora, ifoda; logos – logiya – bilim, ilm, ya'ni iboralar haqidagi bilim demakdir. Frazeologiyani o'rganish tarixini o'rganar ekanmiz, bu sohaning dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo'lganligini ko'ramiz. Ma'lum badiiy asarni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilganda, barqaror so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolgan. Bunda o'sha tillarda mavjud bo'lgan frazeologik iboralar o'rganila boshlangan. Natijada, frazeologiya dastlab adabiyotshunoslik predmeti sifatida o'rganilgan. Keyinchalik, lug'atlarda frazeologik iboralar to'planib, ma'nolari izohlangan; frazeologik birliklar ma'nosi, grammatik qurilishi tilshunoslik fanida ham tekshirila boshlangan.

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning dastlabki tadqiqotchilaridan biri Y.Pinxasov frazeologik birliklarni quyidagicha tasniflagan (Qarang: 1.2.1.-chizma).



1.2.1.-chizma. Frazeologik birliklarning Y.Pinxasov tasnifi

O'zbek tilshunosligida frazeologiyaning nazariy masalalari dastlab 50-60 yillarda o'rganila boshlanib, Sh.Raxmatullayevning nomzodlik tadqiqotida frazeologizmlarning grammatik tabiati, doktorlik ishida [3] da esa lug'aviy jihatlari o'rganilgan. Qator nomzodlik dissertatsiyalari [5] da, frazeologizmlarning grammatik, semantik tabiatini tadqiq etuvchi ishlar sekinli k bilan o'rganilyapti. O'zbek yozuvchi va shoirlari asarlari frazeologizmlarining uslubiy qo'llanish xususiyatlari ko'pgina dissertatsiyalarida [6] o'z aksini topgan. Ammo bu tadqiqotlarda frazeologizmlarning uslubiy jihatlari, ijodkorlarning frazeologik uslubiyati, ularning frazeologizmlardan foydalanish mahorati batafsil yoritilmagan.

Y.Pinxasov frazeologik birliklarni semantik tasniflashda akademik V.V.Vinogradovning bu sohada mavjud tasnifini asos sifatida qabul qiladi, lekin o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Y.Pinxasov frazeologik birliklarni grammatik (morfoloqik, sintaktik) tomondan tekshirganda, ularning so'zga, so'z birikmasiga va gapga teng (ekivalent) bo'lib kelish xususiyatlarini ajratadi. Frazeologik iboralarni etimologik jihatdan qaysi til elementi ekanligini aniqlash va zamonlar o'tishi bilan u iboralarning deformatsiya va modernizatsiyaga uchraganligini ko'rsatadi. Iboralar mahalliy dialekt va shevalarga tegishli bo'lishi, diniy qarashlarni ifodalashi, turli kasb-hunarga va turmushning

xilma-xil sohalariga doir bo'lishi mumkin. Bular frazeologizmlarni stilistik nuqtai nazardan o'rganish loizmligini ko'rsatadi [7].

Tarkibidagi unsurlarning ma'nolariga bog'liq bo'lgan, shu asosda umumlashtiruvchi ko'chma ma'noni bildirgan barqaror so'zlar bog'lanmasi frazeologik birlashma deyiladi. «Bulturgi Eshmat» yerdan tishi bilan sug'urib olgan hosilning deyarli yarmini boy akasiga berar edi. Endi Sizning etagingizni ushlaganim-ushlagan, O'rmonjon aka. (A.Qahhor.) Har bir ta'limni puxta o'rganishga bel bog'laganmiz. (Oydin.) Bu misollardagi tishi bilan sug'urib olgan (qiyinchilik bilan topgan ma'nosida), etagini ushlagan (yordamiga tayangan ma'nosida), bel bog'lagan (biror ishni bajarishga kirishgan ma'nosida) barqaror so'zlar bog'lanmasi frazeologik birlashmalarga misol bo'ladi [7].

Frazeologik birliklarning yana bir turi frazeologik chatishma bo'lib, unda komponentlar o'zlarining dastlabki (leksik) ma'nolaridan uzoqlashib, ibora tarkibida butunligicha ko'chma ma'noni ifodalaydi. Iboradan kelib chiqadigan ko'chma ma'no bilan so'zlarning dastlabki (leksik) ma'nolari o'rtasida bog'lanish bo'lmaydi. Hali eshikdan kirishim bilan kelin qiyomat ko'taradi, yig'laydi. (Oydin.) qiyomat ko'taradi (janjal qiladi, ko'ngil qoralik qiladi ma'nosida) iborasi frazeologik chatishma sanaladi.

Frazeologik chatishma tarkibidagi so'zlar miqdori jihatdan va butun bog'lanma bir bo'lib ko'chma ma'no

anglatishi jihatdan frazeologik birlashmaga o'xshayli, lekin quyidagi xususiyatlari bilan ular bir-biridan farq qiladi:

Frazeologik chatishma tarkibidagi so'zlar o'zining leksik ma'nosidan tamoman uzoqlashgan bo'lsa, frazeologik birlashma tarkibidagi so'zlar o'zlarining leksik ma'nolaridan butunligicha uzoqlashmay, ularning o'z ma'nolari seziladi.

Frazeologik chatishmadan kelib chiqadigan ko'chma ma'no bilan bog'lanma tarkibidagi so'zlarning orasida bog'lanish bo'lmaydi, ammo frazeologik birlashmadan kelib chiqadigan ko'chma ma'no bilan bog'lanma sostavidagi so'zlarning ma'nosi o'rtasida bog'lanish mavjud.

Frazeologik chatishma butunligicha yolg'iz ko'chma ma'noda qo'llansa, frazeologik birlashmaning bir necha ko'rinishlari ham ko'chma ma'noda, ham o'z ma'nosida ishlatiladi. Bunday iboralar ko'chma ma'noda qo'llansa, u frazeologik birlashma sanaladi, o'z ma'nosida foydalanilsa, u erkin so'zlar bog'lanmasi hisoblanadi.

Frazeologik chatishmani bir tildan ikkinchi bir tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. Frazeologik chatishma ko'pincha idiomatik ifodalar yoki idiomalar deb yuritiladi.

Frazeologizmlarning uchinchi turi frazeologik qo'shilma. Frazeologik qo'shilma ko'pincha ikki so'zdan, ba'zan undan ortiq so'zdan ham tarkib topadi. Frazeologik qo'shilma tarkibidagi bir yoki ikki so'z ko'chma ma'noda qo'llanib, boshqasi o'z leksik ma'nosini saqlagan bo'ladi. Gapingning tuzi qursin, bolam, u nima deganing? (Oydin.) O'rmon polvon... bugun Buxorodan komissiya kelgannini eshitgan bo'lsa kerak, kechagi dami ham qolmagan. (S.Ayniy.) Bu gaplardagi gapning tuzi (gapning mazmuni, ma'nosi), kechagi dami (kechagi harakati, g'ayrati) iboralari frazeologik qo'shilma [7].

B.Yo'ldoshevning "Frazeologik uslubiyat asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida [8] frazeologik uslubiyat, uning mohiyati, asosiy tushunchalari, frazemalarning uslubiy tavsifi, ularning uzual va okkazonal uslubiy funksiyalari yoritilgan hamda frazeologik norma, frazema qo'llash va nutq madaniyati, ibora va imlo, ibora va punktuatsiya kabi masalalar haqida ma'lumot berilgan.

M.Y.Vafoyeva o'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahliliga bag'ishlangan tadqiqoti [9] ham diqqatga sazovor. Mazkur monografik tadqiqotda


o'zbek adabiy tilidagi frazeologik sinonimlar struktural-semantik jihatdan o'rganilgan; o'zbek tilidagi sinonimiya hodisasining keng tarqalish sabablari funksional-semantik va struktural jihatdan tadqiq etilgan; o'zbek tilining badiiy va publitsistik uslublariga oid matnlardan FSlarga doir misollar to'planib, tartibga keltirilgan; FSlarning so'z turkumlariga bo'lgan munosabatiga ko'ra fe'l FSlar, sifat FSlar va ravish FSlarga guruhlab o'rganildi; FSlarning badiiy va publitsistik matnlardagi individual – muallif ko'rinishlari, ularning konnotativ uslubiy vazifalari belgilangan.

A.E.Mamatovning o'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalariga bag'ishlangan monografik tadqiqoti [10] da o'zbek tilshunosligida frazeologizmlar shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari, sistemasi, qonuniyati va bosqichlari atroficha o'rganilgan; frazeologizmlar shakllanishining lisoniy va nolisoniy omillari, shakllanish jarayonlari, ularning derivatsiyasi, motivlovchi asoslari aniqlangan, frazeologizmlar shakllanishida so'zlarning qo'llanish doirasi va imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Frazeologizmlar tarkibida muayyan leksik-semantik va tematik guruhlariga tegishli leksemalarning ifoda etilishi aniqlangan; shakllanishda faol ishtirok etuvchi so'zlar tadqiq etilgan.


Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati, frazeologizmlar tarjimasi masalalari, matbuot tilida okkazonal frazeologizmlar, o'zbek tilining izohli lug'atida frazeologiya muammolari, shaxs tavsifli frazemalarning semantik tahlili, so'zlashuv nutqi frazemalarining mavzuiy guruhlari, frazeolekt va lug'atshunoslik munosabati, badiiy nutqda frazeologizmlar, o'zbek va afg'on tillarida o'xshash fe'l frazeologik birliklar, frazeologizmlarning adabiy til normasiga munosabatiga doir,

O'zbek tilida frazeologik birliklar tadqiqiga bag'ishlangan ishlarni bir necha parametr asosida umulashtirish mumkin. Quyida ularni diagramma shaklida keltiramiz.


1-parametr: yillar. O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklar borasida (bizga ma'lum) olib borilgan tadqiqotlar (dissertatsiya, maqola, darslik)ni yillar kesimida tahlil qilganimizda quyidagi natija kelib chiqdi:



2-parametr: darsliklar. Turli yillarda nashr etilgan darsliklarning tilshunoslikda boshqa masalalar tadqiqi bilan munosabati proporsiyasi quyidagicha bo'ldi:



3-parametr: maqolalar. O'zbek tilshunosligida turli davrlarda frazeologik birliklar tadqiqiga bag'ishlangan maqolalar miqdori quyidagi proporsiyada ekanligi ma'lum bo'ldi:



Xulosa. Mazkur tadqiqotlar o'zbek tili korpuslarida frazeologik birliklarning turli xususiyatlarini belgilash, teglash va ma'lumotlar bazasiga kiritishda muhim material bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Hozirgi o'zbek tili (kirish, fonetik sath, liksik-semantik sath) / darslik. Baxtiyor Mengliyev – Toshkent: «Tafakkur bo'stoni», 2018. – 200 b. – B. 193-194.
2. Пинхасов Я.Д. Хозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. Тошкент: Ўқитувчи, 1969
3. Бердиёров Х. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич. – Самарқанд, 1977.
4. Рахматуллаев Ш. Лексикология билан фразеология //Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992, 49-186 б.; Шу муаллиф. Ўзбек тилишг фразеологик лўгати. – Тошкент, 1992; Шу муаллиф. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент, 1992.
5. Рафиев А.Р. Структурно-фуикциональне свойства фразеологических единиц узбекского языка. автореф. дисс. канд. филол. наук. – Т.: 1982.; Ҳақимов Қ.М. Ўзбек тилида содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанликлари: филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т.,1994.;
6. Бушуй А.М. Библиографический указатель по вопросам фразеологии. Вып. IV-V, Самарқанд, 1976-1979.
7. Пинхасов Я.Д. Хозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. Тошкент: Ўқитувчи, 1969.
8. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1998. – 200 б.
9. Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: филолог. фан. номз. диссер. автореф. – Тошкент, 2009.
10. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: филол. фан. докт. диссер. автореф. – Тошкент, 2000. – 55 б.



UDK:801.8

Sevara JUMANOVA,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

O'zDJTU dotsenti, A.Qo'ldoshov taqrizi asosida

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA KIYIM-KECHAK LEKSIKASINING ETIMOLOGIK VA TAVSIFI LINGVOMADANIY TADQIQI

Annotatsiya

Tilshunoslikda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, diniy va boshqa turli sohalarining maxsus leksikasini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Jamiyat taraqqiyotida umumjahon bo'ylab kuzatilayotgan globalashuv jarayoni va zamonaviy ilmiy-texnikaviy yutuqlar ta'siri natijasida ishlab chiqarish, jumladan kiyim-kechakga oid texnologiyalarining rivojlanishi sohaning turli tizimli tillarda nominativ maydoni kengayishiga olib keldi.

Kalit so'zlar: Leksikasini qiyosiy-tipologik tahlili, kiyim-kechak leksikasi, etimologik tasnifi, milliy-madaniy bo'yoqdorlik, kognitiv, semantik, sintaktik, stilistik tadqiqi.

ETYMOLOGICAL AND DESCRIPTIVE LINGUISTIC STUDY OF CLOTHING VOCABULARY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation

In linguistics, the interest in comparative-typological study of the special lexicon of political, economic, social, religious and other fields is growing more and more. As a result of the global process of globalization observed in the development of society and the influence of modern scientific and technical achievements, the development of technologies related to production, including clothes, led to the expansion of the nominative space of the industry in different systematic languages.

Key words: Comparative-typological analysis of lexicon, clothing lexicon, etymological classification, national-cultural coloring, cognitive, semantic, syntactic, stylistic research.

ЭТИМОЛОГИЧЕСКОЕ И ОПИСАТЕЛЬНО-ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ОДЕЖДНОЙ ЛЕКСИКИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В языкознании все больше растет интерес к сравнительно-типологическому изучению специальной лексики политической, экономической, социальной, религиозной и других сфер. В результате глобального процесса глобализации, наблюдаемого в развитии общества, и влияния современных научно-технических достижений развитие технологий, связанных с производством, в том числе швейным, привело к расширению номинативного пространства отрасли в различных системных сферах. языки.

Ключевые слова: Сравнительно-типологический анализ лексики, лексика одежды, этимологическая классификация, национально-культурная окраска, когнитивное, семантическое, синтаксическое, стилистическое исследование.

Yuqoridagi omillar yengil sanoat leksikasini amaliy tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tadqiq etish, terminlarni tizimlashtirish va tartibga solish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda dunyo tilshunosligida kiyim-kechak leksikasining diskursi tabiatini har tomondama zamonaviy lingvistikaning yangi yutuqlari bilan bog'liq ravishda tadqiq etishning ahamiyati tobora oshib borib, ularning pragmatik, kognitiv, semantik, sintaktik, stilistik tadqiqi borasida bir qator ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga ko'ra, yengil sanoat sohasiga oid leksikani bir tomondan ilmiy terminologiya, ikkinchi tomondan umumxalq tili leksikasi bilan mutanosibli, struktur-semantik va grammatik belgilari, uslubiy qo'llanish qonuniyatlari, jamiyatning moddiy-ma'naviy qadriyatlar aks sifatida turli tizimli tillarda milliy-madaniy o'ziga xosligi masalalarini yechish an'anaviy lingvistik tahlil usullari bilan birgalikda zamonaviy yangi metod va yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda ham kiyim-kechak leksikasi sohasiga oid termin va leksemalarni har xil aspektlarda chuqur va atroflicha o'rganish milliy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Globalashuv davrida chet tillarni o'rganish tizimini, fan va ta'limni amaliyot bilan uzviy integratsiyasi jarayonlarini takomillashtirishning muhim omili sifatida qaralishi "nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz

a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak" ligi, yengil sanoat diskursi lisoniy xususiyatlarining tarixiy negizlarini ilg'or xorijiy tajribalarga tayangan holda ingliz tili bilan chog'ishtirma tadqiq qilish zaruratini belgilaydi. Zero, soha leksikasi doirasida kasbiy termin va atamalarini tizimlash, ularni unifikatsiyalash, yengil sanoat sohasiga oid leksik qatlamni konseptual va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish, soha termin va atamalarini qo'llanilishi va rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarni aniqlash zaruratga aylandi.

Conclusion. Number 9 holds linguistic and cultural significance in various ways. Across different languages, number 9 is represented and pronounced differently, providing insights into the phonological and morphological aspects of a language. Additionally, number 9 can have semantic associations, symbolizing completeness, perfection, luck, or longevity, depending on the cultural context. In linguistics, the study of number 9 involves analyzing its usage in idiomatic expressions, proverbs, and metaphors to understand the cultural and linguistic nuances within a community. These expressions and metaphors reflect cultural beliefs, traditions, and values associated with number 9. Furthermore, number 9 plays a role in numerical systems, contributing to the understanding of how numbers are formed, represented, and used in different languages. By examining the linguistic and cultural importance of number 9, linguists gain insights into the cognitive and communicative aspects of language, as well as the broader cultural significance attached to numbers. Overall, the study of number 9 in linguistics provides a deeper understanding of the relationship between language, culture, and numerical systems. It sheds light on how numbers shape linguistic structures, convey meaning, and reflect cultural values, ultimately enriching our understanding of human communication and cultural diversity.

REFERENCE

1. Abdullaeva, N. (2019). O'zbek tilida raqamli ifodalarning madaniy-ma'naviy ahamiyati. [The cultural and linguistic significance of numerical expressions in Uzbek language]. In Proceedings of the International Scientific and Practical Conference on Philology (Vol. 1, pp. 9-12).
2. Khakimova, M. (2017). O'zbek tilida raqamlarning madaniy-ma'naviy ahamiyati. [The cultural and linguistic significance of numbers in Uzbek language]. In Proceedings of the International Scientific and Practical Conference on Philology and Pedagogy (pp. 198-201).
3. Lee, P. S. N. (2012). The Number 9: Symbolism and Beliefs in Chinese Culture. *The Journal of Popular Culture*, 45(5), 1103-1123.
4. Martin, L. H. (1992). The Cultural Significance of Numbers. In *Signs of the Times: Deconstruction and the Fall of Paul de Man* (pp. 69-85). Columbia University Press.
5. Thompson, S. (2008). The Power of Nine: Numerology and the Cultural Significance of Numbers. *Journal of Popular Culture*, 41(3), 468-483.



UDK:811

Surayyo QURBONOVA,

Karshi State University teacher of the Department of Practical english Language

Karshi State University Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor Z.O. Amirova

LINGUISTIC ANALYSIS AND COMPARATIVE CLASSIFICATION OF TEMPORAL UNIT OF TIME IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

The development of branches of modern linguistics, such as psycholinguistics, pragmalinguistics, cognitive linguistics, ethnolinguistics, linguoculturalology, is paying great attention to the study of incon's participation in the development of events and the iconic aspects of the observation process in a way that is directly related to incon thinking. Also, in the education system, the aspects related to language and linguistics are important in determining the practical goals of diversifying the requirements of the modern and promising labor market, adapting teaching to new strategies, and developing the educational information infrastructure base within the framework of parameters related to professional activity. From this point of view, it is important to carry out scientific research on the conceptual, cognitive-metaphorical, linguistic and cultural analysis of linguistics, to improve the knowledge, skills and abilities of the modern directions of linguistics.

Key words: Temporal unit of time, linguistic reality, linguistic and cultural analysis of linguistics, cognitive-metaphorical.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И СРАВНИТЕЛЬНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ВРЕМЕННОЙ ЕДИНИЦЫ ВРЕМЕНИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Развитие таких разделов современной лингвистики, как психолингвистика, прагмалингвистика, когнитивная лингвистика, этнолингвистика, лингвокультурология, уделяет большое внимание изучению участия инкона в развитии событий и иконических сторон процесса наблюдения таким образом, чтобы напрямую связано с иконным мышлением. Также в системе образования аспекты, связанные с языком и лингвистикой, важны для определения практических целей диверсификации требований современного и перспективного рынка труда, адаптации преподавания к новым стратегиям, развития базы образовательной информационной инфраструктуры в рамках системы образования. параметры, связанные с профессиональной деятельностью. С этой точки зрения важно проводить научные исследования по концептуальному, когнитивно-метафорическому, лингвокультурологическому анализу языкознания, совершенствовать знания, умения и навыки по современным направлениям языкознания.

Ключевые слова: Временная единица времени, языковая реальность, лингвострановедческий анализ языкознания, когнитивно-метафорический.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA VAQT TEMPORAL BIRLIGINING LISONIY TAHLILI VA QIYOSIY TASNIFI

Annotatsiya

Hozirgi zamon tilshunosligining psixolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, lingvokulturalogiya kabi sohalarining rivojlanishida inkonning voqealar rivojidadagi ishtiroki va kuzatish jarayonining ikonik jihatlarini o‘rganishga katta e‘tibor qaratilmoqda. inkon fikrlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, ta‘lim tizimida zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori talablarini diversifikatsiya qilish, o‘qitishni yangi strategiyalarga moslashtirish, ta‘lim axborot infratuzilmasi bazasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy maqsadlarni belgilashda til va tilshunoslikka oid jihatlar muhim ahamiyatga ega. kasbiy faoliyat bilan bog‘liq parametrlar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tilshunoslikning konseptual, kognitiv-metafolik, lingvistik va madaniy tahliliga oid ilmiy izlanishlar olib borish, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Son sistemasi, sonli simvolizm, ramziy ma‘no, semantik nuanslar, madaniy konnotatsiya, tasavvuf va ma‘naviyat, ramziy element, madaniy kontekst.

Introduction. When the linguistic realization of a new temporal unit occurs in each language, the changes in that language take place in a way related to the perception and understanding of the world of this ethnos. In turn, changes in language give rise to new theoretical perspectives. In particular, Wheelwright introduces new terms such as epiphora and diaphora. (epiphora - unlike metaphors, where the expressive function takes precedence over the presented information, in diaphores, on the contrary, the presented information takes precedence over the presented function). McCormack disagrees with this approach. According to his definition, any metaphor has both epiphoric and diaphoric elements, as it is based on similarities and dissimilarities between the meaning and content of the metaphor (McCormack, 1990). Thus, metaphor is more related to the

similarity between the forces of its referents, epiphora, metaphor related to similarity can be called diaphora. Metaphor can appear as diaphora or epiphora. He can also change his status during verbal communication. Therefore, it is obvious that any metaphor is highly likely to be evaluated as a dynamic process that changes our spoken and written language. Earl McCormack argues that the metaphor is best explained when the mind is viewed as a computer mechanism. According to this theory, the effect of a certain cognitive process on the spatial semantic structures is considered as a result (McCormack, 1990). According to Black's interpretation, metaphors, based on their similarity, imply the following: 1) metaphors have a cognitive content and are expressed in the form of artistic paraphrase; 2) Analysis of

metaphors is based on similarity between two pre-existing objects.

Cognitive metaphor theorist J. Lakoff and Johnson, as well as a number of linguists, analyzed the metaphorical expression of "time". This metaphor analysis was carried out from the linguocognitive point of view of the English language. However, we can observe that in the languages of the world there are many compound metaphorical expressions that mean the coincidence of time with economic existence. In particular, Z. Kövecses, in the process of comparing cognitive metaphors in English and Hungarian, also pays a lot of attention to the comparative analysis of cognitive metaphors related to the domains of "time" and "wealth" (Z. Kövecses, 2005). C. Hamdi, in the comparative analysis of the metaphor "Time" in English and Arabic, clarifies the ethnospecific aspects, linguistic and cultural roots of this metaphor (Somdes Hamdi, 2008).

As a result of the discussion of the available possibilities in the language, he comes to the conclusion that the probability of finding an algorithmic description of the creative cognitive process that creates metaphors is relatively low. E. C. Kubryakova gives the following opinion to these comments: "The skepticism of equating Incon's mind with a machine of slander is quite controversial and cannot withstand criticism in many ways; (Kubryakova, 1982). Based on this, it can be concluded that if any scientific direction accepts this assessment uncritically, it may itself be subjected to serious criticism.

In general, approaches to time have attracted the attention of representatives of various fields. Time-constraint has been one of the problematic aspects of lifestyle. Scientists have been studying nature and the structure of Time since the pre-Church period. P. Frazee observed that the people' body undergoes several changes over time, from birth to death. It sheds light on the importance of time in contemporary life. The author states that the living conditions of the people are constantly changing, because the existence of the people is strongly structured and shaped by the rhythms of day and night.

Time is a well-known but difficult to define concept. Keshavmurti said, "Time is a paradox (that is, an idea contrary to common sense) that we think that we know it, but in our minds we have almost no concept; The time is very simple and warm, but at the same time it is cold and restrained (Keshavmurti, 1991). Also, the difficulty of defining "time" is clearly shown in C. Auguti's answer to Time: What is time? No one knows what it is, and if they ask me to explain it, I answer that I don't know. Nevertheless, I can say with confidence; if no past is past and no future is; now is not the present at all.

This study is another attempt to shed light on the linguistic realization of the temporal unit of time in the works of Uzbek and English writers. Time is related to specific sources in each language. That is why it is important to clarify the ways of representing time in English and Uzbek languages, the representation of time in the minds of these ethnic groups, and the ethnospecific, linguistic, cultural, semantic, and syntactic aspects of verbal units representing the passage of time. The importance of the concept of time has been recognized in various fields, including psychology, sociology, biology, and linguistics. For example; The British sociologist Barbara Adams in her work "Time and Social Theory" discusses the need to turn the complex aspects of Time into the core of social theory and the fact that a clear and adequate understanding of Time creates a framework for social theory (B. Adams, 1990).

On the other hand, a linguistic approach to the linguistic realization of the temporal unit of time is proposed in relation to "Time". Because it is believed that people

understand Time as an abstract concept through metaphors embedded in the mind and thinking of people.

J. As Lakoff said: "We only live for today. We conceptualize the past and the future. That is why we have memories and representations of what we expect" (Lakoff, 1987; Johnson). In addition to having a unique object in all aspects of the study of time, there is a growing demand for its study. M. As Flangertu points out, while the study of "Time" is being carried out in many disciplines, it is still a topic that needs to be researched (Flangertu, 2005).

This involves doing one thing at a time, sticking rigidly to schedules, and making thorough plans. People who favour this approach are task-oriented – that is, focused on the task in hand, and reluctant to let obstacles get in their way. Monochrons typically belong to Western cultures, as well as some Asian countries such as Japan, South Korea, and Taiwan (although these latter countries typically combine elements of both monochronic and polychronic approaches).

Within monochronic cultures, people tend to: 1. Make detailed plans for the future. 2. Approach tasks individually where possible, rather than multitasking. 3. Frown upon being late; 4. Stay at work until everything is finished. Meet deadlines. Minimise small talk at work or business meetings; 5. Believe that each activity should have a precise beginning and end;

Polychronic approach. In polychronic cultures, there is less emphasis on sticking to schedules. At work, people do several things at once without paying too much attention to time. There is greater emphasis on people, so family and social life is often valued ahead of work. Polychrons are prevalent in Latin American, African, and Middle Eastern countries. Polychronic approaches also involve: Not viewing lateness with disapproval; Frequently changing or deleting items on to-do lists; Investing time in building strong relationships with others; Re-prioritising tasks and adjusting them based on people's evolving needs; Within businesses, being externally focused on customer satisfaction as opposed to internally focused on processes; Believing that each activity or event should have an organic rather than prescribed beginning and end;

Within a monochronic culture – such as the US – a business meeting would typically start on time, get to the point quickly, and achieve goals within a defined time frame. In a polychronic culture – such as Turkey – a business meeting might not have a pre-defined time frame. People might start the meeting by getting to know each other, with more time for introductions. The meeting might last as long as it takes to reach a satisfactory conclusion. The key difference between the two cultures is that monochrons tend to be by-the-clock whereas polychrons are more event or personality-oriented.

J. Lakoff and M. Johnson say that linguists are also responsible for researching "time", such as physicists, acronists, philosophers. He emphasizes "the need to study time in detail". From this point of view, the authors conceptualize "time" in different linguistic cultures, determining the content and essence of metaphors related to "time" is of great importance in determining the attitude of the people to time, their knowledge about time and its expression in language.

However, the study of Time is complicated by two important factors. First, it includes not only the concept of Time, but also concepts that we use in our daily lives, such as motion, space, and time. Because Time is metaphorically conceptualized through the use of other experience, knowledge concepts in person activity. The concept of "time" can be respected only if there is "problem in understanding concepts such as motion, space, and event that are close to the concept of time. Second, analyzing the concept of Time is a complex task because it involves studying the cognitive

mechanisms that insons use to discuss and talk about Time without realizing it. Comparative studies allow to compare the similar and different aspects of lexical units, development of language units, lexical grammatical, semantic differences and similarities from the interaction of languages and cultures. They show where the differences between languages are.

We're still trying to grind out the solution to this equation.

My mind just isn't operating today.

Boy, the wheels are turning now!

I'm a little rusty today.

We've been working on this problem all day and now we're running out of steam, etc. (G. Lakoff, M. Johnson. 1980).

Here Uzbek cognitologist Sh. To what extent Cafarov's thinking is a phenomenon related to language, about its realization only in the context of language, or in other words, thinking without language

It suggests that the summary is not very realistic. The scientist says that language and thinking are exactly the same thing. Thought is a generalized perception of reality that provides information about the subject, the relationship and relationships of objects (Sh. Safarov, 2006).

If we look at the Uzbek language, we can witness the linguistic realization of the temporal unit of time in different ways, Time is booty, Time is luck, Time is gone — happiness is gone.

Vaqt aqchadur,

G'ofil bo'lma, qochadur.

Vaqt ketdi — baxt ketdi,

Toji sari taxt ketdi.

3. Vaqt — omad.

4. Vaqt tog'ni yemirar,

Suv toshni kemirar.

5. Vaqt o'tgandan keyin

Qilichingni toshga chop.

6. Vaqt — g'animat,

O'tsa — nadomat.

7. Vaqt — qozi.

Conclusion. In fact, the only objective proof of the existence of time is that it exists as an independent object and has the ability to change. Undoubtedly, that is why the mechanism of conceptual metaphor is used as an effective means of understanding "time" in language. It is explained by the existence of specific "terminologies" capable of accurate and linguistic analysis of a phenomenon within the framework of conceptuality. It was analyzed that the views on the concept of time in English national cultures, ethnoses, and linguistic culture are different from those of other nations. The analysis shows that in English culture, time finds its expression as a unique synchronic event. The above-mentioned conceptual metaphors and phraseological combinations reflect values specific to that culture. Phraseological units and conceptual metaphors in the English language have been found to be distinguished by the presence of aspects of Western culture.

REFERENCE

1. Аверинцев С С [и др.]. Философский энциклопедический словарь. - М.: Советская энциклопедия, 1989. - 816 с.
2. Болотов В.И. А.А.Потебня и Когнитивная лингвистика. // Вопросы языкознания. Из истории науки. РИНЦ: 50, 2008. № 2. -С.92.
3. Богуславский 1985 – Богуславский И. М. Исследования по синтаксической семантике. М.: Наука, 1985.
4. Богуславский 1998 – Богуславский И. М. Сфера действия начинательности и актуальное членение: втягивание ремы // Семиотика и информатика. Вып. 36. М.: Языки рус. культуры: Рус. словари, 1998.



UDK:811.1

Sarvinoz RASULOVA,
ToshDO'TAU o'qituvchisi
E-mail:sarvina_ok@mail.ru

Filol.f.d., prof. B.Karimov taqrizi asosida

TOHIR MALIKNING ILK FANTASTIK HIKOYALARI TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada tanikliq adib Tohir Malikning ilk fantastik hikoyalari tahlilga tortilgan. Fantastik hikoyalarning yozilishi, mavzu ko'lamini, tili batafsil yoritilgan. Yozuvchining hikoya yozish mahorati, mustaqillikdan oldingi davrlarda yaratilgan hikoyalari mazkur maqolada tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: fantastik hikoya, yozuvchining mahorati, mavzu, nazariy tahlil, tiriklik suvi, tabobat, davo, tabiatni asrab-avaylash, epir tur tabiati, qahramonlar hayoti, janr, shakl va mazmun.

АНАЛИЗ ПЕРВЫХ ФАНТАСТИЧЕСКИХ РАССКАЗОВ ТАХИРА МАЛИКА

Аннотация

В данной статье анализируются первые фантастические рассказы известного писателя Тахира Малика. Подробно раскрыты написание фантастических рассказов, объем темы, язык. В статье изучаются навыки написания рассказов писателя, рассказы, созданные в период до обретения независимости.

Ключевые слова: фантастический рассказ, писательское мастерство, тема, теоретический анализ, живая вода, медицина, лечение, охрана природы, эпический характер, жизнь героев, жанр, форма и содержание.

ANALYSIS OF TAHIR MALIK'S FIRST FANTASTIC STORIES

Annotation

This article analyzes the first fantastic stories of the famous writer Tahir Malik. The writing of fantastic stories, the scope of the subject, the language are covered in detail. The story writing skills of the writer, the stories created in the pre-independence period are studied in this article.

Key words: fantastic story, writer's skill, theme, theoretical analysis, water of life, medicine, treatment, conservation of nature, epic nature, life of heroes, genre, form and content.

Kirish. Zamonaviy o'zbek adabiyotining yetakchi vakillarining ijodini muayyan ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Bugungi adabiyotning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shayotgan iste'dodli yozuvchilarning epik ijodi mohiyatini, ular yaratgan yetuk asarlarning tarixiy-genetik asoslarini aniqlash, badiiyatini ta'minlagan omillar va sabablarni o'rganish adabiyotshunosligimizda hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalardan hisoblanadi.

O'zbek adabiyoti o'z rivojlanishining yangi yo'liga kirgan, jahon adabiyotidagi ilg'or an'analarni chanqoqlik bilan o'zlashtirayotgan, ilgari ta'qiqlangan mavzu va janrlarda yangidan yangi asarlar yaratayotgan, shakl va mazmunga oid rang-barang tajribalar amalga oshirilayotgan, muxtasar qilib aytganda, milliy so'z san'atimiz taraqqiy etib, yuksalayotgan hozirgi davrda yozuvchi Tohir Malik ijodini tadqiq etish, qissalarini badiiyat nuqtai nazaridan o'rganish, ularning yutuq va nuqsonlarini ko'rsatib berish adabiyotshunosligimizning kun tartibida turgan muhim masalalar sirasiga kiradi. Tadqiqot mavzuining dolzarbligi xuddi shu bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Obyekt sifatida tanlangan adibning ijodi yuzasidan A.Ulug'ov, U.Normatov, A.Rasulov, X.To'xtaboyev, F.Rajabova, H.Karimov, T.Shermurodov, R.Ibrohimova, R.Sharipova, I.Mirzayev, K.Turdiyeva kabi katta avlodga mansub o'zbek adabiyotshunoslari maqolalar yozganlar. Shuningdek, Tohir Malikning "Shaytanat" asari bo'yicha T.Irisboev [1], Sh.Sulaymonov [3], D.Quvvatova [5], R.Ibrohimova, B.Xoliqov [4], R.Umurzoqovlar maxsus nomzodlik va RhD dissertatsiyalarini ham himoya qilganlar. Mazkur tadqiqotlarda "Shaytanat" va "Alvido, bolalik" asarlari turli jihatlardan tahlilga tortilgan xolos. A.Nomozovning "Tohir

Malik gurunglari" [2] kitobida yozuvchi bilan bo'lgan suhbatlar, savol-javoblar aks etgan. Tohir Malik vafotidan so'ng xotira kitoblari nashr qilingan. Xususan, E.Malik "Baxtsizlikdan baxtini topgan Tohir Malik", Sh.Qodiriy "Kunlarning birida Tohir Malik", "Tohir Malik zamondoshlari xotirasida" kitoblari shular jumlasidandir. Yuqorida nomi keltirilgan asarlarda ham yozuvchining hayoti va ijodi bilan bog'liq qiziqarli voqealar, adib bilan suhbatlar aks etgan. Tadqiqotchi M.Norboboyevning ayrim maqolalarida Tohir Malikning "Alvido, bolalik", "Falak", "Charxpalak" qissalaridagi yetim bola obrazlari tahlilga tortilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Adib bolalarga atab "Oyga safar", "Yulduzga aylangan qizaloq", "Qarg'ish", "Ajab dunyo" (bolalar yozuvchisi Tursunboy Adashboyevning bolalikdagi og'ir kunlari haqidagi hikoyalari asosida yozilgan), "Xudo sabr bersin", "Voy oyijonim", "Nomus", "Xotira", "Padarkush" nomli ko'plab hikoyalar yozgan. Adibning hikoyalari o'quvchilar davrasida iliq kutib olingan.

Xizriob – tiriklik suvi haqida xalqimizda afsona va hikoyatlar mavjud. Adib tabobat ilmining bilimdoni Ibn Sino haqida bir asar yozishni ko'ngliga tugib qo'yadi va "Tiriklik suvi" hikoyasini yozadi. Hikoyada mo'jiza "fantastik tavsillarsiz" [5] yaratiladi. Ushbu fantastik hikoyada Xizr tushida ayon bo'lgan voqea-hodisa orqali qahramon taqdirining o'tmishi va kelajagi oydinlashadi. Ibn Sinoning hayotidan olingan shu bir lavha asarning ta'sirchanligini oshirgan. Bu Abu Saxl va Ibn Sinoning sahroda ikki ayolni uchratishi bilan bog'liq epizoddir. Eyllarning taqdiri ikki olam uchun ham jumboq bo'lgan. Bemor kampirni Xizriob bilan davolagan tabib – Ibn Sino kechqurun uyqusida tush ko'radi. Ana shu tush dono tabibga cho'rilarning qismatini

oydinlashtiradi. Adib ana shu tush tasviri orqali o'tmishdagi ayollarning taqdiri, cho'rilar fojiasining ildizlarini ochib bermoqchi bo'ladi. Nochorlik, cho'rilardan zurriyod qolmasligi (Ibn Sino tushida tasvirlangan endigina tug'ilgan cho'ri bolasining ustiga tuproq sochilishi), cho'rilik o'tmishdagi ko'pchilik past tabaqadagi ayollar uchun achchiq qismat ekanligini asar zamiriga singdirgan.

Moziyga qaytib ish ko'rish xayrli deyildilar... degan edi A.Qodiriy. Aynan moziy haqida fantastik asar yozgan T.Malik "Tiriklik suvi" hikoyasida Ibn Sino obrazini yaratish bilan birga bevosita o'sha davr tarixiga nazar tashlaydi. Hikoyada Xorazmshoh davri, qadimgi Gurganj qiyofasi kitobxon ko'z o'ngida gavdalanadi. Uzoq o'tmishga muhabbat, qiziqish, eng asosiysi, tarixni yurakdan his etish adibga ulkan muvaffaqiyatlar olib kelgan.

Tabiatni asrab-avaylash dunyoning ertangi taqdiriga befarq qaramaydigan har bir insonning tashvishidir. 80-yillarda T.Malik "Mataassib" hikoyasini yozadi. Bu del'finlar fojiasi haqidagi fantastik hikoya bo'lib, ummon va dengizlarning zaharlanishi oqibatida delfinlarning o'zlarini qirg'oqqa otib o'lishlari tasvirlangan. Bu mavzu bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki radio, televizor, gazeta va jurnallarda falon ummonning qirg'og'ida o'nlab kitlar, baliqlar, delfinlar halok bo'ldi, degan yangiliklarni kunda-kunora eshitib, ko'rib turibmiz. Yozuvchini ana shunday muammolar 80-yillardayoq o'ylantirgan, tashvishga solgan. "Saodat" nomli hikoyasida esa dunyoni asrab qolish uchun o'z jonini qurbon qilgan o'zbek ayoli tasvirlanadi.

Yozuvchining ko'p hikoyalari "buyurtma" asosida yozilgan. Uning yaqin do'stlari, hamkasblari bir mavzuni aytib shu mavzu doirasida hikoya yozishni taklif qilgan va shu takliflar ortidan bir nechta hikoyalar dunyo yuzini ko'rgan. "Radio uchun hajmi kichik asar kerak. Bolaligimizda dadam "qovun yemanglar, tarvuz yemanglar, zaharlanasizlar", deb ko'p tanbeh berardilar. O'zlari uyga bitta ham qovun ko'tarib kelmasdilar, boridan yemasdilar ham. Bolalarning zaharlanayotgani haqida ko'p gaplar eshitib turardik. O'ylay-o'ylay qovun tarkibidagi selitranning foyda-zarari haqida yozishga qaror qildim. Faqat bizni emas, o'zga sayyoraliklarni ham zaharlayotgan, selitraga to'yintirilgan qovun haqida hajviy-fantastik hikoya yozdim" [2]. Ana shu hikoya, ya'ni "Prestupniy Mutallib" rus tiliga tarjima qilinib, Moskvada yillik to'plamda nashr etilgan. So'ng Ibn Sinoning ming yilliklariga tayyorgarlik ketayotgan paytda "Tiriklik suvi" degan fantastik hikoyasini yozgan. Bu haqda adib shunday deydi: "Guliston" jurnalida teatr san'atiga bag'ishlangan maxsus son tayyorlanayotgan ekan. Do'stimiz Sa'dulla Ahmad "Teatrning kelajagi qanday bo'ladi? O'ylab ko'rsangiz-chi?" – deb qoldi. Bu taklif ham menga ilhom berdi. Kelajakda aktyorlar o'miga biorobotlar ishtirokida "Otello" qo'yilsa qanday bo'lishini "Alvido, Otello" fantastik hikoyasida bayon qildim. Bahonada Abror Hidoyatovning sahnadagi dahosini dunyo tan olajak, degan g'oyani ham ilgari surdim" [2].

Ketma-ket hikoyalari chop etilgach, adib qissa yozishni diliga tugib qo'yadi. Hikoya kichik epik janr bo'lib, unda qahramonning bir kunlik hayoti qalamga olinadi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillikdan oldingi yillarda fantastikaga juda kam murojaat qilingan. Tohir Malik aynan mana shu yo'nalishda qissa yozishni niyat qilgan. Bu haqda yozuvchining o'zi shunday deydi: "Bir yili radioda ishlaydigan do'stim Sabridin "Ekinlarga sepilayotgan kimyoviy moddalarning zarari haqida eshittirish tayyorlayapman. Shu mavzuda fantastik qissa yozsangiz zo'r bo'lardida", dedi. Shu gap menga ilhom berdi. Chunki yerimiz,

qishloq odamlarining zaharlanayotgani haqida ko'p narsa bilardim" [2]. Darhaqiqat, adib o'ta sinchkov inson bo'lgan. Yo'l-yo'lakay bo'lajak asarlari uchun syujet, mavzu, qahramonlarni topib yurgan. Qishloq odamlarining ekinlarga sepilayotgan kimyoviy moddalardan zaharlanayotganini "Somon yo'li elchilari", "Charxpalak", "Devona" kabi asarlarida atroflicha yoritib berishga harakat qilgan. Shu yo'sinda yozuvchi fantastik asarlar yoza boshlagan.

Fantastikada, asosan, ikki yo'nalish bor: biri fantastika – ilmiylikka katta ahamiyat berilmaydi. Bir ilmiy g'oya asosida badiiy asar yaratiladi. Rey Bredberi shu toifadan. Ikkinchi yo'nalish – "ilmiy-fantastika", deyiladi, undan ilmiy g'oyani isbotlashga ko'proq ahamiyat beriladi. Aytek Azimov shu toifadan. Do'stimiz Hojiakbar ham shu yo'nalishda ijod qilgan. Tohir Malik ilmiy fantastik asarlar yozgan.

"Milliy zaminga tayanib turib ilmiy-fantastik asarlar yozish Hojiakbar Shayxovning tengdoshlari Tohir Malik, Mahkam Mahmudov, Asqar Qasimovlar ijodiga chuqur tomir yوغان, – deb yozadi adabiyotshunos P.Shermuhamedov. – Bular ijodidagi ana shu goho ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan "qon tomirlari"da jamiyatning o'tkir muammolari qalamga olingan". Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, fantastika, ba'zilar o'ylagandek, oldi-qochdi gaplar yig'indisi emas, fantastik yozuvchi "ko'knorxayol" ham emas. Fantastik yozuvchi jiddiy ilmiy faraz, g'oyani xuddi amalga oshganday tarzda ishonarli bayon qilishi lozim. Misol uchun, Marsda hayot yo'qligi hozirgi kunda hamma ayon. Biroq Mars hayoti haqida asar yozgan polshalik adib Stanislav Lemning kitoblarini hamma qiziqib mutolaa qiladi. Bundan tashqari "Robot" atamasini kashf etgan Chex yozuvchisi Karel Chapekning o'z asarida yaratilgan robot hozirgi kunda haqiqatga aylangani barchaga ma'lum. Fantastik yozuvchi bayon etgan ilmiy g'oyalar isbot etilmasa-da, lekin asarning ko'p yillardan beri o'qilishiga sabab, ikkinchi muammoning hal qilinishi, ya'ni asarning yuksak badiiy mahorat bilan yozilgani, xayoliy qahramonlarni hayotiy ko'rinishda chizib bera olganidadir. Hozirgi kunda lazer nuri xayolot mahsuli emas haqiqatga aylandi. Biroq "Injener Garinning mo'jizasi" kitobi hozirgacha qiziqib o'qiladi. Asarda keltirilgan ilmiy formulalarning xato ekanligi hech kimni qoniqtirmaydi. Bunga sabab yozuvchining mahorati, asarning yuksak badiiy saviyada ekanligidir. Ana shu jihatlari asarga uzoq umr bergan.

Tohir Malikning asarlari ham hozirgi kunda sevib o'qiladi. Chunki adib mustaqillikdan oldingi yillardagi dolzarb mavzularda asarlar yozgan. Fantastik adabiyot haqida gapirganda H.Shayxov, M.Mahmudov, Rustam Obid, Hasan-Husan Tursunovlar, Qudrat Do'stmuhamedov, Tursunboy Samatovlar birga Tohir Malik nomini ham e'tirof etishimiz lozim. Chunki adibni XX asrning 70-80-yillarida biz uchun muhim bo'lgan muammolar, xususan, Orol fojiasi va paxtazorlarga zahar sepilishi natijasida odam irsiyati o'zgarishi mumkin, degan muammolar qattiq o'ylantirgan. Ana shu muammolarni o'z hikoya va qissalarida yoritishga kirishgan.

Xulosa va takliflar. Tohir Malik tarixni bugunga bog'lash uchun tarixga murojaat qiladi. Bizga ma'lumki, hayot ziddiyatlardan iborat. Adib ilm ahlining hayotidagi ziddiyatlar juda kuchli ekanini, ayrim hollarda ayancli oqibat bilan tugashini yaxshi anglaydi. Olimlar gulshanida yashnayotgan hasad, ig'vo tikanaklari bugungi kunda yo'q bo'lib ketgan deb bo'lmaydi. Ilm ravnaqiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illatlar haqida "Falak", "Zaharli g'ubor", "Somon yo'li elchilari" ("Davron"), "Devona"da turli usullarda fikr yuritiladi. Yozuvchining niyati "Olimlar orasida hasad, ig'vo, g'iybat zinhor-zinhor bo'lmasin". Bu fikrni adib asarlarida takror-takror eslatib turadi.

ADABIYOTLAR

1. Ирисбоев Т. Ҳозирги ўзбек детектив адабиётининг тараққиёт хусусиятлари (Тоҳир Маликнинг “Шайтанат” асари асосида). Фил. ф. н. ... диссертацияси. – Тошкент, 2001.
2. Номозов А. Тоҳир Малик гурунглари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 48.
3. Сулаймонов Ш. Ўзбек детектив насри: генезиси ва табиати. Фил. ф. н. ... диссертацияси. – Тошкент, 2002.
4. Холиқов Б. Детектив романларда воқеликнинг бадиий талқинини тизимли моделлаштириш (Марио Пьюзонинг “Чўқинтирган ота” ва Тоҳир Маликнинг “Шайтанат” асарлари) мисолида. Фил. фанл. бўй. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2018. – 170 б.
5. Кувватова Д. Ўзбек илмий-бадиий фантастикасида фольклор мотивлари. Фил. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 119 б.



UDK:811.1

Dilrabohon RUSTAMOVA,
Andijon davlat universiteti, f.f.d. (PhD), dotsent
E-mail: dilrabo@list.ru

Andijon davlat universiteti professori, f.f.d. Sh.Shahobiddinova taqrizi asosida

THE PROBLEM OF DESCRIPTION OF MULTIPLE MEANING LINGUISTIC TERMS

Annotation

This article reflects on the role of polysemous terms in today's science, the introduction of new terms, the adaptation of their universal meaning, their entering into the terminological system and having two or more meanings, their differences depending on the field to which their groups belong, the process and development of transterminologization.

Key words: Polysemy, conceptual polysemy, transterminologization, asymmetric dualism, unique terms, universal terms, operation, assimilation, progressive prosthesis, regressive prosthesis.

ПРОБЛЕМА ОПИСАНИЯ МНОГОЗНАЧНЫХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация

В данной статье размышляется о роли многозначных терминов в современной науке, введении новых терминов, адаптации их универсального значения, их вхождении в терминологическую систему и наличии двух и более значений, их различиях в зависимости от области, к которой принадлежат их группы, процесс и развитие транстерминологии.

Ключевые слова: Полисемия, понятийная полисемия, транстерминологизация, асимметричный дуализм, уникальные термины, универсальные термины, операция, ассимиляция, прогрессивная протеза, регрессивная протеза.

KO'P MA'NOLI LINGVISTIK ATAMALARNI TAVSIFLASH MASALASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko'p manoli terminlarning bugungi fanidagi roli, yangi terminlarning kirib kelishi, ularda umumistemol so'z manosining moslashuvi, terminologik tizimga kirib ikki va undan ortiq manoga ega bo'lishi, ularning guruxlari mansub bo'lgan sohalariga qarab farqlanishi, transterminologizatsiya jarayoniva rivojlanishi borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Polisemiya, konseptual polisemiya, transterminologizatsiya, assimetrik dualizm, unikal terminlar, universal terminlar, operatsiya, assimilyatsiya, progressiv proteza, regressiv proteza.

Kirish. Terminlar – til lug'at boyligining maxsus qatlami bo'lib, ular qo'llanish doirasi va maqsadiga ko'ra chegaralangan. Termin – tushuncha/narsani nomlashda aniq ifoda usuli ustunlik qiluvchi, bir ma'noli bo'lishga moyil so'zlar, ular fan, texnologiya, siyosat va diplomatiya kabi sohalarda qo'llanadi[1].

Bugun hayotda terminologiyaning katta sur'atlarda roli oshib bormoqda. Bu jamiyatdagi turli va yangi terminlarning kirib kelishini taqozo qilayotgan ilmiy-texnik o'sish (rivojlanish) bilan bog'liq, albatta. Hatto ayrim mutaxassislar tildagi yangi so'zlar (neologizm)ning 90 foizi terminlardan iborat ekanligini aytishadi. Bu faqat tildagi so'zlar soni emas, balki insonlar, turli ijtimoiy tabaqa vakillari, turli yoshdagi va har xil kasb egalarining kundalik hayotida terminologiyaning o'rni oshib bormoqda. Chunki fan-texnikaning rivojlanib borishi tufayli insonlar kundalik hayotida har kuni yangi-yangi terminlarga duch keladi, ularni o'rganishga ehtiyoj tug'iladi. Tabiiy ularni tizimli o'rganish uchun turli terminologik lug'atlarga tayanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A.A.Reformatskiyning fikricha, terminlar faqat tilda mavjud bo'lib qolmaydi, balki ular ma'lum bir terminologiya sistemasida yashaydi. Agar umumleksikada biror bir so'z polisemantik bo'lsa, ma'lum bir terminologiyaga mansub bo'lganda u monosemantik xususiyat kasb etadi. Umumistemol so'zdan farqli ravishda termin kontekstga ehtiyoj sezmaydi: chunki u 1) ma'lum bir terminologiya a'zosi bo'lib, mazkur terminologiya u termin uchun kontekst vazifasini o'taydi; 2) termin izolyatsiya holatida ham ayni ma'nosini ifoda etaveradi; 3) termin butun boshli til leksikasi uchun bir

ma'noli bo'lishi shartmas, balki bir terminologiya doirasida monosemantik bo'lishi yetarli[2].

A.Reformatskiy bir terminning ma'lum bir tilning turli terminologik tizimga mansublik holatining ko'p kuzatilishi, bunday hodisa terminologik sohalararo omonimiyani hosil qilishini ta'kidlaydi. Masalan: reaksiya termini 1) kimyo; 2) fiziologiya; 3) siyosat terminologik tizimiga; reduksiya termini 1) falsafa; 2) yurisprudensiya, 3) fonetika; assimilyatsiya termini 1) etnografiya, 2) fonetika terminologik tizimlariga mansub bo'ladi. A.Reformatskiy bunday holatni terminologik tizimlararo omonimiyaga deb ataydi[3]. Olim o'z fikrini aniqroq ifodalash uchun lingvistik atamaning boshqa terminologik tizimga kirishi (tipik sohalararo omonim termin)ga namuna keltiradi: masalan, nutq – tilshunoslik, psixologiya, fiziologiya va tibbiyotda ma'nosi ixtisoslashlashgan termin. Bu terminning turli ma'nosi reallashishi quyidagi misollarda kuzatiladi: “prokuror nutqi”, “rektorning tantali, ko'tarinki nutqi”, “jinoyatchining aloqador bo'lmagan nutqi”, “Men bola nutqini emas, erimning nutqini eshityapman” va h.

Ayrim manbalarda ko'p ma'noli terminlar sifatida faqat bir terminologik tizimga kirib, ikki va undan ortiq ma'noga ega bo'lgan terminlar qaraladi. Bizningcha, mazkur yondashuv to'g'ri. Amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir professional soha terminologik tizimi doirasida polisemiya ko'p kuzatiladi. Xuddi so'zlarda bo'lgani kabi terminlarning semantik strukturasi ham rivojlanadi, hodisa yoki predmetning xususiyatini ifodalovchi yangi ma'nolar kasb etadi[4].

Mutaxassislar terminlar ko'p ma'noliligini quyidagi misollar bilan asoslashadi:

Ratable – (1) soliqqa tortiladigan, (2) baholangan, (3) mutanosib, nisbiy;

equity – (1) kompaniyaning ustav fondi, kapitali, ustav kapitali, (2) aktivlarga bo'lgan huquq, mulk huquqi, (3) oddiy aksiya, (4) pippassivlari;

stock – (1) ustav kapitali, (2) fondlar, (3) aylanma mablag'lar fondlari, (4) pul fondi, (5) aktivlar.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir ma'noli terminlar ko'pincha unikal terminlar, ko'p ma'nolilari universal terminlardir. Ba'zan unikal terminlar orasida ham polisemiya uchraydi: xolding – (1) ijaraga olingan mulk, (2) depozitlar, xoldinglar, (3) aksiyalar paketi, (4) xolding kompaniyasi nazoratidagi korxonalar, (5) egalik[5].

A.Reformatskiy “yaxshi terminlar” polisemiya, ekspressivlikdan chegaralangan bo'lishi, polisemantiklik xususiyati tabiiy bo'lgan umumist'emoldagi, noterminologik qatlam so'zidan farq qilish kerakligini uqtiradi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, polisemantik terminlar ko'pincha, umumist'emoldagi so'z ma'nosining maxsuslashuvchidan hosil bo'lgan so'z va termin orasida sodir bo'ladi. Shuningdek, terminlar orasida shunday turlari ham borki, ular faqat bitta terminologik tizimga mavjud bo'ladi (umumist'emoldagi leksema sifatida mavjud emas), ayrim so'zlar borki, ular faqat termin sifatida mavjud bo'lib, bir necha terminologik tizimga (operatsiya, assimilyatsiya, progressiv, regressiv, proteza) mansub bo'ladi.

Ammo tilda ham umumist'emol so'zi, ham termin sifatida qo'llanadigan so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bunday birliklar odatda bir so'zning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanishi, ko'p ma'noli so'zdan bitta semaning terminologik ma'no kasb etishidan kelib chiqadi. So'z termin sifatida qo'llanganda uning ma'nosi ixtisoslashadi va reallashadi. Qaysi terminologik tizimga tushishiga ko'ra, yangi ma'no hosil bo'ladi hamda shu yerdan turli so'zlar bilan valentlik hosil qilish imkoniyati kengayadi. Masalan, siyosatda assimilyatsiya termini majburiy va tabiiy so'zlari bilan valentlik hosil qilsa, fonetikada assimilyatsiya regressiv va progressiv bo'ladi[6].

Ko'p ma'noli termin – bir necha ma'nosi bo'lgan so'z, so'z birikmasi yoki ifoda bo'lib, ayrim tilshunoslar bunday hodisani omonim-terminlar deb atashadi. Hatto bunday terminlarni absolyut omonim va qisman omonim deb farqlashadi. Abbreviaturalar ham ko'p ma'noli termin bo'lishi haqida qaydlar uchraydi[7].

Yuqorida terminlarning mavjud bo'lish o'rni va sabablariga qisqacha to'xtaldik. Shunga ko'ra, ma'lum bo'ladiki, har bir tilda ko'p ma'noli terminlar yoki terminologik tizimlararo omonimik termin kuzatiladi.

Shunday terminlarni lingvistik ensiklopediyalarda ifodalash mumammosi mazmur bo'limimiz ob'ekti bo'ladi.

Agar terminning tilshunoslikka oid tabiatini ochiq qilmoqchi bo'lsak, ta'kidlash joizki, termin – adabiy til leksik konsepsiyasining ajralmas qismi. Terminlar boshqa turdagi so'zlardan informativ intensivligi bilan ajralib turadi. Ilmiy va texnik terminlar nisbatan aniqroq, so'z va tavsifning iqtisod qilinishi bilan xarakterlanadi[8].

Ye.A.Kruglova ilmiy terminologiyaga oid omonimiya sifatida ayni bir terminning bir tilning turli terminologik tizimiga mansub bo'lishini tushunadi hamda misol sifatida quyidagi terminlarni keltiradi: reduction 1) iqtisod, 2) yurisprudensiya, 3) lingvistika[9].

Terminlar ko'p ma'noliligi bir terminning turli ma'nolari borligi hamda ularni ayni tilda bir necha ekvivalent bilan izohlash mumkinligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, asliyatdan boshqa tilga tarjima qilishda bir termin ma'nosini tarjima tilda (kontekstdan kelib chiqqan holda) bir necha termin (so'z) bilan ifodalash imkoniyatining mavjudligi ham terminlar polisemiya sifatida mavjudligidan darak beradi.

L.L.Kutina terminshunoslikda “terminologiyada ko'p ma'nolilik” masalasi o'z yechimini topmaganligini ta'kidlaydi[10].

Terminlar ko'p ma'noliligi semantikasining kengligi bilan xarakterlanadi. Terminologik tizimda ilmiy, kasbiy maxsus tushunchalarini ifodalash uchun paydo bo'lgan, chegaralangan leksikada (kundalik hayotdagi nutq) boshqa ma'no kasb etmagan birliklar ko'p ma'noli termin sifatida qaralmaydi. Har bir termin aniq izohga ega hamda yuridik me'yorga mos bo'ladi. Bunday terminlar bir ma'noli termin deyiladi hamda ular (turli) boshqa tilda bitta ekvivalentga ega bo'ladi. Masalan: homonym – omonim; translation – tarjima; metaphor – metafora. Tarjima tillarda ko'p ma'noli (asosan, sinonim) terminlarning paydo bo'lishida mazkur dublet-sinonimlarning ahamiyati katta. Oldin ham aytganimizdek, ko'p ma'noli terminlarning hosil bo'lishida umumist'emol leksikasining terminga aylanishi bilan bog'liq. Chunki umumist'emol leksikaga oid birliklar, odatda, ko'p semalarga ega bo'ladi. Umumist'emol leksikadan kelib chiqqan terminning ko'p ma'noli bo'lishiga umumist'emoldagi so'z bo'lganda ko'p ma'noli bo'lganligi ta'sir qiladi. Terminlar ko'p ma'noliligining asosiy sabablaridan yana biri bir ma'no asosida paydo bo'lgan maxsus ma'nodir. Terminlarni metonimik munosabat bilan bog'lab turuvchi ma'nolarning asosiy ko'rinishlarini Ye.A.Kruglova quyidagicha ajratadi:

1. Umumiy/xususi: conversion – (1) konvertatsiya/ (pul birliklarini ko'chirish); (2) konvertatsiya/valyuta almashish; structure – (1) struktura; (2) tashkiliy tuzilma. Umumiy ma'nodan kelib chiqadigan, ammo bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lmagan turli xil maxsus ma'nolar shakllanishi ham mumkin: unit – (1) til birligi, 2) ishlab chiqarish birligi; 3) ichki bo'lim, ya'ni tashkiliy tuzilma (“birlik” so'zi bilan umumiylik kasb etadi). Ba'zi hollarda ikkinchi ma'noning hosil bo'lishini hosila (qo'shma so'z shaklidagi) terminning ellipsisi bilan bog'lashadi. Masalan: group – (1) guruh (so'z, ma'no), (2) kompaniya guruhi (Group of companies).

2. Butun-bo'lak: operation (1) xo'jalik faoliyati; xo'jalik faoliyatining bir ko'rinishi; (2) amaliyot (jarrohlik amaliyoti, tarjimonlik amaliyoti, qutqaruv amaliyoti).

3. Harakat, harakat natijasi/oqibati: performance – (1) amalga oshirish, ijro etish; (2) natija; ish ko'rsatkichi.

4. Harakat, jarayon – harakat bajaruvchisi.

Termin turli ma'noda qo'llanishi, turli tor ixtisosliklarga tegishli bo'lishi mumkin. Bir terminning o'zi bir sohada ikki ma'no ifodalashi kam kuzatilsa-da, tilshunoslik, iqtisod, menejment kabi o'zaro yaqin bo'lmagan sohalarada ayni bir terminning turli ma'nolar ifodalashi – ko'p kuzatiladigan hodisa[11].

Terminologiya muammolarini o'rganish, terminlarning lug'atda berilishi masalasining ahamiyatini qayta-qayta ta'kidlashga ehtiyoj yo'q. Til leksikasining ushbu qatlami nafaqat tegishli lug'atlar so'zligidan joy olishi, ularning tavsiflanishi, balki mazkur terminning qanday hosil bo'lishi, qachon, qanday ma'noda qo'llanishii anglash muhim. Nils Borning til ilmi haqida yo'l-yo'lakay, idish-tovoq yuvish jarayonida aytilgan quyidagi ta'rifi tilshunoslar orasida mashhur: “Tilimiz idish yuvishni eslatadi. Suvimiz va sochiqlarimiz iflos, lekin biz likobcha va stakanlarimiz toza bo'lishini xohlaymiz. Til ham xuddi shunday. Biz tushunarsiz tushunchalar bilan ishlaymiz, ularni o'rganamiz, tasniflaymiz, tavsiflaymiz, chegarasi noma'lum mantiq bilan ishlaymiz; shunga qaramay biz tabiatni tushunish jarayonimiz-ga aniqlik kiritmoqchimiz”[12]. Terminologiyani ko'p o'rganish ham tilni aniq (mavhum emas), bir ma'noli va tushunarli qilishga harakat qilishdir. M.V.Zimovyaning so'zlariga ko'ra, terminlarni, umumist'emol leksika bilan solishtirganda, ongli ravishda tartibga solish uchun qulay bo'lishiga qaramay, ular “oddiy” so'zlar bo'lib qoladi, ko'p ma'nolilikni saqlaydi va /

yoki rivojlantiradi. Termin qancha keng tarqalgan bo'lsa, u shuncha ko'p ma'nolidir[13].

Ayrim olimlarning terminga qo'yadigan birinchi talabi bir ma'noliligidir. A.B.Fogel kuzatishlarida turli mualliflar tomonidan terminga qo'yilgan talablar ko'rib chiqiladi. Turli olimlarning 1931 yildan 1995 yilgacha bo'lgan tadqiqotlarini qiyoslar ekan, talablarning eng birinchisi bir ma'nolilikdir. Hatto bu talab tizimlilik talabidan ham oldinga chiqadi. Ko'p ma'nolilik odatda til birliklariga xos deb qaraladi, nutq birliklari esa bir ma'noli bo'ladi. So'zning bir yoki ko'p ma'noli bo'lishi leksik kontekst, sintaktik hamda ekstralingvistik kontekstga bog'liq bo'ladi. Termin esa kontekstga bog'liq bo'lmaganligi bilan ajralib turadi.

M.V.Zimovaya "Mnogoznachnost v terminologii" mavzusidagi monografik tadqiqotida terminlarning polisemik tabiati xususida quyidagi xulosalarga keladi[14]:

1. Ko'p ma'nolilik termin uchun xarakterli va tabiiy hodisa bo'lib, fan yoki texnikaning bir sohasiga oid polisemantiklik ham, maxsus fan doirasidan tashqaridagi ko'p ma'nolilik ham mavjud.

2. Terminning ko'p ma'noliligi muayyan sohadagi tushunchaning shu sohaga ixtisoslashishi bilan shartlanadi. Ko'p ma'noli terminning shakllanish omili ko'p ma'noli so'z semantikasining tipik kontekstual ma'nosi modifikatsiyasidir. Bunday kontekstual o'zgarishlar umumiste'mol leksikada vaqti-vaqti bilan sodir bo'ladi va yangi ma'no sifatida tan olinmaydi, lekin terminlardagi bunday ma'no o'zgarishi juda barqaror.

3. Terminning ko'p ma'noliligi funksional jihatdan aniqlanishi, muloqot vaziyati unsurlari, xususan, muloqot a'zosining malaka darajasi bilan bog'lanishi mumkin.

4. Terminologiyadagi ko'p ma'nolilik bir fenomen ning turlicha tushunilish imkoniyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday holda gap kontekstdagi variativlik haqida emas, balki polisemiya haqida boradi, chunki ma'lum bir hodisani turli xil tushunish hodisalarini o'zaro taqqoslashga hamda umumiy kontekstlarda farqlashga yordam beradi.

Terminlarning o'ziga xos xususiyatini inobatga oladigan bo'lsak, terminlar ko'p ma'noliligining (ular mansub bo'lgan sohalarga qarab) uch ko'rinishi farqlanadi:

soha ichidagi polisemiya;

sohalararo polisemiya;

maxsus sohalar tashqarisida polisemiya.

Bu ro'yxat to'liq bo'lmasligi ham mumkin.

Eng muhim omil – terminning shakllanishidagi dastlabki ma'nosi ajratib olish. Termin ma'nosi ikki omil: tushunchani aniq va to'g'ri anglashga bo'lgan intilish (1) va muloqot (nutq)ning yetarli darajada moslashuvchanligiga erishish (2) asosida shakllanadi.

Tenminlar polisemiyasi fan maktablari, ularning namoyandalarining qarashi, ma'lum tushunchaga ularning yondashuvi asosida shakllanadi. Masalan, fonema termini Moskva va Sankt-Peterburg (Leningrad) maktabi namoyondalari tomonidan turlicha talqin qilinadi. M.V.Zimovaya bu kabi polisemiyaning konseptual polisemiya deb ataydi[15].

M.V.Zimovaya terminlar polisemiyasining nutqiy ko'p ma'nolilik; soha ichidagi polisemiya; sohalararo polisemiya; maxsus soha doirasidan tashqaridagi polisemiya; konseptual polisemiya; funksional polisemiya kabi turlarini ajratadi[16].

Xulosa va takliflar. Soha ichidagi polisemiya ko'p tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan[17], olimlar tomonidan tan olingan, qator lug'atlarda o'z ifodasini topgan (bu haqda quyida alohida fikr yuritimiz). Termin ko'p ma'noliligining bu ko'rinishi ko'p tillardagi lug'atlarda inventarizatsiyadan o'tkazilgan. Sohalararo ko'p ma'nolilik esa transterminologizatsiya tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Bu terminologiyada "inson omili"ning ta'siri kattaligini ko'rsatadi, chunki ayrim o'rinlarda shunday tushunchalar tizimi kiritiladiki, ular o'zaro aloqador emasdek ko'rinadi go'yo. Terminologik polisemiyaning bu ko'rinishi ilmiy metaforizatsiyadan kelib chiqadi. Bu fikrimizga Lakoffning "Metafora v nauke: filosofsko-metodologicheskii analiz", "Metafora kak sredstvo filosofskogo i nauchnogo poznaniya", "Metafora kak element metodologii sovremennogo nauchnogo poznaniya" kabi kitoblari bu masalaning alohida e'tibor bilan o'rganilganligi dalil bo'ladi.

Konseptlarni bir sohadan boshqasiga o'tkazish ilmiy fikrni yanada rivojlantirishni axshigina rag'batlantiradi. Transterminologizatsiya jarayonida terminning asl ma'nosi o'zgarishsiz qolmaydi, u sezilarli darajada o'zgaradi, qabul qiluvchi terminologik tizimning boshqa unsurlari bilan tizimli munosabatga kirishadi. Biroq asl terminologik tizim bilan bog'liqligi aniq ko'rinib turadi. Ushbu xulosa lingvistik belgining assimetrik dualizm tamoyilini yengib o'tish to'g'risidagi tushunchaga zid keladi.

ADABIYOTLAR

1. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – Москва, 1996. – 275 с. – С. 61-67.
2. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – Москва, 1996. – 275 с. – С. 61-67.
3. Реформатский А.А. Кўрсатилган манба.
4. https://bstudy.net/617150/literatura/odnoznachnye_mnogoznachnye_terminy_ekonomicheskije_terminy
5. https://bstudy.net/617150/literatura/odnoznachnye_mnogoznachnye_terminy_ekonomicheskije_terminy
6. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – Москва, 1996. – 275 с. – С. 61-67.
7. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1042515>(Мурожаат санаси: 01.07.2023)
8. Круглова Е.А. Сложности перевода многозначных лингвистических терминов // <https://scipress.ru/philology/articles/slozhnosti-perevoda-mnogoznachnykh-lingvisticheskikh-terminov.html> (мурожаатсанаси: 30.06.2023)
9. Круглова Е.А. Кўрсатилган манба.
10. Кутина Л.Л. Языковые процессы, возникающие при становлении терминологической системы. Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – М.: Наука, 2000. – 199 с.
11. Круглова Е.А. Кўрсатилган манба.
12. <https://ru.citaty.net/tsitaty/2047850/history/>
13. Зимовая М.В. Многозначность в терминологии: автореферат дис. канд.филол. наук.– Орел, 2011. – 19 с. // <http://www.dslib.net/russkij-jazyk/mnogoznachnost-v-terminologii.html> (мурожаат санаси: 30.06.2023)
14. Зимовая М.В. Кўрсатилган манба.
15. Зимовая М.В. Многозначность в терминологии: автореферат дис. канд.филол. наук.– Орел, 2011. – 19 с. // <http://www.dslib.net/russkij-jazyk/mnogoznachnost-v-terminologii.html> (мурожаат санаси: 30.06.2023)
16. Зимовая М.В. Многозначность в терминологии: автореферат дис. канд.филол. наук.– Орел, 2011. – 19 с. // <http://www.dslib.net/russkij-jazyk/mnogoznachnost-v-terminologii.html> (мурожаат санаси: 30.06.2023)
17. Кутина Л.Л. Языковые процессы, возникающие при становлении терминологической системы. Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – М.: Наука, 2000. – 199 с.



Mahliyo SAYDALIYEVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti doktoranti

TDSHU dotsenti, PhD. N.R. Ismatullayeva taqrizi ostida

RASMIY VA NORASMIY SO'ZLASHUV USLUBLARINING UMUMIY FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Har bir tilda tilning yozma va og'zaki qismlari fonetik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Garchi ona tilida so'zlashuvchilar bu o'zgarishlarni payqashlari va aniq talaffuz qilishlari mumkin bo'lsa-da, til o'rganuvchilar tilni yaxshi bajarishlari uchun ko'rsatmalarga muhtoj. Chet tillarida so'zlashuvchilarning so'zlashuv uslubini tushunish ehtiyojlarini qondirish uchun fonostilistik qonuniyatlar ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada imlo va talaffuzning fonovariatlari tushuntiriladi va fonostilistik hodisa tarzda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Norasmiy og'zaki nutq, rasmiy og'zaki nutq, fono-stilistika, fonetik o'zgarishlar, Xalqaro fonetik alifbo, fonetik transkripsiya, diakritik belgilar, fonema.

THE COMMON PHONOSTYLISTIC FEATURES OF FORMAL AND INFORMAL SPEECH STYLES

Annotation

In each language, the written and spoken parts of the language are phonetically different. Although native speakers can notice these changes and pronounce them accurately, language learners need guidance to do well in the language. Phonostylistic regularities serve as a bridge to meet the needs of foreign language speakers to understand the speech style. In this article, phonovariates of spelling and pronunciation are explained and considered as a phonostylistic phenomenon.

Key words: Informal speech, formal speech, phono-stylistics, phonetic changes, International Phonetic Alphabet, phonetic transcription, diacritical marks, phoneme.

ОБЩИЕ ФОНОСТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМАЛЬНОГО И НЕОФИЦИАЛЬНОГО СТИЛЕЙ РЕЧИ

Аннотация

В каждом языке письменная и устная части языка фонетически различны. Хотя носители языка могут заметить эти изменения и точно их произнести, изучающим язык необходимо руководство, чтобы преуспеть в языке. Фоностилистические закономерности служат мостом для удовлетворения потребностей носителей иностранного языка в понимании стиля речи. В данной статье фоновариаты написания и произношения объясняются и рассматриваются как фоностилистическое явление.

Ключевые слова: Разговорная речь, формальная речь, фоностилистика, фонетические изменения, международный фонетический алфавит, фонетическая транскрипция, диакритические знаки, фонема.

Kirish. Tovush o'zgarish hodisalari fonostilistikaning tarkibiga kirmaydi, faqat ayrim xolatlar bundan mustasno bo'lib bunda tovush o'zgarishi fonostion energiya tejash ba'zan ixchamlikka erishish [1] maqsadida amalga oshirilgan bo'ladi: masalan: bollar-bolalar. Fonetikada unli tovushlarni cho'ziq, undoshlarni esa ikkilantirib talaffuz qilish, kaaaaaaata, ummuman, baaaaa'zan kabi so'zlarni bo'rttirishga xizmat qiladi. Bunday holatlar og'zaki nutqqa (so'zlashuv uslubi) ga xos bo'lib, yozuvda aks etmaganligi (badiiy asarlarda ayrim qahramonlar nutqi bundan mustasno) sababli bunday tovush o'zgarish holatlarini fonostilistik jarayon deb qabul qilish mumkin.

Til birliklarining stilistik bo'yoqdorligini ifoda etishning fonetik vositalarini inventarizatsiya qilish so'zlar, iboralar va ularning variantlarini talaffuz qilishda namoyon bo'ladi. Fonostilistikaning asosiy vazifalari tillarning fonostilistik sathida stilistik jihatdan belgilanmagan va stilistik jihatdan belgilangan birliklarni topish va ular o'rtasida korrespondensiyalar o'rnatish, ulardagi tovush tizimi stilistik manbalarining izomorfizm va allomorfizm sabablarini aniqlash kabilar bilan belgilanadi [2].

Nutq jarayonida ishtirok etadigan fonostilistik resurslar deganda fonetik vositalar tushuniladi, jumladan tovush, bo'gin, ohang, pauza, ritm, intonatsiya, urg'u. Lekin ular o'rtasida farq ularning nutqda bajarayotgan vazifasida. Agar fonetik vositalar til birliklarining ma'no ta'siri uchun

xizmat qilsa, ular fonetik resurslar, aksincha so'zlovchiga muayyan emotsional ta'sir o'tqazish vazifasini bajarsa, fonostilistik resurslar hisoblanadi. Bu resurslar nutqdagi leksik va Grammatik vositalarning semantik xususiyatlarini kengaytirish vazifasini bajaradi, chunki fonetik vositalar matnda leksik-grammatik vositalar bilan uyg'unlikda o'zining stilistik imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Har bir individual nutq so'zlovchi o'z nutqiy xarakteriga ega va shunga ko'ra nutq tovushlaridan foydalanadi. Foydalanishdagi turlilik fonovariantlarni yuzaga keltiradi. Tinglovchi tomonidan fikrni maqullashda qo'llaniladigan quyidagi ha, aha, hm vositalarini misol qilib olaylik. Ha bu neytral jumla bo'lib, barcha funksional uslublarda foydalaniladi va nutqqa rasmiy yoki norasmiy tus bermaydi. Hm esa og'zaki va badiiy uslubda qahramonlar nutqida ishlatiladi va maqullash jarayonida qisman bepisandlik yoki maqullilik darajasining pastligini ifodalab, nutqqa norasmiy tus beradi. Aha-bu badiiy so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, rasmiy davralarda yoki murojaat qiluvchining obro'sini baland ekanligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Fonovariantlar ohang orqali ham yuzaga chiqishi mumkin. Masalan quyidagi jumlagi qaraylik:

Meni kechiring-iltimos;
Meni kechirish-betakalluflik;
Meni kechiring-erkalanish ohangi;
Meni kechiring?-savol.

Bu yerda ohang va urg'u turli ottenkalarni ifodalashga xizmat qilyabdi. Demak, fonostilistik variantlik nutqni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadni, suhbatdoshga bo'lgan munosabatni, muloqatning rasmiy yoki norasmiylikni ifodalashga xizmat qiladi.

Imloning talaffuzga ta'siri talaffuzning yangi tendensiyalarini belgilash, tilning fonologik tizimidagi xususiyatlarni aniqlash nuqtai nazaridan zarur hisoblanadi. O'zbek tili orfografiyasining rivoji tovush talaffuzidagi aniqlikka ijobiy ta'sir o'tqazdi. Masalan, o'zbek tilidagi ovoz yozuvlarini diaxronik metodka o'rganish orqali, so'z oxiridagi e, a, i, u, unilari tarixan o'z davomiyligini yo'qotgan, uzun unli o esa o'z tembr xususiyatlarini saqlab qolganini sezish yoki o' unlisi bilan tugaydigan so'zlarning tilimizda mavjud emasligini ham aniqlash mumkin. Shuningdek, kinoya, hayrat holatlarida, istisno tariqasida, davomiyligini yo'qotgan unilarni cho'zib o'qish tendensiyasi mavjud, qolaversa, yopiq va bir bo'g'inli so'zlarda ikki undosh orasidagi unli cho'zib talaffuz qilinadi. Bu kabi orfografik va fonetik tafovutlar boshqa tillarda ham mavjud va bunday farqlarni yozuvda ifodalash uchun xalqaro fonetik alifbodan foydalaniladi. Tildagi tovushlarni yozuvdagi ifodasi fonemik belgilardir. Fonemik belgilar soni bir tilda mavjud bo'lgan fonemalar soni bilan bir xil bo'lishi kerak. Fonetik usullar bilan talaffuzni o'rganishning an'anaviy mashqlaridan biri bu fonemik transkripsiya bo'lib, bunda har bir nutq tovushi fonemalardan biri sifatida qaraladi va tegishli belgilar bilan yoziladi. Fonemik belgilar to'plamining eng ommabop va keng tarqalgan to'plami Xalqaro Fonetik Assotsiatsiya (IPA)ning alifbosidir. Og'zaki nutqni yozuvga konvensiya qilishda qavslardan foydalaniladi. Fonetik transkripsiya kvadrat qavslar ichiga olinadi [], fonemik belgilar qiyshayma qavslar ichiga yoziladi //.

Asosiy qism. Fonetik transkripsiyaning amalga oshirish zamonaviy o'zbek fonetikasi uchun muhim ahamiyatga ega. Til fonetikasida transkripsiyaning yo'lga qo'yilishi nazariy fonetik qoidalarga nazar tashlamadan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'uni joylashish o'rniga ko'ra talaffuzda qo'llash kabi imkoniyatlarni beradi. IPA butunjahon fonemalar alifbosi hisoblanadi. IPA–(International Phonetic Alphabet) ni yaratish g'oyasi 1886–yilda uyg'ongan va bo'lajak alifbo uchun Association Phonetique International, Weltlaudschriftverein, International Phonetic Association nomlari taklif etilgan va bu nomlar boshidanoq IPA xalqaro miqiyosda foydalanilishi maqsad qilinganini dalillay oladi. IPA yaratuvchilarining umumiy qiziqishi fonetika sohasida yengillik yaratish asosida birlashgan. 1886–yilda Otto Jespersen barcha tillardagi fonemalarni aks ettiradigan fonetik alifbo yaratishni taklif qilgan bo'lsa, oradan ikki yil o'tib 1888–yilda IPA ning dastlabgi versiyasi tayyor bo'lgan. Alifboni yaratish davomida qo'llangan tamoyillar 1949–yil London universiteti kolleji tomonidan nashr etilgan "The Principles of the International Phonetics Association" yo'riqnomasida belgilab o'tilgan. Ushbu yo'riqnomada beshta asosiy tamoyillar sanab o'tilgan bo'lib, ular quyidagicha:

1. Alohida olingan bir tildagi ma'lum so'zni boshqasidan farqlaydigan istalgan ikki tovush uchun alohida belgidan foydalanish;

2. Alohida olingan bir tildagi ma'lum so'zni boshqasidan farqlay olmaydigan darajada o'xshash ikki tovush uchun yagona belgidan foydalanish;

3. Belgilar lotin alifbosidagi harflar bilan tipografik uyg'unlikda bo'lishi;

4. Diakritik belgilardan faqat 4 ta holatda foydalanish:

1. Ohang, urg'u, intonatsiya;

2. Allafonik farqlarni belgilash;

3. Bitta diakritik belgi ko'plab fonemalarning umumiy fonetik xususiyatini ifodalay olganda barchasi uchun yagona belgidan foydalanish.

4. Ilmiy maqsadlarda, tovushlarning kichik soylarini ifodalashda.

Fonetik alifboni rivojlantirish fonematik prinsiplar va unililar tizimiga mos ravishda amalga oshiriladi.

Adabiyotlar sharhi. O'tgan asr davomida ushbu prinsiplarga amal qilish, IPA ning hozirgi ko'rinishi uchun asos bo'ldi. Tamoyillar, belgilarning aniq bo'lishi, belgilarning tipografik ko'rinishiga jiddiy yondashish, diakritik belgilar miqdorini minimal darajada saqlash, fonetik transkripsiyadan foydalanish IPA ning asosini tashkil qiladi. Geoffrey. K Pullum va William A. Ladusaw lar tomonidan ishlab yozilgan Phonetic Symbol Guide [3] kitobi IPA ning belgilar tizimini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Ushbu kitobda fonetik alifbodagi har bir belgiga alohida to'xtalib o'tilgan. Unli va undosh tovushlar realizatsiyasini ifodalaydigan belgilar tavsiflanib, bir biridan farqlangan. Qolaversa, suprasegment elementlarning semiotik belgilar asosida ifodalanishi va ularni transkripsiyada ifodalanish usullari teng ko'lamda bayon etilgan. Unlilar talaffuzda undoshlardan ko'ra ko'proq realizatsiyaga uchrashini IPA dagi unli fonemalarni birma bir sanab qayd etib bo'rish orqali aniqladik. IPA dagi unli tovushlar belgilarini o'zbek tilidagi unli harflarga konversiya qilgan foyda olingan ma'lumotlarga ko'ra, A unlisining 13 ta, E 9 ta, I 8 ta, O 3 ta, O' ham 3ta va U unli harfining fonologik sathda 5 ta usulda talaffuz qilinishini aniqladik. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek tilidagi 6 ta unli harflarning IPA ga ko'ra belgilarda tahlil qilish orqali, nutqda eng ko'p fonemalarga ega unli Aa unlisi bo'lib chiqdi. O'zbek tilidagi O'o' unlisi Lotin alifbosida o'z o'rniga ega emas va Oo unlisining fonovarianti sifatida qaraladi, jumladan ingliz tilida ham. O'zbek tilidagi barcha harflarga mos keladigan fonemalarning IPA da mavjudligi, IPA xalqaro miqiyosda foydalanilishi uchun universallik xususiyatining mavjudligi, o'zbek tili alifbosi IPA tamoyillarida belgilanganidek lotin alifbosi asosida tuzilganligi og'zaki nutqdagi tovush o'zgarishlarini IPA ga ko'ra transkripsiya qilish ilmiy asosga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, xalqaro fonetik belgilardan foydalangan holda, o'zbek tilidagi ayrim fonemalarni transkripsiya qilish o'zbek tili fonetikasi doirasida yangiliklardan biri bo'ladi. Garchi o'zbek tili talaffuzi orfografik me'yorlarga ko'ra amalga oshirilsa ham, ya'ni transkripsiya har bir so'z uchun alohida ishlab chiqilishi shart bo'lmasa ham, ayrim istisno holatlarni kuzatish mumkin. Bunday holatlarning davomiyligi ayniqsa so'zlashuv uslubi uchun xarakterlidir.

Grafemalardan foydalanish adabiy tilning imlo me'yorlarini so'zlashuv uslubining og'zaki shaklidan farqlash, ular o'rtasidagi chegaralarni aniqlash va so'zlarni orfografik barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Grafema deganda o'zida differensial belgilarning minimal to'plamini jamlagan, semantik funksiya bajaradigan, nutqda bir qator pozitsiyali va pozitsiyasiz harf variantlari (shrift) bilan ifodalanadigan grafik belgining mavhum vizual invariant modeli tushuniladi [4]. Grafema atamasi fanga 1881–yilda I.A. Boduen de Kurtene tomonidan kiritilgan. Olim grafemani yozma nutqning o'ziga xos mavhum tasviri sifatida tavsiflagan, shuningdek grafema harfning barcha variantlari uchun umumiy bo'lib, fonema tovushga aylanganidek, grafema harfga aylanishi haqida yozadi [5].

Natija va muhokamalar. Kanonik bo'lmagan tovushlar deganda biz o'zbek tilining tovush tizimi uchun odatiy bo'lmagan tovushlarni tushunamiz. Tabiiy til muhitiga tushib qolgan chet tili o'rganuvchilari til egalari nutqini tushinishda qiyinchiliklarga uchradi. Buning sabablaridan biri odamlar kutilganidan tezroq gapirishi, ikkinchisi bo'lsa adabiy va so'zlashuv uslubidagi farqlardir. Chet tilini o'rgatishdagi til muhiti tabiiy til holatidan ko'p jihatdan farq qiladi. Talaffuzdagi o'zgarishlar, so'zlashuvchilardagi sotsiol farqlar so'zlashuv uslubi uchun xosdir. Qolaversa, o'zlashma

so'zlarning talaffuz xususiyatlari orfoepik tizimda variantlilikni hosil qilib, bunday talaffuz variantlari fonostilistika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. O'zlashma so'zlarning chet tilidagi xususiyatlarini saqlab qolishi, so'z o'zlashtirgan tilning talaffuz qoidalarini buzilishiga olib keladi va bunday istisno holatlar zamonaviy fonetik qonuniyatlari bilan izohlashni talab qiladi.

Suhbatda suprasegment va prosodik (tovush, ritm, ohang, urg'u, suhbat tempi, ritmik ohang, fonika) vositalarni o'rganish fonostilistika fanining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Og'zaki nutqda emotsionallik asosan fonetik vositalar bilan ifodalanadi. Bunga misol qilib qo'shimcha stress, ekspressiv pauza, emotsional ohang, vaqtinchalik gap tarkibining o'zgarishi kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Situatsion va stilistik parametrlar o'zgariganda ya'ni so'zlashuv uslubidan ilmiy, undan publitsistik uslubga o'tilganda nutqni boshqarilish, tovushlarning akustik-artikulatsion talaffuz aniqligi oshadi. Bu kabi jihatlarni turli nutq uslublari doirasida qisqacha ko'rib chiqish mumkin. Jurnalistik uslubning asosiy funksiyasi ta'sir o'tqazishdir [6]. Jurnalistik uslubning og'zaki janrlarida ta'sirchanlik xususiyati fonetik birliklar jumladan, intonatsiya orqali yuzaga chiqadi. Qolaversa, stilistik xususiyatlar mantiqiy urg'u yoki urg'ular miqdorini oshirish orqali ham yuzaga chiqadi. So'zlovchi o'z nuqtai nazaridan eng muhim bo'lgan so'zlarga qo'shimcha mantiqiy urg'u qo'yishi, yoki nutqda ko'p miqdorda qo'shimcha hissiy stresslardan foydalanish orqali emotsionallikni namoyon qilishi mumkin.

Ilmiy uslubning kommunikativ funksiyasi axborotni uzatish hisoblanadi, og'zaki ilmiy matnlarning informatsionallik darajasi ma'lumot qabul qiluvchining idroki bilan chegaralanadi. Ilmiy uslubdagi matnlar integratsion birlik bilan ajralib turadi va har bir birlik o'z kombinatorlariga ega bo'ladi. Axborot integratsiyasi ilmiy uslubning mazmun birligi, strukturaviy integratsiyasi esa ilmiy matnlarning lingvistik butunligi sifatida mavjud bo'lishini ta'minlaydi. Ilmiy uslubning fonostilistik xususiyatlari va og'zaki ilmiy matnlarni o'rganish quyidagilarni xususiyatlarni namoyon qiladi:

- Unlilar talafuzida ohangdagi ko'tarilish;
- Information qismlardagi muhimlikni ifodalashda melodiyaning o'zgarishi;
- Nutq temping sekinlashishi;
- Uzoq muddatli pauzalardan ongli ravishda foydalanish.

Publitsistik uslubda pauza va intervallar orasidagi muvozanat fonostilistik vositalar yordamida boshqarilishi mumkin. Masalan, Dr Thomas Dixon inglizlarning emotsiyalardan foydalanishi masalasiga bag'ishlangan "Stiff upper lip, an emotional history of Britain" [7] deb nomlangan nutqni tinglash davomida, pauzalardan so'ng sodir bo'lgan nutq tezligidagi o'zgarishlarni sezish mumkin. Nutqning asosiy g'oyasini tushuntirishda sekinlik, kirish qismida nutqning tez ifodalanganini sezish mumkin. Qolaversa, ilmiy nutq davomida so'zlovchi informatsion jihatdan muhim qismlarda pauzalar qo'llagan.

Ilmiy uslubda yangi ma'lumotlarni optimal darajada aniqlik bilan uzatish ta'lab qilinadi. Shu sababdan tovushlar talaffuzida ravshanlik va fonetk me'yorlarga amal qilinadi.

So'zlashuv va kundalik muloqat doirasi stilistik jihatdan xilma-xil. Bu sohaga xos bo'lgan og'zaki nutq yuqori situatsion shartlilik bilan tavsiflanadi. So'zlashuv nutqi,

ADABIYOTLAR

1. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2009.
2. Saparova K. O. The similarities and differences of phonostylistic means of the Russian and Uzbek languages // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – №3 (32), 2020. – с. 52.
3. K.P. Geoffrey, A.L. William. Phonetic symbol guide second edition. The University of Chicago Press, 1996.
4. Орлова Н.В. Графема как объект исследования смыслообразующей роли печатного знака. – с. 75.

avvalambor, vaziyat nutqidir [8]. Kundalik mavzularda suxbat yuritish so'zlashuv nutqining asosiy xususiyatlaridan biri. Lekin bir mavzu butun boshli suxbat uchun umumiy bo'lmaydi. Spontan nutqlarda suxbat mavzusi doimiy o'zgarib turishi mumkin. Demak, so'zlashuv uslubidagi tematik va situatsion mavzular chegaralarini kuzatish mumkin. Jamiyat a'zolarining kundalik va mehnat munosabatlaridagi o'zgarishlar ularning nutqiy doirasini ham o'zgartiradi. So'zlash jarayonida nutq ritmi turlicha o'zgarishlarga uchraydi bu emfatik urg'u, beqaror pauza, vaqtincha suxbatdoshlar orasida tartibsizlik kabi omillar natijasi bo'lishi mumkin. So'zlashuv uslubida tushkunlik ham ko'p uchraydigan hodisa. Tushkunlikni ifodalash uchun nutq matnida bo'g'inlar, tovushlar tushib qoldirilishi mumkin. Nutq ohangining pasayishi natijasida artikulyatsiyada ehtiyotsizlik, o'z o'zini nazorat qilishning kamayishi bunday fonetik yo'qolishga sabab bo'ladi. Aksincha, so'zlashuv nutqi tez amalga oshirilgan holatda butun bo'g'inlarning tushib qolishi harakterli vaziyatdir. Demak, nutqdagi fonetik o'zgarishlar funksional xususiyatlariga ko'ra ma'lum qonunlar bilan tasniflanadi. Agar so'zlovchi yetqazilayotgan ma'lumotni muhim deb hisoblasa, holatdan qat'i nazar talaffuzda aniqlikni amalga oshiradi. Suhbatdagi situatsion o'zgarish tovushlarning akustik xususiyatlariga ta'sir qiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda grafema moddiy xarakterdagi nolingvistik hodisa sifatida tushunilishi haqida qator fikrlar mavjud. Grafema ma'lum til yozma tizimining bir qismi bo'lgan asosiy birlik [9], fonemani belgilash uchun xizmat qiluvchi yozma tilning eng kichik birligi [10] kabi fikrlar shular jumlasidandir. Ammo fikrimizcha tilning yozuv tizimini o'rganish, shakllantirish, isloh qilish kabi masalalari ham tilshunoslar zimmasiga topshirilgan ekan, grafemalarni ham tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish asosli. Fonema va grafemani farqlaydigan bo'linsa, ular o'zaro paradigmatic munosabatda emas. Ular o'rtasida funksional parallelizm mavjud. Grafema va fonema tilning ierarxik tizimida teng pozitsiya egallaydi.

Xulosa. Stilistik qarama qarshiliklar lingvistik adabiyotlarda talaffuzning ikki turida uzoq vaqtdan beri kuzatiladi. Bular rasmiy va norasmiy so'zlashuv uslublaridir. Rasmiy nutq artikulyatsion ehtiyotkorlik va bayondagi nutqqa nisbatan sekin amalga oshirilishi kabi ustuvor xususiyatlarga ega. A.S. Gimson rasmiy nutqqa ehtiyotkor so'zlashuv uslubi deb ta'rif bergan edi. Intonatsiya stilistik xilma xillikka ega bo'lgan fonostilistik birlikdir. Monolog, misol uchun, nutq so'zlovchining qabul qiluvchidan ancha uzoq bo'lgan nutqi va xotirjam hikoya usulidagi bayondan iborat. Diologlar shaxsiy va samimiylikka asoslangan. Turli shakldagi og'zaki nutq ko'p jihatdan o'zaro farqlanishi mumkin, bunday farqlarning vujudga kelishida ekstralingvistik omillar muhim asosga ega. Muloqat jarayonida o'zaro qarama-qarshi fikrlarni ifodalash paytidagi emotsional hayajonli nutq, muammo muhokamasi paytida nutqning fonetik jihatdan aniq artikulyatsiya kabi holatlarini kuzatish mumkin. Nutq sur'atining tezlashishi nutqdagi ehtiyotsizlikka olib kelishi mumkin. Shulardan kelib chiqib, tovushlarning stilistik o'zgarishlarida hisobga olinadigan muhim jihatlardan biri so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarning xarakteri va ularning rasmiyatchilik darajasidir. Nutqning uzluksizligi ma'ruzachining nutqqa berayotgan e'tiborida aks etadi. Rasmiy vaziyatlarda ishtirokchilar o'zlarining lingvistik xatti-harakatlarini kuzatib borishi ko'zda tutiladi.

5. Бодуэн де Куртене И.А. Об отношении русского письма к русскому языку // Избранные труды по общему языкознанию. В 2 т. Т.2. М: Изд-во АН СССР, 1963. – с. 214.
6. Кожина М. Н. Стилистика русского языка. – М.: 1983. – с. 37.
7. https://youtu.be/_KUDcafR9PU.
8. Будагов Р. А. Литературные языки и языковые стили. – М.: 1967. – с. 92.
9. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – с. 117.
10. Зиндер Л. Р. Очерк общей теории письма. – Л.: Наука, 1987. – с. 27.



Dilobar SULAYMANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dilobar7796@gmail.com

JDPU, f.f.n., dotsent S. Soyipov taqrizi asosida

AKTANTLARNING SINTAKTIK SATHDAGI MAVQEYI MASALASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada sintaksining fundamental masalaridan biri bo'lgan pog'onali sintaktik tahlil, gap bo'laklarining iyerarxiyasi, markaz qurshovlilik munosabatining sintaktik sathda namoyon bo'lishi yoritiladi. Sodda gaplarda markaz va qurshov munosabatining voqelanishi, gapning LSQida so'zlar bog'lashuvini tahlil qilish orqali aktantlarning gap qurilish sathidagi vaziyati oydinlashtiriladi. Maqolada gapning til bosqichidagi lisoniy gap bo'laklari (tarkibiy qismlari) o'rtasidagi semantik, grammatik bog'lanish, gap va so'z kengaytiruvchisining iyerixiyadagi maqomi masalasi tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: Gapning LSQi, valentlik, aktant, gap kengaytiruvchisi, so'z kengaytiruvchisi.

ВОПРОС О ПОЛОЖЕНИИ АКТАНТОВ НА СИНТАКСИЧЕСКОМ УРОВНЕ

Аннотация

В данной статье освещается один из фундаментальных вопросов синтаксиса поэтапный синтаксический анализ, а также иерархия предложений, проявление центрально-окружающих отношений на синтаксическом уровне. Путем анализа связи слов в ЛСО предложениях проясняется положение актантов на уровне построения предложения, реализация отношения центра и окружения в простых предложениях. В статье анализируется семантическая, грамматическая связь между фрагментами (компонентами) языкового предложения на языковой стадии предложения, статус предложения и расширителя слова в иерархии.

Ключевые слова: LSO предложения, валентность, актант, расширитель предложения, расширитель слов.

THE ISSUE OF THE POSITION OF ACTANTS AT THE SYNTACTIC LEVEL

Annotation

In this article, one of the fundamental issues of syntax: syntactic analysis, the hierarchy of clauses, and the manifestation of the center-surrounding relationship at the syntactic level are highlighted. By analyzing the realization of the center-surrounding relationship in simple sentences and the connection of words in the LSP of the sentence, the situation of actants at the level of sentence construction is clarified. The article analyzes the semantic and grammatical connection between the parts (components) of the linguistic sentence at the language stage of the sentence, the status of the sentence, and the word expander in the hierarchy.

Key words: LSP, valency, actant, sentence expander, word expander.

Ma'lumki, gap bo'laklari konsepsiyasi tilshunoslikda XX asrning o'rtalariga qadar gapning sintaktik analizida yetakchi rol o'ynadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan gap bo'laklari konsepsiyasi hech qachon bir xil bo'lgan emas. Bu masalaga turlicha qarashlar turli davrdagina emas, balki bir davrning o'zida ham mavjud bo'lgan (Храковский, 1985: 124). An'anaviy tilshunoslikdagi gap bo'laklariga va ularni bosh hamda ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishda kuzatiladigan xilma-xillik bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishning obyektiv kriteriyalaridan kelib chiqdi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning differensial belgisi ularning kesim asosga kirish/kirmasligi, kesim asosni hosil qilishda qatnashish/qatnashmasligi hisoblanadi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning differensial belgisi sifatida kesim asos gapning konstruktiv yadrosini ko'rsatadi, konstruktiv birliklari hisoblanadi (Nurmonov, 1988: 41). Gapning struktur sxemasini belgilashda abligator bo'laklar-majburiy bo'laklar bo'lgan ega va kesim asosiy mezon hisoblanadi va kesimlik minimumini tashkil qiladi. Kesimlik minimumini ko'rsatuvchi bu bo'laklar shu gapning konstruktivlaridir. Fakultativ bo'laklar mos ravishda abligator yoki konstruktiv bo'laklardan biriga (shuningdek, fakultativ bo'lak xuddi shunday bo'lakka) bog'lanib, ularni aniqlaydi, izohlaydi yoki to'ldiradi, natijada konstuent yoki fakultativ bo'lak kengaytirib kelishga xizmat qiladi.

XIX asrning yarmidan boshlab vujudga kelgan munosabat logikasiga ko'ra, hukm asosida faqat kesim turadi,

ya'ni gapning konstruktiv elementi kesim, qolganlari shu kesim valentliklarini reallashtiruvchi, grammatik jihatdan unga tobe bo'lgan bo'laklar-argumentlar yoki aktantlar hisoblanadi. Ushbu munosabat logikasiga ko'ra, gapda aktantlar o'zlari tobelangan bo'lak bilan birgalikda quyidagi 4 xil bog'lanishni yuzaga keltiradi:

Predikativ aloqa-ega-kesim bog'lanishi.

Atributiv aloqa-aniqlovchi-aniqlanmish bog'lanishi.

Kompletiv aloqa-to'ldiruvchi-to'ldirilmish aloqasi.

Kopulyativ aloqa-uyushiq bo'laklar o'rtasidagi aloqa (Nurmonov, 1988: 49).

An'anaviy tilshunoslikda atributiv aloqadagi cheklanganlik xususiyati borki, bunda aniqlovchining gapdagi maqomi, ya'ni konstruktiv bo'lak bo'lish-bo'lmasligi bo'yicha turlicha qarashlar mavjud. Buni turkologlar o'z tadqiqotlarida aniqlovchining gapdagi miqdoridan qat'i nazar, atributiv aloqadagi hokim bo'lak-aniqlanmish tahlilda o'z sintaktik pozitsiyasiga ega bo'lishi, o'z aktanti (aniqlovchi) bilan birga bitta gap bo'lagi bo'lishini ta'kidlashadi (Баскаков, 1961: 67), atributiv aloqa gapning tuzilish doirasiga kirmasligi aytib o'tiladi (Дмитриев, 1961: 28).

Aytib o'tish joizki, zamonaviy tilshunoslikdagi sistemaviy tadqiqotlarga jiddiy e'tibor berilishining samarasi o'laroq lisoniy faktlarga avtonom holda yondashilmay, balki har bir lisoniy hodisaning tub mohiyati ochilishiga e'tibor berilmoqda, natijada lisoniy hodisalar o'rtasidagi mazmun-mohiyatning yoritilishi markaziy o'rin egallamoqda.

Sintaksis tarixida gapning tarkibi, uning tahlili har doim muhim o'rin egallab kelgan. Sintaksisning shunday fundamental muammolari - birlamchi sintaktik tahlil, sintaktik aloqalar tushunchalari, gap bo'laklarining iyerarxiyasi, gapning tuzilishi tamoyillari har xil sintaktik maktablarda ko'rib chiqilgan. Tilshunoslik sohasi rivojlanishi bosqichlarining har birida gap bo'laklarini ajratish masalasida xilma-xilliklar kuzatilgan. An'anaviy tilshunoslikda ikkinchi darajali bo'laklar tahlilida yakdillik mavjud emasligining boisi shundaki, fakultativ bo'laklarni ajratishda qo'llanadigan obyektiv kriteriyalar turli xildir.

O'zbek tilshunosligida (rus tilshunosligida ham) odatda gap tarkibidagi konstituentlarga bilvosita yoki bevosita bog'langan fakultativ bo'laklar gap tarkibidan bir vaqtda ajratiladi. Bunday sintaktik tahlil keng tarqalgan ajratish bo'lib, dastlab abligatorlar, so'ng esa fakultativ bo'laklar aniqlanadi:

Kishining kimligi o'zidan "kattalar"ga emas, "kichiklar"ga ko'rsatgan muomalasiga qarab bilinadi jumlasida abligatorlar bilinadi (kesim) va kimligi (subyekt) ga ajratilishi bilan bir vaqtda kishining (qaratqich aniqlovchi), ko'rsatgan (sifatlovchi aniqlovchi), o'zidan, kattalarga, kichiklarga, muomalasiga (vositali to'ldiruvchi) kabi fakultativ bo'laklar-ikkinchi darajali bo'laklarga ham ajratiladi.

Ta'kidlanganidek, o'zbek va rus tilshunosligida gapning tarkibida tobe vaziyatda muayyan so'roqqa javob bo'luvchi har qanday ikkinchi darajali bo'lak gap tarkibidan bir vaqtda ajratilishi ko'pchilik tilshunoslar uchun odatiy holga aylandi.

Masalan: Baxtli inson barchani o'ziga o'xshatadi. (S. A.) jumlasida ikki bosh bo'lakka - inson (ega) va o'xshatadi (kesim)ga ajratilishi bilan birga barchani (to'ldiruvchi) baxtli (aniqlovchi) singari ikkinchi darajali bo'laklarga ham ajratiladi. Dastlab gap tarkibidagi bosh bo'laklar aniqlanadi va undan so'ng gapning ikkinchi darajali bo'laklari belgilanadi. Ikkinchi darajali bo'laklarni belgilashda ularning gap yoki uning bir qismining bo'lagi ekanligi hisobga olinmaydi.

An'anaviy tilshunoslikning ana shu cheklangan tomonlarini ayrim turkologlar payqaganlar va aniqlovchining gapning konstruktiv bo'lagi ekanligiga shubha bilan qaraganlar. Jumladan, A.N.Baskakov fikricha, aniqlovchining miqdoridan qat'i nazar, har qaysi aniqlanmish gap tarkibida o'zining sintaktik pozitsiyasiga ega bo'ladi va aniqlovchi bilan birgalikda bir butun holda bir gap bo'lagi sanaladi. N.K.Dmitriyev ham aniqlovchi-aniqlanmish munosabati gapning tuzilishi doirasiga kirmasligini ta'kidlagan edi.

Yaqina qadar mavjud darslik va qo'llanmalarda gap bo'laklari bosh bo'laklar (ega, kesim) va ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) sifatida o'rganilib, tilshunosligimizda gap bo'laklarining "Ega o'z sostavidagi bo'laklarga hokim (shu sostavning bosh elementi) bo'lganidek, kesim ustidan ham hokimdir. Kesim egaga nisbatan tobe, o'z sostavidagi bo'laklarga nisbatan hokimdir" degan nazariya yetakchilik qilib keldi. So'nggi yillarda bu fikrga qarshi o'laroq "Kesim gapning fikriy markazi bo'lib, gapdagi barcha bo'laklar uning kengaytiruvchilaridir" degan qarash ilgari surildi. Ayrim Yevropa tillari, xususan, rus, ingliz, nemis tillarida aksariyat hollarda kesim egasiz shakllana olmaydi, gapda fikr to'la ifodalanishi uchun ega ishtirok etishi shart. Kesimning gap bo'lagi emas, gapning o'zi ekanligi yana shu bilan dalillanadiki, gap bo'lagi tobe munosabatda bo'lgan ikki sintaktik birlikning tobe vaziyatda turgan qismiga nisbatan belgilanadi. Tobe qismning sintaktik pozitsiyasi aniq bo'ladi. Hokim qismning sintaktik pozitsiyasi esa sintaktik aloqa zanjirining boshqa halqasi uchun tobe vaziyatdagi holatiga qarab aniqlanadi. Ko'rinadiki, gap bo'lagining muhim belgisi tobe vaziyatda bo'lishidir. Bu nuqtayi nazardan kesim hech qachon tobe vaziyatda kelmaydi.

U tobe vaziyatdagi sintaktik birliklar bilan kengayadi. Ergash gap vazifasida kelganda ham tobe vaziyatdagi so'z-shakllar bilan kengayadi. Bosh gapga tobe bo'lib kelishi esa Tenyer qonuniyati bilan izohlanadi, ya'ni L.Tenyer nazariyasiga ko'ra gapning negizida bog'liqlik va tobelik yotadi. Bunga ko'ra, kesimga tobe bog'lanib, uning tarkibini kengaytiruvchi va mazmunini konkretlashtiruvchi a'zolar yunktiv va translyativlar (ba'zi adabiyotlarda aktantlar yoki argumentlar va sironstantlar) sanaladi. Bu nuqtayi nazaridan ega ham to'ldiruvchi va hollar singari aktantlar qatorida turadi, kesimning ega pozitsiyasidagi aktanti sanaladi.

Mantiqiy "subyekt + kesim" (ya'ni kesimlik aloqa) ning mohiyatan "ega+kesim" (gap tarkibiy qismlari orasidagi grammatik munosabatdan farqlanishi Arastu zamonidan hozirgacha tilshunoslar va mantiqshunoslar tomonidan e'tirof etib kelinadi. Kesim mantiqiy atama va mantiqiy hodisa in'ikosi ekanligini ta'kidlagan holda aytilish mumkinki, gapning mundariyasi [Pm] dadir. [Pm] gap kesimini, ya'ni uning markazini grammatik jihatdan shakllantiruvchi kategoriyaning son-sanoqsiz nutqiy ko'rinishlari umumiy ramzi bo'lib, uning nutqiy ko'rinishlari cheksizdir. Tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs-son ma'nolari va qo'shimchalarining nutqiy, ma'noviy va moddiy rang-barangligiga bu ramz neytral-befarqdir. Quyida izlanishga doir bo'lgan bir xususiyatni alohida ta'kidlab o'tish lozim: kesim [W-word] va [Pm-predicate marker] kabi alohida qismlardan iborat bo'lib, [WPm] qolipidagi [W] va [Pm] kabi nisbatan mustaqil bo'lgan qismlar o'zaro faqat gap markazi mavqeyida kelgandagina birikadi. [W] esa gapda xilma-xil pozitsiyalarda kelishi mumkin. Undan farqli ravishda [Pm] har qanday atov birlik bilan bog'langanda unga potensial gap mavqeyini beradi. Aytish joizki, [Pm] atov birligi vazifasida kela olmaydigan til birliklari (chunonchi, fonema, grammatik morfema va h.z.) bilan birika olmaydi. Bu esa [Pm] - ya'ni kesimlik ko'rsatkichi gapning negizini, asosini tashkil etishini anglatadi.

So'z gapning qurilish ashyosi bo'lganligi sababli gap qurilishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi, ya'ni markaz sifatida o'z atrofida ma'lum bir leksemalarni birlashtirishi yoki kengaytiruvchi sifatida qurshov vazifasini bajarishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, gap kesimini shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi bo'lganligi sababli o'zbek nutqidagi gapning tarkibiy qismini shu gap tarkibiga kiruvchi so'zning va kesimlik kategoriyasi shaklining valentligi belgilaydi. Gap tarkibidagi bo'laklar ana shu markaziy bo'lakni to'ldirishdagi rolga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Gap kengaytiruvchilari - gap markazini tashkil etuvchi so'zdagi kesimlik kategoriyasi shakllariga bog'lanuvchi bo'laklar.
2. So'z kengaytiruvchilari - gapda ishtirok etayotgan ma'lum bir so'zning ma'noviy valentligini to'ldiruvchi bo'laklar sanaladi.

Ma'lumki, gapning markazi sanalgan kesimni ushbu vazifada kelayotgan so'z va kesimlik katagoriyasining valentligi shakllantiradi va gapning lisoniy qurilishida quyidagi nutqiy hodisa yuzaga chiqadi: so'zlar gapning markazini ifodalovchi shaklning kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichiga tobelanadi (Sayfullayeva, R., Mengliyev, B., Qurbonova, M. M., Abuzalova, M., Boqiyeva, G., Yunusova, Z., 2009: 335).


Kesimlik shakllariga bog'langan bunday so'zlar bevosita kesimlik ko'rsatkichi bilan aloqador bo'lgani va gapni kengaytirgani uchun gap kengaytiruvchilari deb ataladi. Gap kengaytiruvchilari gapdagi biror-bir so'zning leksik ma'nosi bilan emas, balki gapning markazini shakllantiruvchi grammatik vositalar bilan bog'lanadi. Buni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz:

Ertaga biz shaharning eng so'lim maskaniga boramiz.

Gap markazining leksik ma'no anglatuvchi qismi-fe'l leksemasi "boramiz" (W), grammatik ma'no anglatuvchi kesimlik kategoriyasi esa "-a+miz" (Pm). Subyekt (biz) kesimlik grammatik shakli, xususan, shaxs-son ma'nosini anglatuvchi -miz qismi bilan semantik valentlik hosil qilgan bo'lib, u odatda kesimlik kategoriyasi tarkibidagi shakl bilan shaxs va sonda moslashadi, ya'ni ushbu ma'noni o'zida muayyanlashtiradi

(Ba'zi mustasno holatlarda subyekt va kesimning shaxs yoki son shakli o'zaro nomuvofiq bo'lishini ham ko'rish mumkin. Masalan: Kamina xizmatigizga bel bog'lagan. – gan-III shaxs birlikdagi zamon shakli, kamina-I shaxs birlikdagi ega).

Temporalis (ertaga) esa kesimning ham leksik ma'no ifodalovchi qismi, ham kesimlik ko'rsatkichi [W+Pm] bilan bog'lanib, temporallik ma'nosini muayyanlashtiradi. Bundan kelib chiqadiki, kesimliklik kategoriyasining shaxs-son ma'nosini voqelantiuvchi aktantlar-gap kengaytiruvchisi gapning mazmuniy mundarijasini yuzaga chiqaradigan [Pm]



Gap tarkibidagi mustaqil so'zlik mavqeyini saqlagan holda kengayish qobiliyatiga ega barcha so'zlarning ana shu qobiliyatini yuzaga chiqishini ta'minlovchi leksik birlik so'z kengaytiruvchilari deb ataladi (Sayfullayeva, R., Mengliyev, B., Qurbonova, M. M., Abuzalova, M., Boqiyeva, G., Yunusova, Z., 2009: 336). So'z kengaytiruvchisi ma'lum bir so'zga bevosita, gapning markazidagi kesimlikni shakllantiruvchi grammatik vositalarga bilvosita bog'lanadigan bo'lak, muayyan so'zning ma'noviy xususiyatini ochib berishga, kengaytirishga xizmat qiladigan, o'ziga nisbatan hokim bo'lgan so'z bilan semantik valentlik hosil qiladigan tarkibiy qismidir. Aytib o'tish joizki, "so'z kengaytiruvchilari" atamasini faqat so'zning so'zga bog'lashuvi ma'nosida tushunmaslik kerak. So'z valentligi quyidagi 2 holatda yuzaga chiqadi:

So'z (o'zak) ga qo'shimcha qo'shish orqali kengayish.

So'zning so'zga birikishidan hosil bo'lgan kengayish (Qo'chqortoyev, 1977: 38).

Ushbu hodisaning ikkinchi ko'rinishi- leksemalar valentligining keng tarqalgan ko'rinishi aniqlovchining qurshov vazifasida markaz atrofiga birlashishi bo'lsa-da,

ning ma'nosi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun kesim vazifasida kelgan "boramiz" fe'li boshqa shakllarga o'zgartirilsa ham, gapning LSQida lug'aviy ma'no ifodalovchi qism [W]da o'zgarish yuz bersa-da, kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichi [Pm]da bunday holat voqelanmaydi.

Gapdagi lokalis (o'rin belgisini ifodalovchi aktant) "maskaniga" esa kesimning lug'aviy ma'no anglatuvchi "boramiz" qismiga tobelanadi va gap subyektining mavqeyidan tamomila farq qiladi: lokalis kesimning leksik ma'no anglatuvchi qismi bilan mazmuniy bog'langani bois [Pm] kesimlik shakli bilan valentlik hosil qilmaydi va so'z kengaytiruvchisi sifatida gapda o'z pozitsiyasini egallaydi Atributiv aloqani shakllantirgan "so'lim" va "shaharning" aktantlari (qaratqich va sifatlovchi aniqlovchi) esa o'z navbatida temporalis bilan tobe-hokimlik aloqasiga kirishadi, ya'ni gapning konstuentlari (kesimiv minimumni ko'rsatuvchi ega va kesim) bilan bilvosita bog'lanadi va, tabiiyki, gap kesimiga, xususan, uning [Pm] shakliga aloqador bo'lmagani bois so'z kengaytiruvchilari vazifasida keladi. Gapdagi bo'laklar valentligini quyidagicha ifodalash mumkin:

boshqa bo'laklar ham so'z kengaytiruvchilari vazifasida kelishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligining navbatdagi vazifasi bo'lgan gapning LSQida so'zlar bog'lashuvini kengroq tahlil qilish orqali aktantlarning gap qurilish sathidagi vaziyatini aniqlashtirish, gapning til bosqichidagi lisoniy gap bo'laklari (takibiy qismlari) o'rtasidagi semantik, grammatik bog'lanishni oydinlashtirishga yo'naltirilgan. Tilning lisoniy tizimidagi markaz qurshovlilik munosabatining sintaktik sathda voqelanishi, gap tarkibidagi bo'laklarning markaziy bo'lak- kesim (atov birlik[W]+kesimlik ko'rsatkichi [Pm])ni to'ldirishdagi o'rni; mutlaq hokim bo'lak-konstuent (kesim)ga bilvosita yoki bevosita bog'langan aktant (tobe bo'laklar)larning nisbiy pog'onali-iyerxik o'rinishuvi yoritilgan. Tilshunoslikdagi pog'onaviylik tamoyiliga asosan dastlabki bosqichda qurshov vazifasini bajargan bo'lak (jumladan, [Pm] bilan valentlik hosil qilgan gap kengaytiruvchisi yoki [W] atov birligiga tobelangan so'z kengaytiruvchisi) ning keyingi bosqichda mos ravishda so'z kengaytiruvchilari bilan kengayib, markaz mavqeyida kelishini ochib berishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR

1. Храковский, Б. С. (1985). Концепция членов предложения в русском языкознании XIX века.-В кн.: Грамматические концепции в языкознании XIX века. Л, с 124.
2. Nurmonov, A. (1988). Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. –Toshkent, 41-49 b.
3. Баскаков, Н. А. (1961). Простое предложение в каракалпакском языке // Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. ИИИ. Синтаксис. Москва, с 67.
4. Дмитриев, Н. К. (1961). Детали простого предложения. Москва, с 28.
5. Sayfullayeva, R., Mengliyev, B., Qurbonova, M. M., Abuzalova, M., Boqiyeva, G., Yunusova, Z. (2009). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 335-336 b.
6. Qo'chqortoyev, I. (1977). So'z ma'nosi va uning valentligi . Toshkent, 38.
7. Iskandarova, Sh. M. (1999). O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni): Filol. fanlari d-ri... dis. Toshkent.
8. Литвин, Ф. А. (1984). Многозначность слов в языке и реч. Москва.: Высшая школа.
9. Кузнецова, Е. В. (1983). О статусах слова. Исследования по семантике... - Уфа.
10. Qurbonova, M. M. (2001). O'zbek tilshunosligida formal-funksional yo'nalish va sodda gap qurilishining talqini: Filologiya fanlari doktori... dis. Toshkent.



Marhabo UMURZOQOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD)

E-pochta: umurzakovamarkhabo@gmail.com

O'zXIA professori D.Lutfullayeva taqrizi asosida

THE STUDY OF THE CONCEPT OF LINGUISTIC PERSONALITY IN THE SOCIOPRAGMATIC ASPECT

Annotation

The article covers the study of the concept of linguistic personality in the sociopragmatic aspect. Social status and social role play an important role in the realization of a linguistic personality in a literary text. Communicators use lexical units corresponding to the speech situation based on their social status and role in the communication process. The imposition of a communicative goal and the use of appropriate pragmatic tactics are considered important factors in the realization of a linguistic personality in a literary text. The concept of a linguistic personality has been analyzed on the basis of a sociopragmatic approach.

Key words: Linguistic personality, social status, social role, pragmatic purpose, pragmatic tactics, speech act

ИЗУЧЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ

Аннотация

Статья посвящена исследованию понятия языковой личности в социопрагматическом аспекте. Социальный статус и социальная роль играют важную роль в реализации языковой личности в художественном тексте. В процессе общения лица, вступающие в общение, используют лексические единицы, соответствующие речевой ситуации исходя из своего социального статуса и роли. Постановка коммуникативной цели и использование соответствующей прагматической тактики считаются важными факторами реализации языковой личности в художественном тексте. Понятие языковой личности проанализировано на основе социопрагматического подхода.

Ключевые слова: Языковая личность, социальный статус, социальная роль, прагматическая цель, прагматическая тактика, речевой акт.

LISONIY SHAXS TUSHUNCHASINING SOTSIOPRAGMATIK ASPEKTD A O'RGANILISHI

Annotation

Maqolada lisoniy shaxs tushunchasining sotsiopragmatik aspektida o'rganilishi haqida so'z yuritiladi. Lisoniy shaxsning badiiy matnda voqelanishida ijtimoiy mavqe va ijtimoiy rol muhim ahamiyatga ega. Muloqot jarayonida muloqotga kirishuvchi shaxslar ijtimoiy maqomi va roldan kelib chiqib nutq vaziyatiga mos leksik birliklardan foydalanadilar. Badiiy matnda lisoniy shaxsning voqelanishida kommunikativ maqsadning qo'yilishi, unga mos pragmatik taktika qo'llanilishi muhim omil sanaladi. Lisoniy shaxs tushunchasi sotsiopragmatik yondashuv asosida tahlil qilingan.

Key words: Lisoniy shaxs, ijtimoiy mavqe, ijtimoiy rol, pragmatik maqsad, pragmatik taktika, nutqiy akt

Kirish. Badiiy matnda lisoniy shaxsni sotsiopragmatik aspektida tadqiq etish muammosi tilshunoslikning ikki mustaqil yo'nalishi – sotsiolingvistika va pragmalingvistikaning umumiy masalalari kesishishi natijasida yuzaga kelgan deyish mumkin. Lingvopersonologiya nisbatan yangi soha sifatida tilshunoslikning turli yo'nalishlari, xususan, psixolingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika kabi fanlarni birlashtirib turuvchi lisoniy shaxs tushunchasini tadqiq qiluvchi soha sifatida shakllandi. "Lisonning tizimiy ravishda kontekst bilan bog'liqligini o'rganish pragmatikaning vazifasidir. Turli ijtimoiy maqomga ega bo'lgan shaxslarning turli vaziyatlarda ma'lum pragmatik manbalardan foydalanishi sotsiolingvistik tahlil uchun ham muhimdir [7]. Bundan sotsiopragmatikaning tadqiq obyekti sotsiolingvistika va pragmalingvistikaning kesishgan umumiy masalalari ekanligini anglab olishimiz mumkin.

Sotsiopragmatika mustaqil ilmiy yo'nalishi sifatida dastlab xorij tilshunosligida yuzaga kelgan hamda asosiy e'tibor rasmiy ishbilarmonlik doiralarida og'zaki muloqot jarayonida qo'llaniladigan til birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1983-yilda J. Lich tomonidan til birliklaridan foydalanishga maxsus sharoitlar ta'sir ko'rsatish usullarini aniqlash uchun ushbu atamaning kiritilishi kommunikativ vaziyatda tilni qabul qiluvchiga samarali ta'sir qilish modelini ishlab chiqish bilan boshlangan

edi [8]. Tilshunoslikda lisoniy shaxs sotsiopragmatik aspektida monografik planda o'rganilmagan bo'lsa-da, badiiy matndagi birliklar, xususan, personaj nomlarini qo'llash bilan bog'liq jihatlariga, ya'ni antroponimlarning sotsiopragmatik xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Atoqli otlarning pragmatik imkoniyatlarining ortib borishi, nutqiy jarayondagi o'sish-o'zgarish bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratish lozimligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan [8].

Badiiy matnda qo'llanilgan onomastik birliklar, xususan, antroponimlar personajlarga atab qo'yilar ekan, yozuvchining kommunikativ maqsadining amalga oshishiga ko'maklashadi. Personajlarning lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishida qo'yilgan shu maqsadlarning amalga oshishi muhimdir. O'zbek tilshunosligida yozuvchilarning asar qahramonlariga nom berish bilan bog'liq jihatlar tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan [1], [3]. Badiiy matnda qo'llanilgan onomastik birliklar (onimlar) tadqiqi personajlarning tipologik jihatdan tasnif qilishda quyidagi mezonlar asos bo'lishini ko'rsatadi:

1. Muloqot ishtirokchilarining gender xususiyatlaridagi o'ziga xosliklar
2. So'zlovchi tilidagi milliy mansublikni ko'rsatuvchi belgilar
3. Antropologik xususiyatlar
4. So'zlovchining yosh xususiyatlariga
5. Ijtimoiy maqom.
6. So'zlovchining millati [8]

Tadqiqotlarda kommunikativ akt ishtirokchilarining lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishida turli omillar sabab bo'lsa-da, sotsiopragmatik tahlil jarayonida e'tibor qaratish zarur bo'lgan jihatlar mavjud. Nutqiy muloqot jarayonida kommunikativ akt ishtirokchilari quyidagi nuqtayi nazardan tahlil qilinadi:

1. So'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy mavqeyi.
2. Ularning ijtimoiy roli.

O'zbek tilshunosligida lisoniy shaxs tiplari D.Niyazova tomonidan tadqiq qilingan. Tadqiqotchi O'.Hoshimov asarlari misolida lisoniy shaxs tiplari, ularning ifodalanishida leksik birliklarning o'rni maslasiga e'tibor qaratgan [5]. Badiiy matnlarning sotsiopragmatik xususiyatlari X.Yo'ldosheva tomonidan o'rganilgan bo'lsa, E.A'zam kinoqissalari tilini sotsiopragmatik aspektda M.Xolmurodova tadqiq qilgan [9]. Badiiy matnda lisoniy shaxsning voqelanishidagi omillar xususida ba'zi tadqiqotlarimizda so'z yuritganmiz [10,11,12].

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy matnlarda lisoniy shaxs voqelanishining o'ziga xos xususiyatlari, lisoniy shaxsning sotsiopragmatik aspektda o'rganilishi masalasini yoritishda tavsifiy, tipologik, semantik metodlardan foydalanildi. Diskursiv, sotsiopragmatik tahlil usullaridan yordamida lisoniy shaxsning voqelanishi sotsiopragmatik aspektda ochib berildi.

Tahlil va natijalar. Badiiy matnda lisoniy shaxsning namoyon bo'lishi yozuvchining tildan foydalana olish layoqati bilan birga, kuzatuvchanligi, har bir shaxsga, aniqrog'i, asarda lisoniy shaxs sifatida gavdalanirilib nazarda tutilayotgan personajning ijtimoiy mavqeyi, ijtimoiy rolga qarab tildan qay darajada foydalana olishini ilg'ay olishi bilan belgilanadi. Har bir shaxs ma'lum bir til egasi sifatida ijtimoiy-pragmatik kompetensiyaga ega. Ijtimoiy-pragmatik kompetensiya shaxsda samarali muloqotni amalga oshirish, ma'lum bir kommunikativ vaziyatda ijtimoiy belgilardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Til egasi sifatida muloqotga kirishayotgan shaxs muloqotdan o'zi ko'zlagan maqsadga mos taktikani tanlaydi. Bu taktika muloqot jarayonida tildagi birliklardan mosini tanlashni, bu birlik ifodalashi mumkin bo'lgan yashirin ma'nolarni anglashi, kontekstda shu birlikning ifoda imkoniyatlarini ilg'ay olishishini talab etadi. Hatto tovushlarning talaffuzi ham tanlangan taktikaning amalga oshirilishi uchun xizmat qiladi.

Pragmatikada kommunikativ akt tushunchasiga adresant-adresat-nutq vaziyati-til kodi qolipida yondashilsa, sotsiopragmatik yondashuvda esa unga qo'shimcha axborot ham yuklanadi.

O'zbek tilshunosligida badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi X.Yo'ldosheva tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotda badiiy matnda lisoniy shaxsning sotsiopragmatik xususiyatlari maxsus tadqiq qilinmagan. Ammo tadqiqotchi adresatning matn qabul qilishdagi ijtimoiy maqomlari haqida to'xtalar ekan, "adresat badiiy matnni mutolaa qilish yoki o'qilayotgan matnni eshitishi jarayonida uni idrok qiladi. Bunda u matnni idrok etuvchi shaxs maqomida bo'lib, kitobxon lisoniy shaxsi darajasiga ko'tariladi. Kitobxon lisoniy shaxsi tushunchasi matn yarata olish qobiliyatiga ega bo'lgan hamda yaratilgan matnni o'qib yoki eshitib, uni idrok eta oluvchi shaxsga nisbatan ishlatiladi" deya ta'rif beradi [2].

Badiiy matnda lisoniy shaxsning yorqin namoyon bo'lishida dialoglar muhim ahamiyatga ega. Tilshunos L.Raupova dialogik diskursning sotsial-nutqiy aloqada eng ko'p qo'llaniladigan shakllardan biri ekanligini ta'kidlaydi hamda uning imkoniyatlarini quyidagicha baholaydi: "Dialogik diskursda ifodalilik, ekspressivlik, elliptiklik shakllari ko'rinish turadi. Ular kommunikant dunyosi va xarakterini ochishda, individual obraz yaratishda, ularning ijtimoiy xulqini aniqlashda sotsial-nutqiy xarakteristika hisoblanadi" [6]. Badiiy matnda qahramonning lisoniy shaxs

sifatida namoyon bo'lishida dialoglar muhim ahamiyatga ega. Qahramonning nutq vaziyatida, ko'pincha kutilmagan holatda, notanish kommunikantlar bilan aloqaga kirishuvda uning lisoniy shaxs sifatidagi imkoniyatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

– Boshqasini yaxshi ko'rsang, ayt, qizim? – o'zini ikki-uch kun shu birgina savolni berish uchun tayyorlagan Gulchehra opa qizining xonasiga kira solib so'radi. Chunki biroz hayallasa, to'plab olgan jur'ati nimadir sabab bilan kemtilib qolishidan qattiq cho'chirdi (U.Hamdami). Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, badiiy matnda lisoniy shaxsning voqelanishida personaj qo'llagan gaplarning o'zining keltirish yetarli emas. O'zbek millatiga xos bo'lgan andisha, hayo kabi fazilatlar ona va qiz farzandning to'g'ridan to'g'ri muloqotga kirishuviga yo'l qo'ymaydi. Agar shu o'rinda muallif gapi keltirilmasa, voqelik o'quvchida shubha uyg'otadi, uni ishontira olmaydi. Ona o'zi tarbiyalagan, o'stirgan qizining xarakterini yaxshi biladi, undan osonlikcha sir ololmasligiga ham ko'zi yetadi. Shu sababli o'zini yaqin do'st maqomida ekanligiga ishontirishga harakat qiladi. "Anglaxiladiki, diskurs lisoniy va nolisoniy vositalarning pragmatik "ansambl"i bo'lib, o'zida kommunikantlarning intensional faoliyatini propozitsional mazmun bilan uyg'unlashtirgan holda voqelantiradi. Bu faoliyat esa, o'z o'rnida muloqot intensiyasi, strategiyasi va taktikasi muvofiqi natijasidagi nutqiy "yurish" va nutqiy "qadam"larning yo'nalishini ta'minlaydi" [6].

– Sani kasal qilib o'tirgandan o'shanga berib, kulganingni, odamlardek gapirib yurganingni ko'rganim tuzuk emasmi, qizim!... – ko'ziga yosh oldi ona. Bu o'rinda onaning maqsadi qizining ko'ngli kimda ekanligini aniqlash. Shu maqsadga erishish uchun ona qizini gaplariga ishontirish taktikasini qo'llaydi, kasal qilmoq –kulmoq so'zlarini zidlash orqali ma'noni kuchaytiradi, ta'sir o'tkazish maqsadida ko'ziga yosh oladi. Lisoniy shaxsning voqelanishida lingvistik vositalar bilan birga ekstralingvistik vositalar ham muhim sanaladi. Yozuvchi qahramon nutqida qo'llagan leksik birliklar bilan birga uning ruhiy holatining tasvirini berishi lisoniy shaxsning to'la gavdalanishida vosita bo'lib xizmat qiladi.

– Rostdanmi, oyi?! – dabdurustdan tilga kira qoldi Sabo.

– Rost bo'lmay, yo'g'on bo'larmidi, jon bolam!..Voy! – ko'zyoshlarini salfetka bilan artayotgan Gulchehra opa tuyqusdan to'xtab, go'yo nima voqea yuz berganini endi anglab yetgandek hayajon ila xitob qildi, – Voy, jonim, san gapirdingmi?! (U. Hamdami)

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bir lisoniy shaxs bir paytning o'rnida bir necha ijtimoiy maqomda bo'ladi, bir paytning o'zida bir necha ijtimoiy rollarni bajaradi. Yozuvchining mahorati personaj xarakteridan kelib chiqib uning o'ziga xos xususiyatlarini so'z vositasida ochib berishida, uning o'ziga xos boshqaqlaridan ajralib turadigan nutqini ko'rsatib berishi bilan belgilanadi.

Quyida bir lisoniy shaxsning bir necha ijtimoiy mavqeda lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishini tahlil qilamiz.

– Biz bir oilamiz. Dunyoda oiladan muqaddasroq narsa yo'q. Hamma narsadan voz kechish mumkin, lekin oiladan, uning a'zolaridan, oila oldidagi burchdan, qarzdin bo'yin tovlab bo'lmaydi... (U.Hamdami) Muloqotga kirishayotgan so'zlovchi qo'llagan leksik birliklardan uning qanday ijtimoiy maqomda ekanligini ilg'ash mumkin. So'zlovchi oila boshlig'i, tinglovchilar oila a'zolari. Buni so'zlovchining burch, qarz so'zlaridan anglash mumkin. So'zlovchining pragmatik maqsadi oilaning muqaddas ekanligini uqtirishdan iborat, shuning uchun tanlangan har bir leksik birlik shu maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan. So'zlovchining ijtimoiy maqomi keyingi gaplardan oshkor bo'ladi.

– Biz oying ikkalamiz sizlarni judayam yaxshi ko'ramiz...Bizning kecha-yu kunduz o'ylaganimiz – sizlar! Biz ikkalalaring uchun yashab yuribmiz. Qilayotgan ishlarimiz ham, yig'ib qo'ygan boyligimiz ham, hamma-hammasi sizlarga, sizlar uchun. Ouing bilan nimani rejalashtirmaylik, qanday ishga qo'l urmaylik, hammasi sizlarning kelajaklaringiz, iqbollaringiz uchun!... So'zlovchi erkak, muloqot jarayonida tinglovchi sifatida ayoli va farzandlari ishtirok etyapti. So'zlovchi kommunikativ akti amalga oshirishda o'zining haq ekanligini isbotlashni maqsad qilgan, har bir tanlangan leksik birlik shu maqsadning amalga oshishi uchun yo'naltiriladi. Matnda propozitsional akt ham, so'zlovchining ichki maqsadiga xos illokutiv akt ham mavjud bo'lib, so'zlovchining, bu o'rinda otaning nutqidan anglashilgan propozitsiya o'g'il va qizga, illokutiv akt esa qizi Saboga qaratilgan. Bu o'rinda nutqiy shartnoma nasihat shakliga asoslangan.

Nutqiy aktning amalga oshirishining yashirin va oshkora usuli bo'lib, quyida oshkora amalga oshirilgan:

– Mani xarob qilma, qizim! Oyog'ingga yiqilib so'rayman!... – kutilmaganda Saidkamol aka Saboning qarshisiga tiz cho'kdi... “Potaha” bo'gan, qudamiz hazilakam odam emas, uyimizni kuydiradi-yu!.. Mani o'ylamasang ham akangni, oyingni o'ylasang-chi, bolaginam!.. – Saidkamol akaning ovozi titrab, ko'zlariga yosh qalqdi...

– Yo'q, qizim, adangning hayotini, erkaklik sha'nini xarob qilmayman deb qasam ichsangina turaman! Bo'lmasa, ota bo'lib qaysi yuz bilan ko'chaga chiqaman!..

Nutqiy akti amalga oshiruvchi lisoniy shaxs bu o'rinda ota ijtimoiy maqomida. Tabiiyki, uning ijtimoiy maqomi farzand oldida yuqori. So'zlovchi ta'sir aktini amalga oshirish uchun o'zini ijtimoiy jihatdan past maqomda tutadi va shu orqali ta'sir ko'rsatish maqsadini amalga oshiradi. Ya'ni, nutqiy aktdan ko'zlangan maqsad qizini ko'ndirish akti amalga oshadi.

– Bas! Ahmoq! – jahl bilan stolni mushtladi Saidkamol aka. – Og'zim bor, deb, valdirayverasanmi? Tupurdim sanlani o'sha muhabbatingga! Nima u, qorningni to'ydiradimi? Mani qizim nima yeb, nima kiyib kotta bo'ganini bilasanmi, san yalangoyoq?! Saboning kiyadigan bitta ko'yilgiga yetarmikan sani bir oy dars berib topgan moyanang, o'qib uqmagani xomkalla! Kecha poyezdga osilib kelib, bugun vazirning qiziga uylanaman deysan! Sani asl maqsadingni bilib turibman-u turishingdan! Sanga o'xshaganlarga aslida qurug'idan kerak, qurug'idan!... To'g'ri topdimmi ichingdagini?... Aytolmay yurgan darding shumidi? Qancha so'raysan, ayt! Og'zingga siqqanini aytaver, uyalma! Ellik ming yetadimi? Mana, hozir chek yozib beraman (U.Hamdam) Keltirilgan matnda lisoniy shaxsning namoyon bo'lishida adib bir necha omillardan foydalangan. So'zlovchining ijtimoiy maqomi bu o'rinda tinglovchidan ancha yuqori. Mansab (vazir), qo'li uzunlik (qurug'i, ellik ming, chek) shaharlik (kotta, poyezdga osilib kelib) yosh jihatdan katta (man, san) ekanligi adresatga nisbatan o'zini yuqori qo'yish, uni kamsitish, o'rnini bildirib qo'yish, ko'zini ochib qoyish kabi maqsadlarni ko'zlangan adresant lisoniy shaxsini gavdalantirishda yozuvchi leksik vositalardan unumli foydalangan. Leksik birliklarning fonetik jihatdan o'zgarishga uchrashi uning qaysi dialekt vakili ekanligini ham ko'rsatadi, bir paytning o'zida lisoniy shaxsning ijtimoiy maqomi va ijtimoiy roli haqida tasavvur paydo bo'ladi. Bu asar tilining ishonarli, jonli chiqishini ta'minlagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda lisoniy shaxsning namoyon bo'lishida uning qanday ijtimoiy maqomda ekanligini inobatga olish muhim sanaladi. Lisoniy shaxsning to'laqonli gavdalanishi, uning boshqa lisoniy shaxslardan ajralib turishi ijtimoiy roliga mos til birliklaridan foydalanishini ta'minlash yozuvchining tildan foydalanish mahorati bilan belgilanadi. Badiiy matnda lisoniy shaxs sotsiopragsmatik aspektda tadqiq qilish til–jamiyat–shaxs munosabatini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик бирликларнинг лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2017 – Б. 140.
2. Yo'ldasheva X. Badiiy matnning sotsiopragsmatik tadqiqi. Filol. fan. dok (DSc) diss. avtoref. – Qarshi, 2023. –70 b.
3. Ёўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дисс... – Тошкент, 2009. – 314 б
4. Кўчибоев М. Матн прагматикаси. – Самарканд, 2015.
5. Ниязова Д. Бадий матнда лисоний шахс типлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс автореф. – Қарши, 2020.
6. Раупова Л. Диалогик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи. Фил. фан.док.дисс. автореф. – Тошкент, 2012.
7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008.
8. Шевичерина О.В. Социопрагматический подход к исследованию литературных онимов. Ученые записи. 2018. Т.27.
9. Холмуродова М. Эркин Аъзам киноқиссалари тилининг социопрагматик аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Андижон, 2021
10. Umurzakova M.E. Types of linguistic personality in the literary text (on the example of Ulugbek hamdam's stories) https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=w6qGLxUAAAAAJ&citation_for_view=w6qGLxUAAAAAJ:WF5omc3nYNoC
11. Umurzakova M. The age factor in the formation of a linguistic personality
12. https://www.researchgate.net/publication/361667526_The_age_factor_in_the_formation_of_a_linguistic_personality?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InByb2ZpbGUiLCJwYWdlIjoicHJvZmlsZSI9fQ
13. Umurzoqova M. Lisoniy shaxsni belgilashda dialektal omil. https://www.researchgate.net/publication/369857415_Dialektal_omil



Barno USMANOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: usmonbarno

Tarix fanlari doktori (DSc) D.Qurbonova taqrizi asosida

COVERAGE OF FINE ART ISSUES ON UZBEKISTAN TELEVISION

Annotation

In the period of independence, fine art is developing on an unprecedented scale. Today, the work of representatives of the visual arts of Uzbekistan is becoming popular not only in the country, but also in far and near foreign countries.

Key words: TV of Uzbekistan, shows, channel, artist, visual arts, ability, talent, concept, audience.

ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА НА ТЕЛЕВИДЕНИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В период независимости изобразительное искусство развивается небывалыми масштабами. Сегодня творчество представителей изобразительного искусства Узбекистана становится популярным не только в стране, но и в дальнем и ближнем зарубежье.

Ключевые слова: ТВ Узбекистана, шоу, канал, артист, изобразительное искусство, способность, талант, концепция, аудитория.

O‘ZBEKISTON TELEVIDENIESIDA TASVIRIY SAN’AT MASALALARINI YORITILISHI

Annotatsiya

Mustaqillik davrida tasviriy san’at misli ko‘rilmagan miqyosli rivojlanmoqda. O‘zbekiston tasviriy san’ati vakillari ijodi bugun nafaqat mamlakatda, balki uzoq va yaqin xorij davlatlarida mashhur bo‘lib bormoqda.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston televideniyesi, ko‘rsatuvlar, kanal, rassom, tasviriy san’at, qobiliyat, iste’dod, konsepsiya, tomoshabin, metod.

Kirish. Zamonaviy tasviriy san’at sohasidagi jarayonlar va muammolarning yechimida va ularni auditoriya ongiga singdirishda televideniening o‘rni beqiyos. 2022-yilning 20-dekabr kuni Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida - “Farzandlarimizni kasb-hunarlariga, san’at va madaniyatga qiziqtirishimiz lozim” [1] – deb takidlab o‘tdilar. Bugungi kun yosh avlodni san’at va madaniyatga qiziqtirishni eng katta vositasi bu televidenie hisoblanadi. Ma’rifatni targ‘ib qilish, fikrlashga undash-fikr paydo bo‘lishiga yordam berish, Jurnalistikaning eng asosiy vazifalari hisoblanadi [2]. Hozirgi internet rivojlangan davrda ekran oldiga tomoshabinni “mixlab” olib o‘tirish esa jurnalistdan katta mahorat, bilim talab qilinadi. Hozirgi integratsiyalashuvda Televideniya ko‘rsatuvlarining ta’sirchanligini oshirish – bosh masala.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridagi televideni rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini zamonaviylashtirish, teledasturlarda milliy-ma’naviy merosimiz, aholini qiynayotgan muammolarni keng yoritish, mamlakatning barcha hududlarida raqamli teleuzatish stansiyalarini barpo etish bilan bog‘liq fikrlar, [3] O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ifodalangan ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga oid konseptual g‘oyalar bilan bayon qilingan.

O‘zbekiston televideniyesi tarixi va ijodiy faoliyati bo‘yicha jurnalist, san’atshunos, tilshunos, teatrshunos va tarixchi olimlarning ilmiy, nazariy tadqiqotlari va maqolalari diqqatga sazovordir. Bu borada uning ayniqsa tarbiyaviy ahamiyatga ega jihati, tarixiy va ijodiy jarayoni qiyosiy o‘rganilib, umumiy va o‘ziga xos xususiyati ochib berilgan. Mualliflar manbalarni o‘rganish asosida televideniening tarixini, taraqqiyot bosqichlarini tiklashga muvaffaq bo‘lishgan.

O‘zbekistonda televidenie faoliyati, telejurnalistika sohasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, teledasturlarning mazmun-mundariyasi, ularda ko‘tarilayotgan muammolar, bugungi auditoriya talabi, televidenie va tomoshabin munosabatlari, efirga uzatilayotgan ko‘rsatuvlarda badiiy mahorat masalalari bir qator jurnalistlar, tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ularni umumlashtirgan holda to‘rt guruhga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruhdagi tadqiqotlarga san’atshunoslar, filologlar, psixologlar, sotsiologlar, tarixchilar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarni kiritish mumkin. Bu borada O.Sultonovning O‘zbekiston televideniyesi kulgusida san’at (tarkib topishi va rivojlanishi) [4], I.Raxmatullayevaning O‘zbekiston Respublikasi televideniyesi yoshlar dasturlari (badiiy mahorat muammolari) [5], Fayziyeva F. O‘zbekiston badiiy televideniyesi shakllanishi (1956-2002-yillar) [6], dissertatsiya ishlarida O‘zbekiston televideniyesi dasturlarining badiiy, psixologik jihatlari, television miniatyura va yoshlar dasturlari masalalari o‘rganilgan.

Ikkinchi guruhdagi tadqiqotlarga televideniening o‘ziga xos xususiyatlari, telejurnalistlar faoliyatiga bag‘ishlangan badiialar, ocherklar, risolalar to‘plamlar va boshqa kitoblar kiradi.

Bu borada A.Imomxo‘jayev [7], J.Abdullaxonov [8], S.Tursunov[9], F.Mo‘minov [10], H.Haydarov [11], O‘O‘tayev [12], M.Obidovlarning [13] kitoblarini ta’kidlash lozim. Ularda respublika va hududiy telekanallar faoliyati bilan bog‘liq umumiy jihatlari o‘rganilgan. Badiyalarda televideniya ijodiy jarayonlar badiiy talqinda bayon etilgan.

Uchinchi guruhdagi tadqiqotlarga 1991-2016-yillardagi davriy nashrlarda jurnalistlar, markaziy va hududiy telekanallarda mas’ul rahbarlik vazifalarida ishlagan ijodkorlar tomonidan e’lon qilingan maqolalarni kiritish mumkin. Bu jihatdan A.Karimovning [14] Davr bilan hamnafaslik,

Z.Hakimovning Milliy televidenie va radio modeli [15], Z.Ibrohimovning Ko'rsatuvlar markazida [16], A.Ko'chimovning XXI yuz yillik televidenie asri bo'lajak! [17], N.Saidxonovning TTV nigohida [18], O.Toshboyevning "O'zbekiston" telekanali: yangilanish nafasi [19], F.Ro'ziyevning ilk qadamlar [20], P.Allambeganovning Televidenie kundalik hayotini, turmush tarzini aks ettiradigan oyna [21], Q.Aripovning Ko'chma televizion stansiyalar [22] kabi ilmiy maqolalari televideniening kelajagini prognoz qilishga yordam beradigan manbaa bo'lib xizmat qiladi. Aynan ular O'zbekistonda televideniening rivojlanirish jarayonida bevosita ishtirok etganlar.

To'rtinchi guruhdagi tadqiqotlar sifatida xorijlik ekspertlar, tadqiqotchilarning ilmiy ishlari, maqolalarini ko'rsatish mumkin. Televideniening tarixi va rivojlanish tendensiyalari E.Bagirov [23], B.Borisov [24], P.Burde [25], V.Berezin [26], N.Golyadkin [27] kabi ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Shu o'rinda L.Levitin [28] I.Xiroyuki [29], kabi xorijlik ekspert va tadqiqotchilarning O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari, jumladan, televidenie rivojiga bo'lgan munosabati e'tiborga molik.

Tadqiqot metodologiyasi. Nazariya, ilm-fan sohasi shakllanishda, birinchidan, barcha ilmiy izlanishlar uchun umummetodologik ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy-gnosologik metodlarga tayanadi va ikkinchidan, o'z sohasiga oid metodlarni ishlab chiqadi. Ushbu qoidadan kelib chiqib T.Mahmudov va V.Petrov birinchisiga kompleks-tizimli yondashuv, san'atning shaxsga ta'siri jarayonlarini aniqlashtiruvchi, ijod mexanizmlarini, san'atkorning asosiy estetik pozitsiyasi, ijod jarayonlari bosqichlarini aniqlashtirishga qaratilgan metodlarini kiritadilar Ha, san'at asarlarini, ayniqsa murakkab va serqirra badiiy ijodni tahlil qilganda kompleks, tizimli yondashuv muhim ahamiyatga ega. Biz ushbu yondashuvlarni san'at jurnalistikasi uchun ham zarur metod deb hisoblaymiz. Ammo jurnalistlarning "san'atning shaxsga ta'siri jarayonlarini aniqlashtirish" yoki "ijod jarayonlari bosqichlarini aniqlashtirish" degan fikri umumiy yo'nalishga egadir. Shuning uchun ularni konkret olgan har bir soha, o'zining immatent qonuniyatlari va belgilaridan kelib chiqib, o'zlari aniqlashtiradi. Shu bilan birga tadqiqotchilar san'atning estetik tahliliga oid ikkinchi guruh (xususiy)ga prognostik va modernizmni ilmiy tanqidiy tahlil qilishga qaratilgan metodlarni kiritadilar [30] Махмедов Т., Петров В. Вопросы методологии эстетического анализа искусства. – Т.:Фан, 1984.-С.78.

Ular aniqlashtirgan metodlarga san'at asarlarini estetik tahlili (son va sifat o'lchovi, mazmun tahlili, information va psixologik yondashuvlar, statistik usul va boshqalar), deduktiv va induktiv (umumlashtirish, tahlil, xulosaga kelish, nazariy fikrlarni ilgari surish, faraz qilish, tizimli-evolutsion tahlil, modellashtirish va boshqalar) usullarni kiritishadi. O'zbek jurnalistikasida bunday yondashuv va o'lchovlar ilk bor tatbiq etilgani bilan e'tiborlidir. San'at jurnalistikasi T.Mahmudov va V.Petrov taklif etgan va asoslangan metodlarni o'ziga tatbiq etishi zarur.

San'at-jurnalistining keng ma'nodagi ob'ekti-badiiy borliqdir. Uni tadqiqotimizni tizimlashtirish va soddalashtirish maqsadida bir-biriga dialektik bog'liq uch pog'onaga ajratishimiz mumkin.

Jamiyatning badiiy madaniyati (yuqori pog'ona)

Badiiy faoliyat (o'rta pog'ona)

Musavvirning ijodi (boshlang'ich pog'ona)

San'at-jurnalistikasining ijtimoiy voqelik, jamiyatning strategik maqsadi bilan bog'liqligi uni yuqori pog'onadagi badiiy madaniyatni o'rganishga da'vat etadi. Jamiyatning

badiiy madaniyati yuqori pog'onadagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, xato xalqaro munosabatlar tizimlari bilan integrative aloqalarga kirishib, o'rta va boshlang'ich pog'onalar uchun maqsad va vazifalar beradi, shu tariqa ularni bir-birlariga hamda o'ziga, jamiyatga tizimli bog'laydi. Mazkur bog'lanishning immanent qonunlari va xususiyatlari san'at-jurnalistikasining predmeti hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Publistikada ocherkdek muallifdan katta iste'dod, mahorat, ijod talab qiladigan boshqa janr bo'lmasa kerak. Ocherk-publistikaning telekranda uchraydigan eng murakkab janri hisoblanadi. Bu janr real hayotning, konkret shaxsning yozuvchi, publitsis tomonidan estetik mushohada qilingan aksidir. Xujjatli ocherkda voqea hayotda qanday sodir bo'lgan bo'lsa, xuddi shunday-ortiqcha badiiy to'qimasiz qayta tiklanadi. Obrazlar biroz tipiklashtiriladi, xarakterlar badiiy tashbehlar yordamida shirin til bilan yaratiladi. Ocherk kompozitsiyasi janr xususiyatlari bo'yicha dramatic asarning ichki tuzilishiga yaqin hisoblanadi [12]. Amrullo Karimov va boshqalar., Audiovizual jurnalistika VI jild. "O'zbekiston" NMIU, 2019. 265-266 b.

Badiiy jamoalar direksiyasi O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshida 1987-yilda tashkil etilgan bo'lib, shu yillardan boshlab tavsiriy san'atga oid ko'rsatuvlar efir yuzini ko'ra boshlagan. 1979-yilda efigra uzatilgan, O'zMTRK xazinasida saqlanayotgan, Ro'zi Choriyevga bag'ishlangan ko'rsatuv diqqatga sazovordir. Ko'rsatuvda hech qanday ovoz yo'q. O'zbek milliy musiqasi ostida rassom hayoti gaudalanadi. Bizga ma'lumki Ro'zi Choriyev O'zbekiston tavsiriy san'atida portret janri otasi hisoblanadi. Shu kungacha u kabi ko'p portret yozgan musavvir yo'q O'zbekistonda. Rassomning asar ustida ishlashidan tortib to u asarni ko'rgazmaga namoyish etgunicha bo'lgan jarayon bayon etilgan. Ushbu ko'rsatuvda rejissyor mahorati ochib berilgan.

1993-yilda efir yuzini ko'rgan yana bir ocherk ko'rsatuv O'zbek Pikassosi nomi bilan mashxur Chingiz Axmarovdir. Rassomga bag'ishlangan ko'rsatuv yuqorida sanab o'tilgan metodlarning tarixiylik metodiga tayanib, badiiy ijod va asarning genezisini, ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini, tasviriy san'atga qo'shgan xissasini yoritib beradi. San'atshunos jurnalist fikrini, tahlilini, yondashishni faktga bog'lab olib boradi.

1997-yili O'zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil etilgandan so'ng, Akademiya bilan hamkorlikda rassomlar ijodiga televideniada yangicha yondashuv paydo bo'ldi. Endilikda rassomlarning nafaqat ijodi o'rganildi, balki san'atshunoslar rassomlar, qahramonning shogirdlaridan ham intervyu olinadigan bo'ldi. Tavsir va taassurot turkum ko'rsatuvlari nafaqat O'zbekiston tasviriy san'ati haqida yana jahon tasviriy san'atiga ulkan hissa qo'shgan rassomlar haqida ham tayyorlangan [000] O'zMTRK xazinasidan.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Teleradiokompaniyasi kanallarida tasviriy san'atga oid efigra uzatiladigan ko'rsatuvlar talaygina. "Manaviyat va ma'rifat" "O'zbekiston tarixi" kanallari bu yo'nalishda ayniqsa yetakchi hisoblanadi. Lekin efir vaqtini tomoshabin ko'radigan pik time vaqtiga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Tasviriy san'atga oid ko'rsatuvlarga jurnalist rangtasvir ko'zi bilan qarashi kerak. Ya'ni kadrlarda rassom elementlari bo'lishi maqsadga muvofiq! Oddiy rassom emas, iqtidorli, mazmunli kartinalar bilan ishlagan rassom nazarda tutilyapti.

2. Davr(zamon) kontekstini hisobga olish kerak.

3. Rejissyor ishora qilgan mavzuning ahamiyati va qancha umr ko'rishini ham hisobga olish kerak.

5. tasviriy san'at haqida rasmiy kommentariylarni kuzatish kerak.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga MUROJAATNOMASI. Yangi O'zbekiston gazetasi. № 259 (781), 2022- yil 21- dekabr, chorshanba
2. Nurmatov A., Do'stqoraev B., Mo'minov F., Saidov H., Toshpo'latova N., Maxsumova S. Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti. J.1:-Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. - 71 b.
3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: O'zbekiston, 2017.-492-498 b.
4. Sultonov O. O'zbekiston televideniyesida kulgu san'ati (tarkib topishi va rivojlanishi) San'atshunoslik fanlari nomzodi...dis. Avtoreferati.-T., 2005.-20-b.
5. I.Raxmatullayevaning O'zbekiston Respublikasi televideniyesida yoshlar dasturlari (badiiy mahorat muammolari). San'atshunoslik fanlari nomzodi...dis.avtoreferati.-T.,2007-29b
6. Fayziyeva F. O'zbekiston badiiy televideniyesining shakllanishi (1956-2002-yillar). San'atshunoslik fanlari nomzodi...dis.avtoreferati.-T.,2009-20 b
7. Imomxo'jayev A. Futbol-quvonchim, dardim, faxrim.-T.:Sharq, 1996
8. Abdullaxonov J. Hayot adab vasl ayyomidir-T.: Yangi asr avlodi MRC-Tashkent
9. Tursunov S va boshqalar. Surxondaryo tarixi. T.:Sharq, 2004
10. Mo'minov F va boshqalar. Internet-jurnalistika (Internetda radio va televidenie). Maqolalar to'plami- T.: MRC-Tashkent.: 2005
11. Haydarov H, Usmonov Q. Jizzax tarixi-T.: O'qituvchi. 2009
12. O'tayev O'. Televidenie-davr ko'zgusi. T.:O'zbekiston. 2010
13. Obidov M. Farg'ona jurnalistikasi. T.:Sharq, 2009
14. Karimov A. Davr bilan hamnafaslik. O'zbekiston matbuoti.-1994.-№6
15. Hakimov Z. Milliy televidenie va radio modeli. Xalq so'zi-1996. – 1-iyun (№ 109)
16. Ibrohimov Z. Ko'rsatuvlar markazida. O'zbekiston matbuoti. -1997. №5
17. Ko'chimov A. XXI yuz yillik televidenie asri bo'lajak! O'zbekiston matbuoti. -1999. №4
18. Saidxonov N. TTV nigohida. O'zbekiston matbuoti. -2004. №6
19. Toshboyev O. "O'zbekiston" telekanali: yangilanish nafasi. O'zbekiston matbuoti. -2005. №5
20. Ro'ziyev F. Ilk qadamlar. O'zbekiston matbuoti. -2005. №1.
21. Allamberganov P. Televidenie kundalik hayotni, turmush tarzini aks ettiradigan oyna. Qoraqalpog'iston tongi. – 2013. – 27-iyun (№28-29).
22. Aripov Q. Ko'chma televizion stansiyalar. Sado. – 2014. 3-aprel (№ 14)
23. Багиров Э.Г. Очерки истории телевидения. – М.: Изд-во Моск. Ун-та, 1978. С.182.
24. Борисов Б.Л. Реклама и публик рилейшнз. Алхимия власти. – М., 1998. С.138.
25. Бурде П. О телевидении и журналистике. – М.: Ин-т экспериментальной социологии, 2002.- С. 159
26. Березин В.М. Массовая коммуникация; сущность, каналы, действия. – М.:Рип-холдинг, 2003.- С.174
27. Голядкин А.Н. История отечественного и зарубежного телевидения М.: АСПЕКТ ПРЕСС, 2011.
28. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T.:O'zbekiston, 2001.
29. Xiroyuki I. Teleauditoriyalar qiyosi. O'zbekiston matbuoti. 2007.- №5.
30. Махмедов Т., Петров В. Вопросы методологии эстетического анализа искусства. – Т.:Фан, 1984.-С.78.



UDK: 41+7.036.0

Oybek XOLMATOV,

Farg‘ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasida tayanch doktranti

E-mail: oybekumarovich95@gmail.com

Andijon davlat universiteti dotsenti, fil.f.d. M.Tojiboyeva taqrizi asosida

INTERPRETATIONS OF THE AFGHAN WAR IN UZBEK MILITARY PROSE

Annotation

This article scientifically studied the interpretation of the Afghan war in modern Uzbek military prose on the example of the works of various writers. This article uses scientific sources that have researched issues related to the topic. In the course of the analysis, examples were given from the literary text of the works and the ideas were substantiated. At the end of the article, the results obtained through the analysis are summarized.

Key words: Military prose, the theme, "lost generation", interpretation, motive, hero, comparative method, analysis.

ИНТЕРПРЕТАЦИИ АФГАНСКОЙ ВОЙНЫ В УЗБЕКСКОЙ ВОЕННОЙ ПРОЗЕ

Аннотация

В статье исследуется трактовка афганской войны в современной узбекской военной прозе на примере произведений различных писателей. В статье использованы научные источники, исследовавшие вопросы, связанные с данной темой. В процессе анализа приводятся примеры из художественного текста произведений и обосновываются идеи. В конце статьи подведены итоги анализа.

Ключевые слова: Военная проза, тема, "потерянное поколение", интерпретация, мотив, герой, сравнительный метод, анализ.

O‘ZBEK HARBIY PROZASIDA AFG‘ON URUSHI TALQINLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o‘zbek harbiy prozasida afg‘on urushining turli yozuvchilar asarlari misolida talqin qilinishi masalasi tadqiq etilgan. Maqolada mavzuga aloqador masalalar tadqiq etilgan ilmiy manbalardan foydalanilgan. Tahlillar jarayonida asarlarning badiiy matnidan misollar keltirilib, fikrlar dalillangan. Maqola yakunida tahlillar orqali olingan natijalar xulosalangan.

Kalit so‘zlar: Harbiy proza, mavzu, "yo‘qotilgan avlod", talqin, motiv, qahramon, qiyosiy metod, tahlil.

Kirish. XX asr o‘zbek prozasida urush mavzusi salmoqli o‘ringa ega. Bu borada ikkinchi jahon urushi va afg‘on urushi ifodalangan harbiy proza namunalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi jahon urushi mavzusida Oybekning "Quyosh qoraymas", Abdulla Qahhorning "Oltin yulduz", Shuhratning "Shinelli yillar", Ibrohim Rahimning "Chin muhabbat", Said Ahmadning "Ufq", Odil Yoqubovning "Izlayman", O‘tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" kabi qissa va romanlari yaratilib, ularda urush davri qiyinchiliklari, urushning jamiyat va xalq boshiga solgan kulfatlari bilan bir qatorda front va front ortida ko‘rsatilgan qahramonliklar tasvirlangan. Bu mavzudagi harbiy proza namunalarini S.Mamajonov, N.Bekmirzayev, U.O‘ljaboyev kabi olimlar tadqiq etganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Afg‘on urushi mavzusida yozilgan asarlar orasida O‘tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani alohida ahamiyatga ega. Ushbu asarda afg‘on urushi va qatag‘on siyosati bilan bog‘liq voqealar aks ettirilgan. Said Ahmad o‘zining "Ijod va jasorat" deb nomlangan O‘tkir Hoshimov ijodi haqidagi maqolasida "Tushda kechgan umrlar" romaniga quyidagicha baho beradi: "Romanni loqayd – hayajonsiz o‘qib bo‘lmaydi. U kitobxonni larzaga soladi. Xalq boshiga kulfatdan boshqa narsa solmagan qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil-dilidan qarq‘ish yog‘diradi" [1]. "Tushda kechgan umrlar" romani mavzu va g‘oya jihatidan XX asrning birinchi yarmida G‘arb adabiyotida keng tarqalgan "yo‘qotilgan avlod" yo‘nalishidagi asarlarga yaqin turadi. Bu o‘xshashlik yozuvchilarning insonparvarlik, patsifizm g‘oyalarini ilgari surgani, urush fojialarini tipik obrazlar vositasida realistik tarzda tasvirlangani

bilan belgilanadi. G‘arb yozuvchilarining birinchi jahon urushi mavzusidagi asarlarini o‘rganish orqali o‘zbek harbiy prozasini ilmiy tadqiq etish borasida ham yangi bosqichga qadam qo‘yish, qiyosiy adabiyotshunoslik masalalarini yanada boyitish mumkin. "Yo‘qotilgan avlod" mavzusidagi romanlar birinchi jahon urushi bilan bog‘liq obrazlar taqdirini aks ettiradi. Mavzu va g‘oya jihatidan, muallif talqini va munosabati jihatidan bu asarlar o‘zbek yozuvchilarining "afg‘on" mavzusidagi asarlariga o‘xshab ketadi. Shu sababli o‘zbek harbiy prozasida afg‘on urushi talqini masalasini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

"Yo‘qotilgan avlod" yo‘nalishidagi asarlarning qahramonlari haqida rus tadqiqotchisi Y.V.Staroverova shunday fikr yuritgan: "Barcha "yo‘qotilgan avlod" qahramonlariga xos umumiy xususiyat shundan iboratki, ular doimiy ravishda o‘zlarining nima uchun urushda qatnashganliklarini anglashga intiladilar. Bu obrazlar asar davomida shaxs sifatida o‘zib boradilar, oxir-oqibat o‘zlarining iqtisod va siyosat manfaati uchun qurbon bo‘lganlarini anglab yetadilar" [2]. Staroverova tomonidan "yo‘qotilgan avlod" qahramonlariga berilgan tavsif o‘zbek nasrida afg‘on urushi mavzusida yaratilgan asarlardagi personajlarga ham mos keladi. Bu esa o‘zbek harbiy prozasida ham "yo‘qotilgan avlod" adabiyotiga xos elementlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek harbiy prozasida afg‘on urushi mavzusi ham katta o‘rin tutadi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda bu mavzudagi asarlar keng miqyosda yaratildi. Jumladan, O‘tkir Hoshimovning "Nega, nega-a-a?!" hikoyasi va "Tushda kechgan umrlar" romanida

afg'on urushida behuda qurbon bo'lgan insonlarning fojiali taqdirini bayon etdi. Undan tashqari, Abdurashid Normurodovning "Qonli yo'rgaklar", "Qon hidi" asarlari, G'afur Po'latovning "Xerirud faryodi" harbiy-dala romanida ham afg'on urushi fojialari tasvirlanadi. Ushbu asarlarga xos umumiy xususiyat fojiviyligining ustunligidir.

Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi asarlarning ko'pchiligida, vatanparvarlik, qahramonlik g'oyalari ustun tursa, afg'on urushi mavzusida yozilgan barcha asarlarda tragik pafos yetakchi o'rinda turadi. Chunki bu urush mohiyat jihatdan ikkinchi jahon urushidan farq qilardi. Ikkinchi jahon urushi ham katta fojia va kulfatlarga sabab bo'lgan, lekin unda qatnashgan o'zbek jangchilari vatan himoyasi yo'lida jang qilgandilar. Shu tufayli ham ikkinchi jahon urushi haqidagi asarlarda qahramonlik ruhi yetakchilik qiladi. Afg'on urushi esa yurt ozodligi uchun emas, Sovet hukumatining siyosiy rejalarini uchun xizmat qildi. Shu tufayli ham afg'on urushi mavzusidagi asarlarda qahramonlik emas, fojiviyligining ruhi yetakchi xususiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani qahramonlariga bosh qahramoni Rustam urushdan tirik qaytgan bo'lsa-da, urush qoldirgan asorat ta'sirida yashadi. Urush uning dunyoqarashiga ham, ruhiyatiga ham, salomatligiga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazdi. O'zi sevgan kursdosh qizi Shahnozaga uylangan bo'lsa ham, ikkisinining o'rtasida muhabbat bo'lsa ham, ular baxtli bo'la olishmaydi. Bu baxtsizlikning asosiy sababi esa urushning salbiy ta'siridir. Rustamning o'ta jizzaki, asabiy bo'lib qolishi, adolatsizlikka duch kelganda o'zini bosolmay qolishi, jahli chiqqanda vahshiylik ketishi kabi psixologik holat tasvirlari buni dalillaydi. Sobiq jangchining urushdan uyga qaytgandan keyin ham ketma-ket adolatsizliklar, nohaqliklarga guvoh bo'lishi, ayolining baxtsizligiga o'zini aybdor his etish singari omillar oxir-oqibat Rustamning fojiali o'limiga sabab bo'ladi.

Romandagi urush va inson talqini ifodasida Xayriddin obrazi alohida o'ringa ega bo'lib, u bevaqt qurbon bo'lgan yosh askarlarning turli toifalariga xos xususiyatlarni o'zida birlashtiradi. O'tkir Hoshimov afg'on urushining halokatli ta'sirini Rustam bilan birgalikda Xayriddin obrazi orqali ham bayon etadi. Xususan, asarda Xayriddin tilidan urushga quyidagicha ta'rif beriladi: "...Urush teskari haqiqat degani ekan. Odam bo'lg'ing kelsa, shafqatsiz bo'l. O'lg'ing kelmasa, o'ldir"[3,100]. Urushning adolat va haqiqat tamoyillariga mutlaqo to'g'ri kelmasligi ushbu jumalarda qahramonning xulosasi fonida ifodalangan. Bu orqali muallifning ham urush haqidagi o'z qarashlari badiiy ifodasini topgan. Shuningdek, Xayriddinning o'limi tasviri ham o'ziga xos holatda tasvirlangan. Muallif ushbu qahramonni jang paytida odatiy tarzda o'q tegishi yoki snaryad portlashidan halok bo'lishini tasvirlamaydi. Aksincha, Xayriddinning o'limi jarayoniga ramziy ma'no yashiradi. Ya'ni Xayriddin o'z tug'ilgan kunida dushman tomonida jang qilayotgan o'zbek jangarisi tomonidan o'ldiriladi. Tug'ilgan kunidagi o'lim qahramon taqdirining fojiviyligini ko'lamini yanada kuchaytiradi. Undan tashqari, hayotdan hech narsa topishga ulgurmay yosh qurbon bo'lganligini ta'kidlaydi. Xayriddinning o'z millatdoshi tomonidan o'ldirilishi esa nafaqat urushning g'ayriinsoniy mohiyatini, bir millat vakillarini ikki dushman qutbga bo'lib yuborgan mustabid tuzumning halokatli ta'sirini anglatadi.

Romanda Rustam va Xayriddin obrazlari orqali afg'on urushi ishtirokchilarining taqdiri aks ettirilgan bo'lsa, komissar Soat G'aniyev obrazi va uning o'tmishi tafsilotlari orqali muallif Sobiq Itifoq hukumatining bir necha bosqichda olib borgan qatag'on siyosatini tasvirlaydi. Adabiyotshunos olim Abdug'ofur Rasulov romanda Soat G'aniyev obrazining qo'llanilishi haqida quyidagicha fikr bildiradi: "O'tkir Hoshimov bir vaqtlar ko'klarga ko'tarilgan komissar-hukumat va partiyaning suyangan tog'ini salbiy tip sifatida talqin etdi.

Komissar xarakterida Sho'ro tuzumi tarbiyalagan barcha xususiyatlar aks etgan"[4,67]. Komissarning ruhiy holatini ifodalovchi ichki nutq tasvirlarida bu obrazning xarakter xususiyatlari aniq ko'rinadi. Soat G'aniyevning barcha narsadan gumonsirash, hammaga dushman sifatida qarash kabi munosabatlari fonida "chekistcha tarbiya"ning salbiy oqibatlari bayon etiladi. Shu xususiyatlariga ko'ra komissar G'aniyev umumlashma obraz hisoblanadi.

Afg'on urushi fojialarini aks ettirishda Abdurashid Normurodov alohida faollik ko'rsatgan. Yozuvchining "Qonli yo'rgaklar" va "Qon hidi" asarlari buning dalilidir. Xususan, "Qonli yo'rgaklar" asarida muallif afg'on urushi ishtirokchilari bilan yuzma-yuz suhbat quradi. Ularning urushda ko'rgan-kechirganlarini bo'yab-bejamay, qanday bo'lsa shundayligicha keltiradi. Bu uslubda yaratilgan asarlarni sof badiiy asar deb hisoblash bahsli masala. Chunki bu asar aniq syujet liniyalari va muayyan obrazlar tizimiga ega emas. Unda muallif va ko'plab urush ishtirokchilarining o'zaro suhbatlari alohida-alohida berilib, bir kitobga jamlangan. Asarda badiiylikdan ko'ra hujjatlik xususiyati ko'proq. Biroq, hujjatli prozada ham muallif shundayligicha protokol usulidan foydalanmaydi. Har bir suhbatdoshining hikoyasi orqali urush dahshatlari, uning inson ruhiyatiga ta'siri masalalarini aks ettiradi. Bu borada o'zbek harbiy prozasi o'z maktabi va an'alariga ega. Xususan, N.Safarov, A.Rahmat, M.Ismoiliy, Nazarmat, S.Qodirov, L.Ergashev kabi yozuvchilar ham urush ishtirokchilari haqidagi asarlar yaratib, faktlar bilan birgalikda davr obrazini, urush va tinchlik masalalarini aks ettiradilar. Adabiyotshunos N.Bekmirzayev bu masalada quyidagicha fikr bildiradi: "...hujjatli proza aniq faktlar yig'indisigina bo'lib qolmay, balki real voqealar, real kishilar taqdirini realistik tarzda ifodalovchi; tipiklashtirib va individuallashtirib beruvchi to'la huquqli badiiy asar sirasiga kiradi"[5,5]. Olim hujjatli proza namunalarini ham badiiy asarlar sirasiga kiritar ekan, obrazlilik xususiyatiga asoslanadi. N.Bekmirzayevning fikriga asoslangan holda real obrazlar vositasida voqelikni tipiklashtirib aks ettirish xususiyatini inobatga olsak, "Qonli yo'rgaklar" asarini ham badiiy asar deb hisoblash o'rinlidir. A.Normurodovning "afg'on" mavzusida yozilgan boshqa bir asari – "Qon hidi" romanida ham real tasvirlar va obrazlar vositasida urushning g'ayriinsoniy mohiyati ochib beriladi. Hakimjon Karimov bu romanda ifodalangan afg'on urushini "absurd" mohiyatga ega deb ta'kidlaydi: "Romanda absurdlik asosida yuzaga kelgan afg'on urushining butun dahshatlari, murakkabligi, turfa ko'rinishlari o'z ifodasini topgan"[6,108]. Darhaqiqat, romanda afg'on urushining barcha kirdikorlari ochiq aks ettiriladi. Behuda qurbon bo'lgan yoshlar, tubutlarda jasad o'rniga narkotik moddalar bo'natilishi, urush sababli inson ruhiyatidagi salbiy evrilishlarni tasvirlash orqali muallif urushni rad etadi. Afg'on urushining unda qatnashgan askarlar uchun "absurd"lik kasb etgani bosh qahramon Vohidjon obrazi orqali aniq ko'rinadi.

Afg'on urushi mavzusida ijod qilgan yana bir yozuvchi G'afur Po'latov bo'lib, uning avtobiografik usulda yozilgan "Herirud faryodi" romani o'zbek harbiy prozasida yangilik bo'ldi. Dastlab "Jahon adabiyoti" jurnalida, keyinchalik bir necha nashriyotlarda harbiy-dala qissasi sifatida chop etilgan ushbu asar 2018-yilda "Navro'z" nashriyoti tomonidan harbiy-dala romani sifatida qayta nashr etildi. Asarning patsifistik ruhi, urushga nafrat g'oyasi bilan sug'orilganligi muallif so'zboshisidanoq yaqqol ko'zga tashlanadi: "Kattami, kichikmi, adolatlimi yoki adolatsizmi har bir urush insoniyat peshonasiga tushgan sho'rdir. Mana shunday sho'rpehona urushlardan biri XX asr so'nggi choragida yuz bergan sho'ro – afg'on urushi bo'ldi" [7,3]. Afg'on urushiga nisbatan baho berar ekan, muallif har qanday urushni qoralaydi. Ayni paytda, muallif so'zboshi qismida tanqidchi sifatida ham namoyon bo'ladi va yangi o'zbek adabiyotida afg'on urushi talqini masalasiga ham baho beradi:

“Zamonaviy o‘zbek adabiyoti MDH davlatlari ichida afg‘on mavzusiga eng ko‘p qo‘l urgan nasrchilik mamlakati bo‘lib qolishi quvonchlidir. Rus adiblari ham afg‘on mavzusiga oid adabiyotlarni taxlab tashlaganlar. Lekin rus asarlarida o‘tgan urush va sho‘roviy askarning bosqinchilik tashrifini oqlash kayfiyati kuchli”[7,4]. Yuqoridagi jumalalarda adib afg‘on urushiga yondashuv masalasiga alohida e‘tibor qaratmoqda. O‘zbek adabiyotida “afg‘on” mavzusidagi asarlar patsifistik ruhda ekanligi, bu orqali afg‘on urushining asl mohiyati obrazlar vositasida ochib berilayotganligini ta‘kidlash bilan bir qatorda rus adabiyotida bu urushga yondashuv boshqacha ekanligiga ham munosabat bildiradi. Ayni paytda, adib o‘z asarida avtobiografik tarzda urush voqeligini aks ettirar ekan, bu urushning siyosiy mohiyatiga ko‘proq urg‘u beradi. Xususan, sobiq SSSR hukumati askarlar ongiga singdirgan soxta “baynalmilallik” g‘oyasini yosh ofitserning o‘limiga bosh qahramon munosabati vositasida fosh etadi: “Shu yoshda o‘lish... Hayot bilan vidolashish... Qanday dahshat. Yana begona joylarda xazonmarg ketish. Nahot baynalmilallik mantig‘i shu bo‘lsa?”[7]. Bu jumlada g‘oya va real hayot o‘rtasidagi ziddiyat fojia tasviri orqali alohida ta‘kidlangan. Hukumatning mafkuraviy targ‘iboti va bevaqt o‘lim tasvirining qarama-qarshi qo‘yilishi orqali urushning asl mohiyati ochib beriladi.

Xulosa va takliflar. O‘zbek harbiy prozasida afg‘on urushi mavzusida yaratilgan asarlarni urushni qoralash, mustabid tuzumning kirdikorlarlarini fosh etish xususiyatlari

birlashtirib turadi. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida afg‘on urushi bilan bir qatorda qatag‘on siyosati, “o‘zbek ishi” mojarolari o‘zaro bog‘langan holda aks ettirilib, bu asardagi afg‘on urushi talqini mustamlakachilik tuzumining bir bo‘lagi sifatida aks ettiriladi. Abdurashid Normurodovning “Qonli yo‘rgaklar” va “Qon hidi” asarlarida urush ishtirokchilarining kechinmalari real voqealar asosida, haqqoniy aks ettiriladi. Bu asarlarda muallif munosabatidan ko‘ra obyektiv voqelik tasviri, real faktlarga asoslanganlik xususiyati yuqoriroq o‘rinda turadi. G‘afur Po‘latovning “Herirud faryodi” asarida esa afg‘on urushining siyosiy mohiyati ko‘proq ochilgan. “Baynalmilallik”, “internatsionalizm” kabi yolg‘on g‘oyalar fosh etilib, urushning vayronkor va g‘ayriinsoniy mohiyatini ochishga ko‘proq urg‘u beriladi. Yuqoridagi asarlarning barchasida urushni rad etuvchi patsifizm g‘oyasi yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu g‘oyani ifodalashda tragik pafos, absurd elementlaridan foydalanilgan. Shu xususiyatlariga ko‘ra bu asarlar XX asr g‘arb adabiyotida keng tarqalgan, urushni rad etuvchi “yo‘qotilgan avlod” adabiyotiga yaqin turadi. “Yo‘qotilgan avlod” mavzusidagi asarlarga xos bo‘lgan patsifizm, urushning vayronkor mohiyati va fojiali oqibatlariga asosiy urg‘uni berish xususiyatlari afg‘on urushi talqin etilgan o‘zbek asarlariga ham xosligini inobatga olsak, “yo‘qotilgan avlod” tushunchasini o‘zbek harbiy prozasiga ham tadbiq etish mumkinligi anglashiladi.

ADABIYOTLAR

1. Аҳмад С. Ижод ва жасорат // Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: “ШАРҚ”, 2000
2. Староверова Е.В. Потерянное поколение в литературе // Американская литература. – Санкт-Петербург: “Лицей”, 2005.
3. Ҳошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2016
4. Rasulov A. Ardoqli adib. – Toshkent: “SHARQ”, 2001
5. Бекмирзаев Н. Ўзбек совет ҳарбий прозаси. – Тошкент: “Фан”, 1981
6. Каримов Ҳ. Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. – Тошкент, 2008
7. Po‘latov G‘. Herirud faryodi. – Toshkent: “Navro‘z”, 2018.



UDK:81.22

Baxtiyor XOLMUXAMEDOV,
SamDU doktranti
E-mail: bxolmuxamedov@mail.ru

F.f.d., professor S.Karimov taqrizi asosida

MUALLIF LEKSIKASI VA UNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijodkorning o'ziga xos so'z qo'llashi, matn talabi bilan so'z yaratishi – okkazonal so'zi, yaratgan asarlarining leksikasi uning uslubini, ideostilini aniqlab beradigan vosita ekanligi hamda mualliflik lug'atlarining yaratilish tarixi, ularning tilshunoslikdagi ahamiyati xususida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Leksika, leksikologiya, leksikografiya, so'z, muallif so'zi, lug'at, uslub, ideostil.

АВТОРСКИЙ ЛЕКСИКОН И ЕГО ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается уникальность авторского словоупотребления, создание слов по тексту - окказионального слова, то, что лексика его произведений является средством, определяющим его стиль, идеостиль, а также об истории создания авторских словарей и их значении в лингвистике.

Ключевые слова: Лексика, лексикология, лексикография, слово, авторское слово, словарь, стиль, идеостиль.

AUTHOR'S LEXICON AND ITS LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION

Annotation

This article examines the uniqueness of the author's word usage, the creation of words from the text - occasional words, the fact that the vocabulary of his works is a means that determines his style, ideostyle, as well as the history of the creation of author's dictionaries and their meaning in linguistics.

Key words: Vocabulary, lexicology, lexicography, word, author's word, dictionary, style, ideostyle.

Kirish. Muallifning o'ziga xos uslubi va idiostilini yaratishda muallifning lug'at boyligi – mualliflik leksikasi muhim element hisoblanadi. Bu turli mualliflarning matnlarini tanib olish, farqlashga yordam beradi va ularning asarlarida o'ziga xos muhit yaratadi. Mualliflik leksikasi – bu muayyan muallif yoki mualliflar guruhi tomonidan yaratilgan, ularning asarlarida qo'llanilgan so'z va iboralar majmui. U muallifning o'ziga xos so'z boyligi, uslubi va xususiyatlarini o'zida aks ettiradi va o'quvchiga muallif matnlarini yaxshiroq tushunish va sharhlashda yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mualliflik leksikografiyasi va uning xususiyatlariga bag'ishlangan qator ishlar mavjud. Mualliflik leksikografiyasining taraqqiyoti, bugungi holati, qamrab olinishi haqida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan [3, 23, 4, 24, 8, 15, 27, 7, 14, 26, 1, 9]. Shuningdek, jahon leksikografiyasi, xususan, rus leksikografiyasi tajribasida bir yozuvchi yoki ma'lum davr yozuvchilari asarlari tilini o'rganishga qaratilgan lug'atlar [16, 25, 19, 17, 18, 5, 11, 10, 12, 6, 13, 20, 21, 22] ko'plab nashr etilgan. Ularning barchasini birlashtirib turuvchi xususiyat mazkur lug'atlarining ijodkor idiostili va idiolektini o'rganishga qaratilganligidir.

Bir ijodkor tili lug'atini yaratish bo'yicha faol ishlar turli milliy lug'atlarining davrlarini nazarda tutadi: ingliz, amerika, nemis, italyan, fransuz, shved, polyak, serb, bolgar va boshqalar. XVIII-XX asrlarda mualliflik leksikografiyasi rivojlandi. Bu shonaning asosiy vazifasi leksikografiyaning leksikologiya, stilistika, til tarixi va boshqa sohadagi lingvistik tadqiqotlar uchun ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, tarixiy, etimologik, chastotali va boshqa ko'plab lug'atlarni tuzishdan iborat edi [2].

T.X.Aglamov, O.Sh.Xodiyevalarning ta'kidlashicha, mualliflik leksikografiyasi dunyosida ingliz tili eng uzoq tarixga ega: birinchi ma'lumotnomalar bu yerda XVI asrning

o'rtalarida paydo bo'lgan, keyin taniqli yozuvchilarning asarlari uchun lug'atlar tuzish tizimli tus olgan. Hisob-kitoblariga ko'ra, 2000-yilga kelib ingliz (ingliz va amerika) leksikografiyasida 70 dan ortiq yozuvchi va shoirlarning asarlari uchun 300 dan ortiq lug'atlar yaratilgan bo'lib, ulardan kamida 100 tasi Shekspir asarlari lug'atidir. Shunday bo'lsa-da, mualliflarning fikriga ko'ra, bunday lug'atlarining dastlabkisi sharqda yaratilgan. Bunga misol sifatida Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarini keltirish mumkin. Mazkur lug'at mualliflik leksikografiyasining ilk namunalari sifatida e'tirof etilishga loyiq.

Tadqiqot metodologiyasi. Mualliflik lug'atlari ma'lum bir muallifning asarlarini o'rganish va tahlil qilish uchun foydali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular o'quvchi (til o'rganuvchi) so'z boyligini oshirishga, muallif uslubi va leksikasining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga yordam beradi, shuningdek, uning asarlarining ma'nosi va mazmuniga chuqurroq kirib boradi. Ushbu mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, analiz va sintez kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mualliflik leksikasi – bu ma'lum bir muallif yoki yozuvchi ijodi tiliga xos bo'lgan so'zlar va iboralarning maxsus to'plami. U so'zlardan foydalanish, matn yaratishda muallifning individual uslubi, afzalliklari va xususiyatlarini aks ettiradi. Mualliflik leksikasi o'z ichiga quyidagi elementlarni olishi mumkin:

Unikal so'zlar. Mualliflar jamiyat a'zolari tomonidan ko'p qo'llanilmaydigan yoki kundalik nutqda uchramaydigan qator so'zlardan foydalanishadi. Bular sirasiga aniq atamalar, arxaizmlar, neologizmlar yoki muallif tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan – okkazonal so'zlar kiradi.

2. Original ifoda vositalari. Muallif o'z uslubini boshqa yozuvchilardan ajratib turuvchi o'ziga xos ibora, metafora yoki obrazli iboralar orqali yaratishi mumkin. Bu

matnda o'ziga xos atmosfera va hissiy rang yaratishga yordam beradi.

3. Stilistik priyomlar. Muallif o'z matniga alohida urg'u va emotsional ta'sirni oshiruvchi takror, alliteratsiya, assonans yoki turli boshqa so'z o'yinlari kabi ma'lum stilistik vositalardan foydalanadi.

4. O'ziga xos mavzu ko'lami. Muallifning so'z boyligi ma'lum bir mavzu yoki muallifning qiziqish sohasi bilan bog'lanishi mumkin. Masalan, ilmiy fantastikaga ixtisoslashgan yozuvchi ushbu sohaga tegishli maxsus atama va texnik atamalardan foydalanadi.

Mualliflik leksikografiyasining o'ziga xos xususiyati hamda mazmun-mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Noyob leksika. Mualliflik leksikasi tarkibiga ma'lum bir muallifga xos bo'lgan so'z va iboralar kiradi. Bu atamalar, arxaizmlar, neologizmlar yoki muallif tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan so'zlar – okkazonal so'zlardan iborat bo'ladi. Mazkur tipdagi, ya'ni bir muallif asarlari asosida tuzilgan lug'at o'quvchiga ushbu so'zlarning muallif asarlarida qo'llanish ma'nosi va muayyan kontekstdagi ma'nosini tushunishga yordam beradi.

2. Sharh, tavsif va izoh. Mualliflik lug'atida muallifning so'z va iboralarni qo'llash xususiyatlarining izohi va tavsifi aks etadi. Bunday lug'atlar bir muallif asarlarida uchragan so'zlarning tavsifi, izohi va sharhlari, ularga oid illyustrativ misollar, izohlashda kontekstli yondashuv o'quvchiga muallifning maqsadi va uslubini to'g'ri va aniq anglashga yordam beradigan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

3. Asarlar bilan bog'liqlik. Mualliflik lug'ati muallifning konkret (muayyan) asar(lar)i bilan bog'lanishi mumkin. Unda ma'lum so'zlar yoki iboralar qo'llaniladigan muayyan matnlarga havolalar, shuningdek, matnning ushbu bo'limlari bo'yicha tahlil va sharhlar ifodalanadi. Bu o'quvchiga muallif asarlaridagi so'zlarning konteksti va ma'nosini yaxshiroq tushunish uchun yordamchi manba vazifasini o'taydi.

Muallif leksikografiyasi – alohida muallif yoki mualliflar guruhining til lug'atlarini tuzish nazariyasi va amaliyoti dastlab filologiyada "yozuvchi leksikografiyasi" sifatida rivojlangan. Mualliflik lug'ati lug'atning alohida murakkab turi bo'lib, ularning asosini milliy tilning bir qismi bo'lgan badiiy tilning leksikografik talqinini ifodalovchi yozuvchilar tilining lug'atlari tashkil qiladi.

Mualliflik leksikasini tadqiq etishdan bir qancha maqsadlar bo'lib, bunday leksikani o'rganish qator afzalliklarga ega.

1. Muallifning uslubi va individual ijodkorlik xususiyatlarini tushunish. Muallifning o'ziga xos uslubi va idiosintilini yaratishda mualliflik leksikasi – muallifning so'z boyligi muhim unsur hisoblanadi. Mualliflik leksikasini o'rganish so'zlardan foydalanish va matnlarni yaratishda muallifning xususiyatlari va afzalliklarini to'g'ri tahlil qilish imkonini beradi. Bu o'quvchiga yozuvchi asarlarini chuqurroq o'rganishga, uning individualligini baholash va muallif leksikasi qimmatini belgilashga yordam beradi.

2. So'z boyligini oshirish. Mualliflik leksikasini (muayyan yoki bir necha muallifning so'z boyligini o'rganish) foydalanuvchi/o'quvchi so'z boyligini oshirish va nutqni boyitishga asos bo'ladi. Chunki ijodkordan chastotasi yuqori bo'lmagan, kundalik muloqotda tez-tez ishlatilmaydigan noyob so'z va iboralardan foydalanishadi. Bunday leksik qatlamni o'rganish nutqni boyitish, turli xil va ifodali iboralarni qo'llashga zamin yaratadi.

3. Matnlarni tahlil qilish, izohlash va interpretatsiya. Mualliflik leksikasi – ijodkor lug'at boyligini o'rganish muallif matnlarini yaxshiroq tushunish va izohlashga yordam beradi. Muallifning so'z va iboralarni qo'llash xususiyatlarini

bilish ijodkor maqsadi, niyatini tushunishga, matnni chuqurroq his etishga, mazmunini ochishga yordam beradi.

4. Adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar. Mualliflik leksikasini o'rganish adabiy tadqiqotning muhim qismidir. Muallif ijodiga oid asarlar tili leksik xususiyatlarini tahlil qilish qiyosiy tadqiqotlar o'tkazish, qiyoslanayotgan obyektlardagi umumiy tendensiyalarni aniqlash, shuningdek, uning uslubini boshqa mualliflar va adabiy oqimlar bilan solishtirish qulay usulidir.

Demak, mualliflik leksikasi – muayyan ijodkor so'z boyligini o'rganish muallif ijodini chuqurroq tushunish, tahlil qilish va baholashga, o'quvchi yoki tadqiqotchining adabiyot sohasidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga, yozma va og'zaki lisoniy malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Muallif leksikografiyasining rivojlanishi va taraqqiyot yo'li o'ziga xos bo'lib, bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. Mazkur rivojlanish bosqichlarining har biri ushbu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shdi. Muallif leksikografiyasining rivojlanishining asosiy bosqichlarini quyidagicha ajratamiz:

1. Ilk mualliflik lug'atlari. Muallif leksikografiyasi rivojining dastlabki davrida mualliflar o'z asarlarida qo'llanilgan so'z va iboralarning izoh va talqinlarini o'z ichiga olgan lug'atlar yaratishga kirishdilar. Ushbu lug'atlar muayyan matnlarni tushunish va tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, o'quvchiga muallif maqsadi, g'oyasi va qarashlari, niyatini yaxshiroq tushunishga yordam bergan.

2. Leksikografik usullarning rivojlanishi. Vaqt o'tishi bilan muallif leksikografiyasi leksikografik usul va tamoyillardan foydalangan holda mustaqil soha sifatida rivojlana boshladi. Bunga lug'atni tizimlashtirish, tasniflash, lug'at yaratish, illyustrativ misollardan foydalanish, lug'atlardan foydalanishda qulay va informativlikni oshirish imkonini beradigan boshqa usullar kiradi.

3. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan mualliflik leksikografiyasi yangi imkoniyatlarga ega bo'ldi. Kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalari mualliflarga qulay, foydalanish oson bo'lgan elektron lug'atlarni yaratishga imkon berdi. Shuningdek, kompyuter texnologiyalari ijodkorlarga mualliflik leksikasini chuqur tahlil qilish va o'rganish imkonini berdi.

4. Interaktivlik va hamkorlik. Zamonaviy mualliflik leksikografiyasi yanada interaktiv bo'lib, mualliflar va kitobxonlar o'rtasidagi hamkorlikdagi ishlarni o'z ichiga oladi. Mualliflar o'quvchilarning fikr-mulohazalarini olishi, o'z lug'atlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi, mualliflarning lug'atlari muhokama qilinadigan va tahlil qilinadigan onlayn jamiyatlar (guruhlar)ni yaratishi mumkin.

5. Ko'p tilli mualliflik lug'atlari. Zamonaviy mualliflik leksikografiyasi o'quvchiga turli tillardagi mualliflik leksikasini o'rganish va tushunishga yordam beruvchi ko'p tilli lug'atlar ishlab chiqishni ham o'z ichiga oladi. Bu, ayniqsa, turli tillardagi mualliflarning matnlari bilan ishlaydigan tarjimon va tadqiqotchilar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, mualliflik leksikografiyasining rivojlanishi davom etmoqda, uslub va vositalarni doimiy ravishda takomillashtirishni, shuningdek, yangi texnologiyalarga va o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish asosiy tendensiyaga aylangan.

Xulosa va takliflar. Mualliflik lug'atlarini tahlil qilish va sintez qilish usullari muallif (ijodkor)ga lug'atni ishlab chiqish va tahlil qilishda yordam beradigan turli yondashuv va usullarni o'z ichiga oladi. Quyida mazkur usullardan asosiylarini keltiramiz.

1. Muallif matnlarini tahlil qilish. Mualliflik leksikasi – ijodkor so'z boyligi odatda muallif matnlari tahliliga asoslanadi. Muallif o'z asarlarini atroflicha o'rganadi, o'ziga

xos so'z va iboralarni aniqlaydi, ularning ma'nosi va qo'llanish kontekstini tahlil qiladi. Bu muallifga qaysi so'z va iboralarni lug'atga kiritish kerakligini aniqlash imkonini beradi.

2. Leksik xususiyatlarni o'rganish. Mualliflik lug'ati tarkibiga muallifning leksik xususiyatlarini, masalan, ayrim so'zlarni qo'llashdagi afzalliklarni, uslubiy xususiyatlarni, metaforalarni o'rganish kiradi. Muallif matnlarni tahlil qiladi, muallif leksikasi xos xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi va ularni lug'atga kiritadi.

3. Lug'atni tizimlashtirish va tasniflash. Mualliflik lug'atini turli mezonlarga ko'ra tizimlashtirish va tasniflash mumkin. Ijodkor semantik, grammatik yoki stilistik xususiyatlar asosida lug'at strukturasi yaratishi mumkin. Bu o'quvchiga lug'at birliklarini qidirishni osonlashtiradi; kerakli so'z va iboralarni topishga yordam beradi.

4. Ilyustrativ misollardan foydalanish. Mualliflik lug'atida so'z va iboralarning kontekstda qo'llanilishiga

misollar keltiriladi. Bu o'quvchiga so'zlarning ma'nolari va qo'llanilishini baholash, muallifga o'z shaxsiyati va uslubini ko'rsatishga zamin hozirlaydi.

5. Lug'at sintezi va yaratilishi. Tahlil va tadqiqotdan so'ng muallif (ijodkor) lug'atni sintez qilish va yaratish (tuzish)ga o'tadi. U lug'at (so'zlik, birliklar va lug'at maqolasi)ni to'playdi, tartibga soladi, izoh, tavsif va illyustrativ misollarini belgilaydi, lug'at strukturasi yaratadi va uni belgilangan mezonlarga muvofiq tartibga soladi.

6. Fikr-mulohazalar va tuzatishlar. Lug'at yaratilgandan so'ng muallif o'quvchi va mutaxassislarining fikr-mulohazalarini olishi mumkin. Bu muallifga lug'atga tuzatishlar kiritish va takomillashtirishda as qotadi.

Shunday qilib, mualliflik leksikasini tahlil qilish va sintez qilish usullari muallifning aniq maqsad va vazifalariga qarab farq qilishi mumkin. Ular muallifning shaxsiyati va uslubini aks ettiruvchi informatik va noyob lug'atni yaratishning asosidir.

ADABIYOTLAR

- Hartmann James. Русская авторская лексикография теория, история, современность. – М., 1998.
- Агламов Т.Х., Ходиева О.Ш. История создания авторской лексикографии // https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12852_1_3257F474EC06AD109BEB1507C7ADCCD41B14D0CB.pdf
- Белякова И.Ю. Русскоязычная авторская лексикография: история, типология, современный этап развития / Преподаватель XX век: Язык и образование. 2008, № 4. – С. 167-175.
- Водарский В.А. Материалы для словаря Пушкинского прозаического языка // Филологические записки. – Воронеж, 1901-1905.
- Горбачевич К.С., Хабло Е.П. Словарь эпитетов русского литературного языка. – Л., 1979.
- Кавецкая Р.К., Кретов А.А. Обратный частотный словарь поэтических произведений А.В. Кольцова. – Воронеж, 1996.
- Караулов Ю.Н., Гинзбург Е.Л. Опыт типологизации авторских словарей // Русская авторская лексикография XIX-XX веков: Антология. – М., 2003. – С. 4-16.
- Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л., 1974.; Винокур Г.О. Проект словаря языка Пушкина. – М., 1947.
- Нигматова Л. Некоторые проблемы узбекской лексикографии и словарной разработки. Филология масалалари, 1 (1), с. 71-81.
- Ничик Н.Н., Ронгинский В.М. Словарь фразеопотреблений в поэтической речи В.В. Маяковского. – Симферополь, 1991.
- Павлович Н.В. Словарь поэтических образов. В 2 т. – М., 1999.
- Перцова Н.Н. Словарь неологизмов Велимира Хлебникова / Wiener Slawistischer Almanach. Sond. 40. Wien, Moskau, 1995.
- Полухина В., Пярли Ю. Словарь тропов И. Бродского (на материале сборника «Часть речи»). – Тарту, 1995.
- Резвина О.Г. Системно-функциональный подход в лингвистической поэтике и проблемы описания поэтического идиолекта. Дисс. в форме научного доклада докт. филолог. наук. – М., 1998.
- Русская авторская лексикография – Русская авторская лексикография XIX-XX веков: Антология / Отв. ред. чл.-корр. РАН Ю.Н. Караулов. – М., 2003.
- Словарь к стихотворениям Державина // Сочинения Г.Р. Державина с объяснительными примечаниями Я. Грота. – СПб., 1904. – Т. 9.
- Словарь повести М.Горького «Фома Гордеев». – Вып. 1-2. – Владивосток, 1990.
- Словарь языка Достоевского. Лексический строй идиолекта. Вып. 1 / Авторы-сост. М.М. Коробова, Е.А. Цыб, С.Н. Шепелева. Глав. ред. чл.-корр. РАН Ю.Н. Караулов. – М., 2001.
- Словарь языка Пушкина. В 4 т. – М., 1956-1961.
- Словарь языка русской поэзии XX века. Т.1: А–В / Сост. Григорьев В.П. (отв. ред.). – М., 2001.
- Словарь языка русской поэзии XX века. Т.2: Г–Ж // Сост. Григорьев В. П. (отв. ред.). – М., 2003.
- Словарь языка русской поэзии XX века. Т.3: З–Круг // Сост. Григорьев В.П. (отв. ред.). – М., 2008.
- Фонякова О.И. Очерк развития писательской лексикографии в отечественном языкознании (1883-1990) // Из истории науки о языке: Межвуз. сб. Памяти Ю.С. Маслова. – СПб., 1993. – С. 113-134.
- Фонякова О.И. У истоков русской писательской лексикографии // Вестник ЛГУ. Сер. 2. История, языкознание, литературоведение. – 1990. – Вып. 4. – С. 31-35.
- Чернышов В.И. Петров К.П. Словарь к сочинениям и переводам Д.И. Фонвизина. Издан при содействии Императорской Академии Наук. СПб., 1904 // Известия отд. рус. яз. и словесности. Т. XI, кн. 1. – СПб., 1906. – С. 429-440.
- Шестакова Л.Л. Авторская лексикография на рубеже веков: обзор // Вопросы языкознания. – 2007. – № 6. – С. 116-129.
- Шестакова Л.Л. Русская авторская лексикография: общее состояние и тенденции развития // Русская авторская лексикография XIX-XX веков: Антология. – М., 2003. – С. 17-20.



Olmos XURRAMOV,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

E-mail: xurramovolmos1@gmail.com

O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti yetakchi ilmiy xodimi, f.f.d S.Meli taqrizi asosida

PRINTSIP HISTORICAL AND LITERATURE

Annotation

The article discusses the problem of historicity, the principles of studying fiction according to the principles of historicity. The principle of historicity in literary criticism means historical space and time in historical works, the reality of the historical past, illumination of the life of the peoples living in it, that is, the question of artistic interpretation of history and similar situations. Focused on learning with an unbiased eye

Key words: Historicity, divine interpretation, historic space and time, historicity and rationality.

ПРИНЦИП ИСТОРИЧНОСТИ В ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В статье рассматривается проблема историчности, принципы изучения художественной литературы согласно принципам историчности. Принцип историчности в литературоведении означает историческое пространство и время в исторических произведениях, реальность исторического прошлого, освещение жизни живущих в нем народов, то есть вопрос художественной интерпретации истории и подобных ситуаций. внимание сосредоточено на учебе беспристрастным взглядом.

Ключевые слова: Историчность, художественная интерпретация, историческое пространство и время, историчность и рациональность.

ADABIYOTDA TARIXIYLIK TAMOYILI

Annotatsiya

Maqolada tarixiylik muammosi, badiiy adabiyotni tarixiylik prinsiplariga ko'ra o'rganish tamoyillari haqida mulohazalar bildirilgan. Adabiyotshunoslikdagi tarixiylik prinsipi degani tarixiy asarlardagi tarixiy makon va zamon, tarixiy o'tmish voqeligi, unda yashayotgan odamlar hayotini yoritish, ya'ni tarixning badiiy talqinlash masalasi va shunga o'xshash holatlarni ham xolis nazar bilan o'rganishligiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Tarixiylik, badiiy talqinlash, tarixiy makon va zamon, tarixiylik va mantiqiylik.

Kirish. Adabiyotshunoslikda tarixiylik muammosi, tarixiy va zamonaviy poetik manbalarni talqin etishi nuqtay nazaridan, ikki yo'nalishda o'rganiladi. Birinchi yo'nalish, qadim tarixdagi og'zaki va yozma manbalarni poetik o'ziga xosligi, keyingi davr adabiyotiga ta'siri yuzasidan tadqiq etishga qaratiladi. Ikkinchi yo'nalishda esa tom ma'nodagi tarix – millatlar, saltanatlar, shaxslar tarixi adabiyotda qanday tamoyillar asosida badiiy aks ettirilgan, degan masala talqini yetakchilik qiladi. Bunda, asosan, tarixiylik va zamonaviylik sintezi, tarixiy talqinning muayyan asar yozilgan davr ijtimoiy, ma'naviy hayoti, etik, estetik nuqtay nazarlari bilan munosabati masalasiga urg'u beriladi. Ammo shuni unutmaslik lozimki, har ikki yondashuv mohiyatida badiiy adabiyotni tarixiylik prinsiplariga ko'ra o'rganish tamoyili turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. N.Hotamov, B.Sarimsoqovlar tomonidan yozilgan "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati"da qayd etilishicha: "Adabiyotda tarixiylik biror davrning konkret tarixiy mazmunini, uning takrorlanmas qiyofasi va badiiy koloritini badiiy jonlantirib tasvirlash"dan iborat [1]. Boshqa bir "Adabiyotshunoslik lug'ati" mualliflari esa bevosita adabiyotdagi tarixiylik masalasiga to'xtalmasalar-da, "Tarixiy-funksional o'rganish" nomli maqolacha ostida quyidagi fikrlarni bayon etadilar: "Tarixiy-funksional o'rganish – badiiy adabiyotning ijtimoiy taqdirini, badiiy asarning o'quvchi omma ongidagi yashash tarixi, turli tarixiy bosqichlardagi talqinlarini o'rganish. Bu xil yondashuv badiiy adabiyotga kommunikatsiya jarayoni sifatida qarashni taqozo

etadi. Modomiki, kommunikatsiya amalga oshgan jarayonlar o'zgarib turar ekan, T.-f.-o'. badiiy asarning ilgari amalga oshirilgan talqinlarini o'sha davr kontekstida tadqiq qilishni taqozo etadi. Shuning uchun ham muayyan asarning ilgari (adabiy tanqid, olimlar, o'quvchi omma, rejissyorlar, aktyorlar, kitob bezakchilari va h.k. tomonidan) amalga oshirilgan talqinlari T.-f.o'. uchun material bo'lib xizmat qiladi. T.-f.o'. adabiy merosni to'g'ri baholash, uning hozirgi kundagi ahamiyatini ochib berish, o'tmishda yaratilgan asarlarning ilmiy jihatdan to'g'ri, adekvat talqin etilishida muhim ahamiyatga egadir. Ayon bo'ladiki, ilgari yaratilgan asarlarning hozirgi hayotini o'rganish T.-f.o'.ning muhim va asosiy masalasidir"[2]. Ma'lum bo'lyaptiki, ushbu ta'riflarning birida tarixiy makon va zamon, tarixiy o'tmish voqeligi, unda yashayotgan odamlar hayotini yoritish, ya'ni tarixning badiiy talqinlash masalasi xususida gap ketyapti. Ta'rif mazmunidan tarixiylikning badiiy ijod jarayonlari bilan bog'liqligi, tarixning badiiy adabiyotga evrilishi ekani ayonlashadi. Bu ta'rif biz yuqorida keltirgan tasnifning ikkinchisi – tarixni badiiy aks ettirish tamoyilini ifoda etadi. Keyingi ta'rifda esa tarixiy asarlarni o'rganish manbalari, yo'l va tamoyillari xususida fikr yuritiladi. Bu esa yuqorida qayd etilgan birinchi tasnifga to'g'ri kelishi bilan birga, mazkur dissertatsiyaga xos tadqiq tamoyillarini o'zida ifodalaydi.

1987 yilda nashr etgan "Falsafa lug'ati"da esa tarixiylik (istoricheskoe) va mantiqiylik (logicheskoe) bir-birini to'ldiruvchi egizak tushunchalar sifatida ta'riflanadi. "T. va M. – predmetning muhim xususiyatlari, taraqqiyot jarayonlari, shuningdek, uning real tarixi bilan mantiqiy

tafakkur taraqqiyoti o'rtasidagi munosabatni ochib beradigan falsafiy kategoriyalar...T. M.ga nisbatan o'z natijalarining takomillashuv jarayoni sifatida munosabatda bo'ladi...T va M. doimiy dialektik birlikda, o'zaro ziddiyatda yashaydi va biri boshqasini nazorat qiladi" [39]. Falsafiy nuqtay nazardan bayon etilgan bo'lsa ham, ushbu keltirilgan fikrning maqolada qo'yilgan muammoga bevosita aloqasi bor. Haqiqatan ham, tarixiy davrlar, voqealar yoki shaxslar hayotini badiiy aks ettirishda bayon etilgan faktlar yoki qahramonlar faoliyati o'sha makon va zamondagi mantiqqa muvofiq kelmasa, bunday asar o'zining haqqoniylik, ya'ni tarixiylik sifatini yo'qotadi. Deylik, butun umrini saltanat tashvishlari va adabiyotga bag'ishlagan Bobur biron-bir tarixiy asarda o'zi ishg'ol etgan mamlakat iqtisodini barbod etgan, undagi qadim kutubxonalarga o't qo'ygan hukmdor qilib tasvirlansa, tarixiy mantiq buni darhol inkor etadi. Zotan, adabiyotda, xususan, tarixiy adabiyot o'tmishida bunday dalillar uchrab turadi. Adabiyotshunoslikdagi tarixiylik prinsipi degani tarixiy asarlardagi shu va shunga o'xshash holatlarni ham xolis nazar bilan o'rganish demakdir.

Ba'zan esa badiiy asar muallifining tarixiy faktlarga mutloq bog'lanib qolish holatlari ham kuzatilishi mumkin. Bunday holatda tarixiy voqealarning batafsil bayon etilishi, tarixiy shaxs faoliyatini mayda-chuyda nuqtalarigacha tasvirlanishi kuzatiladi. Natijada badiiy tasvir etilayotgan tarixiy voqelik xronologik xarakter kasb etadi. Bu esa asar hajmining haddan tashqari cho'zilib ketishiga, o'quvchini zeriktiradigan darajadagi xronologiklashtirilgan tarixiy asar paydo bo'lishiga olib keladi. Syujet markazida harakatlanayotgan tarixiy shaxs esa jonsiz, jozibasiz chiqadi, aniqroq aytganda tarixiy shaxsdan badiiy obrazga aylanmay qoladi.

Ko'plab tarixiy qahramonlar (o'zbek adabiyotida Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Navoiy, Bobur va boburiylar, Mashrab singari tarixiy prototiplar) hayotiy faoliyatlari davomida o'z yurtlaridan tashqari talay o'zga mamlakatlar sarhadlari bo'ylab safar qiladilar, farzandlari, shogirdlari, a'yonlari, harbiy qo'shinlari hamrohligida tamomila begona odamlar, begona madaniyatlar bilan to'qnash keladilar. Mana shunday nuqtalarda madaniyatlar, ma'rifatlar, fikr-qarashlar, adabiyotlar kesishuvi sodir bo'ladi. Rus estetik-olimi Yuriy Borev o'zining "Estetika" nomli kitobida bunday tarixiy-tipologik jarayonlar, madaniyatlar kesishuvi uch ko'rinishda namoyon bo'lishini qayd etadi. Birinchi ko'rinish sifatida "turli xalqlar turmushidagi tarixiy shart-sharoitlar o'xshashligi"ni, ikkinchi shakl deb "adabiy-madaniy taraqqiyotning spiralsimon dialektik harakatda" ekanini, uchinchi ko'rinish deb "adabiy-madaniy taraqqiyotning ko'plab turkumlardan iboratligi"ni ko'rsatadi [4].

Tahlil va natijalar. Tarixiy asarlarda tasvir etilgan madaniyatlar kesishuvi aniq dialektik, ijtimoiy, tarixiy-xronologik qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Tarixda bo'lib o'tgan bunday voqea va hodisalarni tasvir etayotgan ijodkor bularni e'tibordan soqit qilmasligi lozim. Darhaqiqat, Hindiston, Afg'oniston, Pokiston, Turkiya, Rossiya kabi qator o'zga mamlakatlar hududlarini ishg'ol etgan Amir Temur bilan bog'liq jahongashtalik voqealari ulkan ko'lamdagi madaniy sintezlashuv jarayonlarini vujudga keltirgan. Madaniyatlar o'rtasidagi kesishuv jarayonlari murakkab va sertarmoq kechgan. Bir madaniyatning ikkichisidan ko'ra yuksakroqligi yoki tubanroqligi, ikki madaniyat aro muvozanat maydonga kelgan holatlar, bunda shaxs yoki shaxslarning o'rni va pozitsiyasi, ko'zga tashlangan kelishuv yoki ziddiyatlarni badiiy asarda jonli aks ettirish ijtimoiy-madaniy turmushning shunday azaliy qonuniyatlarini bilishni, his etishni talab qiladi.

Mabodo musulmon sharqi xalqlarining vakili, iqtidorli sarkarda, mutafakkir, o'tkir ulamo bo'lgan Amir Temurni hind

rojalaridan biri o'zining eskirgan buddaviylik falsafasiga tayanib rad etgan bo'lsa, buni insoniyatning tarixiy-madaniy silsilalari, ezgulik va yovuzlik haqidagi tushunchalari, e'tiqodi va dunyoqarashidan kelib chiqib, xolisona, shuningdek jonli badiiy tasvir yo'li bilan asoslagan ijodkorigina maqsadiga erishadi. Bunday muhim tarixiy prinsiplarni bilish va amal qilish xitoylik elchi bilan muloqot qilayotgan Ulug'bekni, arab diyoriga sayyohat qilgan Beruniyni, Hirotdan Samarqand hududiga endigina qadam qo'ygan Navoiyni, oila a'zolari, yaqinlari, kichik bir qo'shini hamrohligida "Hind sori yuzlangan" Bobur obrazini talqin etishning muhim sharti hisoblanadi.

Millatlar, shaxslar, fikrlar, falsafa va adabiyotlar tarixini badiiy aks ettirish, bir so'z bilan aytganda, tarixni badiiy asarga aylantirish faqat adabiy metodlarga oid muammo emas. U badiiy, falsafiy, ilmiy va adabiy metodlar birligini, bir butun metodologik tizimni taqozo etadi. Shu bilan birga tarixiy talqin prinsipi, hammasidan avval adabiyotlar tarixini mukammal bilish asosida maydonga keldi. Rus adabiyotshunosi, tarixiy poetika yo'nalishining asoschisi A.N.Veselovskiy haqli ta'kidlaganidek: "Adabiyot tarixi, tushunchasi o'zining keng ma'nosida, ijtimoiy fikr tarixidirki, u falsafiy, diniy va badiiy faoliyat sifatida so'zda ifoda topadi" [5].

Tarixiy asar muallifi ijtimoiy fikr tarixini badiiy aks ettiradi. O'zi tasvir etayotgan makon va zamondagi falsafa, din va badiiy-estetik tafakkurni tarixiy aspektga ifodalash uchun mas'ul hisoblanadi. A.N.Veselovskiy fikriga tayanib aytilganda, u tarixiy so'z sferasida ish olib boradi. So'z orqali ifodalangan tafakkur shakllari zamonaviy adabiyot namunasi bo'lib qayta jonlanadi, izchil harakatga kirishadi. O'zining estetik, ma'rifiy, ijtimoiy vazifasini bajarishga kirishadi. Bu o'rinda yozuvchiga o'tmish adabiy manbalaridan istifoda etish, ular o'rtasidagi o'xshashliklarni qiyoslash, detallashtirish va umumlashtirish orqali ish olib borish imkoniyati bo'ladi. Bunda u faqat ijtimoiy tarixning o'zini emas, shu tarixni tashkil etadigan bir butun so'zlar tizimini ham qayta ishlaydi. O'z davri estetik ehtiyojlaridan kelib chiqib qayta shakllantiradi. Tarixiy asar muvaffaqiyati bu jarayonning qay darajada to'g'ri va aniq amalga oshirilgani bilan bog'liq bo'ladi.

"Mohiyat e'tibori bilan har bir so'z, qachonlardir obyektning nisbatan xarakterli sanalgan, muayyan jihati yoki o'ziga xosligini ifodalovchi, hayotiylikni ko'rsatuvchi obrazli ifoda – istiora bo'lgan" [5] A.N.Veselovskiyning ushbu nazariyasidan kelib chiqadigan bo'lsak, tarixiy asar mualliflarining vazifalari o'ta og'ir va mas'uliyatli ekanini aniq bo'ladi. Tarixiy davrlar manzarasi, tarixiy shaxslar faoliyatini badiiy asarga aylantirayotgan shoir, prozaik yoki dramaturg bu o'rinda so'zning tarixan istioraviylik tabiatini yaxshi bilishi va uni shu tarzda asar uslubiga singdirishiga to'g'ri keladi. Murakkablik shundaki, asar yozilayotgan davrga kelib, o'sha so'z o'zining istioraviy qatlamlarini boyitgan yoki aksincha so'z-istiora sifatida qashshoqlashgan bo'lishi, bundan ham murakkabi yangi davr o'quvchisi uchun tamomila boshqa ma'no kasb etadigan darajada o'zgarishga uchrashi ham mumkin.

Masalan, bobomiz sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari" kitobidagi oddiygina "tuzuk" so'zini olaylik. Asar dunyoga kelgan davrlarda bu so'z tarkibidagi "tuz" to'g'rilik, rostlik, tekislik ma'nolarini bildirgan [6]. Asar sarlavhasiga chiqarilgan "tuzuk" so'zi esa to'g'rilik rostlik so'zlaridan istiora sifatida "nizom", "yo'l", "qoida" ma'nolarini ifodalagan. Filologiya fanlari nomzodi Berdak Yusuf tuzgan "Mumtoz adabiy asarlar lug'ati"da esa "tuzuk" so'ziga aynan "nizom", "qonun", "tartib-qoida" tarzida izoh berilgan [7]. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Navoiygacha, Navoiy davri va undan keyin yozilgan turkiy tildagi asarlarda,

xususan, Boburning “Boburnoma” asarida keladigan qator soʻz va iboralarning ham shunga oʻxshash istioraviy tovlanishlari bor.

Toki tarixiy asarda voqelik va obrazlar talqini badiiy haqiqatga mos kelishi lozim ekan, tasvir etilayotgan tarixiy oʻtmish tili va uslubiga xos bunday jihatlarini toʻgʻri istifoda etishning ahamiyati katta.

Tarixiy manbalarga xos bunday misollarni Amir Temur bilan bogʻliq tarixiy manbalarda yaqqol kuzatish mumkin. Agar sohibqiron hayoti, harbachilik va hukmdorlik faoliyatiga doir uch tarixiy asarni solishtiradigan boʻlsak, manbalar va talqinlar xilma-xilligi haqidagi yuqoridagi fikrning toʻgʻriligi aniq bilinadi. Maʼlumki, sohibqiron bobomiz haqida Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshohlarning tarixiy asarlari mashhur. Shu uch asarni tarixiy haqiqat va talqinlar xilma-xilligi nuqtay nazaridan solishtirgan tadqiqotchi ular oʻrtasidagi umumiy, shu bilan birga, keskin farqlanadigan nuqtalar ham aniq seziladi. Misol uchun Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sida koʻproq din va saltanat manfaati, Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”sida shaxs faoliyati, Ibn Arabshohda esa tarixiy asar muallifi nuqtay nazarining yetakchiligi kuzatiladi. Mana shu umumiy kuzatuvning oʻzi ham bir tarixiy davrga bir necha nuqtay nazardan qaralishi, tarixiy voqelik turli rakurslardan kuzatilishi, tarixiy voqea, narsa va detallar haqidagi axborotlar turli shakllarda bayon etilishiga misol boʻladi.

Tarixiylikka xos shunday holatlar borasida fikr yuritir ekan A.N.Veselovskiy yozadi: “Deylik, siz qaysidir bir davrni oʻrganyapsiz. Agar ushbu davrga nisbatan oʻz shaxsiy qarashlaringiz, nuqtayi nazarangiz boʻlishini istasangiz, faqat bundagi ulkan voqealar, diqqatga sazavor holatlarnigina emas, balki u davr turmushiga xos barcha ikir-chikirlargacha bilishingiz shart. Ular oʻrtasidagi sabab va oqibat bogʻlanishlarini izchil kuzatishga harakat qilishingiz lozim. Shunda tanlagan predmetingizni qismdan butunga tomon oʻrgana borasiz. Siz uchun ishlash qulaylashadi, har safar qandaydir xulosaga, hatto qator xulosalarga kelish imkoniyati tugʻiladi” [5]. Tarixiy oʻtmishni ilmiy va ijodiy oʻrganishda olim tavsiya etgan metodologik tamoyillarning muhim ahamiyati bor. Demak, tarixiy oʻtmish materiali bilan ish olib borayotgan adabiyotshunos, tarixchi, yozuvchi, shoir, dramaturg tanlagan obyekt doirasidagi koʻzga tashlanib turadigan, mashhur voqea-hodisalarnigina emas, arzimasday koʻrinadigan, unchalik eʼtiborni tortmaydigan mayda detallargacha sinchkovlik bilan oʻrganishi, ularni oʻzaro qiyoslashi, xususan, qism va butun oʻrtasidagi izchil munosabatni eʼtiborga olishi lozim ekan.

Zahiriddin Muhammad Bobur yozadi: “Dahkatda ekanda Dahkatning gird va navohisidagi togʻlarni hamisha yayoq yurub, sayr qilur erdim. Aksar yalang oyoq yurur erdim. Yalang oyoq koʻp yurgandin oyoqlarim andoq boʻlub edikim, togʻ va tosh tafovut qilmas edi...” [8]. Tarixdan Boburning buyuk shaxs ekanligi, kichik bir qoʻshini bilan Afgʻoniston, Hindistondan ulkan saltanatlarni ishgʻol etganligi, boburiylar saltanati degan qudratli davlatga asos solganligi, shaxsiy hayotida koʻplab ajoyibotlar, mislsiz fojialar, murakkab ruhiy iztiroblar boʻlib oʻtganligi bizga yaxshi maʼlum. Bu dalillar buyuk shoir va davlat arbobi tarixiga doir umumiy tarix, ulkan voqealarning muxtasar bir bayoni xolos. Ammo “Boburnoma”da mana shu voqealarning qarichma-qarich, detallashtirib hikoya qilinganiga guvoh boʻlamiz. Hikoya markazini tashkil etgan Bobur shaxsiyati bizga buyukligi bilan birga har qanday insonda uchrashi mumkin boʻlgan qusur va kamchiliklardan xoli boʻlmagan jonli odam sifatida namoyon boʻladi. Tarixiy asar syujeti, obrazlarini tom maʼnoda jonlantirib tasvirlash uchun bularning barchasi muhim ahamiyatga ega.

Shuni ham eʼtiborda tutish lozimki, Bobur qanchalik buyuk, rostgoʻy, mardona shaxs boʻlmasin, oʻz davri

voqealari, manzil-makonlari qiyofasi, kishilari tabiati, faoliyati haqida qanchalik real hikoya qilmasin, tadqiqotchi yoki yozuvchining faqat uning nuqtay nazariga koʻra dunyoga kelgan manbalarga tayanib ish yuritishi mumkin emas. Obyektga nisbatan bunday yondashuv ilmiy-ijodiy talqindagi subyektivizmga olib keladi. Bobur buyuk shaxsiyat sohibi boʻlishi bilan birga hammaga oʻxshagan insoniy qusurlardan ham xoli emas edi. Bunday holatlarni uning oʻzi ham “Boburnoma” asarida rostgoʻylik bilan qayd etgan oʻrinlar anchagina. Shunday ekan, Boburning voqealarni bayon etishida, muayyan shaxslar xususida fikri yuritishida, tarixan konkret holat, vaziyatlarga munosabatida subyektivlikka yoʻl qoʻygan boʻlishi mumkinligidan koʻz yumib boʻlmaydi. Taʼkidlash joizki, bu kabi holatlar faqat Bobur Mirzoga emas, har qanday tarixiy shaxsga doir individual bayon va talqinlarda uchrashi mumkin.

Umuman, tarixiylik prinsipiga izchil rioya qilish uchun muayyan davr voqeligiga turli tomonlardan qarash maqsadga muvofiqdir. Bobur va boburiylar masalasida esa shu sulola vakillari qalamiga oid manbalar bilan birga, ularga raqib boʻlgan tomon manbalariga ham murojaat qilish, ikki tomon fikr-qarashlarini solishtirish, oʻrta yoʻlni topishga urinish real tarixiy haqiqatga yaqinlashish imkoniyatini kengaytiradi, deb oʻylaymiz. Masalan, Boburning Movarounnahr boʻylab kechgan harbiy safarlarga boy hayoti “Boburnoma”da izchil bayon etilishi bilan birga, Gʻiyosiddin bin Humomiddin Xondamirning “Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar” (Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi doʻst) asarining qator boblari Bobur hayoti talqiniga bagʻishlangan. Asarning Boburga tegishli boblari nashri munosabati bilan soʻzboshi yozgan filologiya fanlari nomzodi Ismoil Bekjonning quyidagi fikrlarini bu oʻrinda keltirish maqsadga muvofiq boʻladi: “Mashhur tarixnavis Gʻiyosiddin Xondamirning oʻquvchi uchun “doʻst” deb atagan ushbu kitobi haqidandan ham oʻtmishdagi buyuk shaxslarning, jumladan, Zahiriddin Muhammad Boburning goʻzal siyrat – yaxshi xulq-atvori-yu, maqtoqli xislatlari, ezgulik yoʻlidagi ijtimoiy-siyosiy faoliyati qirralari haqida bebaho maʼlumot beruvchi asardir. Bu maʼlumotlarning ayrimlari oʻz tarixiy qimmatiga ega boʻlib, ularda “Boburnoma” yoki boshqa manbalar orqali bizgacha yetib kelmagan, shuningdek, muallifning shaxsan oʻzi koʻrib, bevosita ishtirok etgan voqealar tafsiloti aks etgan” [9] (taʼkid bizniki – O.X.). Keltirilgan iqtibosda ikkita diqqatga loyiq nuqta bor. Bularning birinchisi, kitobda Boburga oid boshqa manbalarda aks etmagan tarixiy dalillarning mavjudligi; ikkinchisi, muallifning oʻzi koʻrgan, shaxsan ishtirok etgan voqealarning bayon etilishidir. Bunday jihatlar tarixiylik qimmatini chandon oshiradi. Ayniqsa musulmon sharqida oʻsib-ulgʻaygan, islom etikasi negizida shakllangan muallifning oʻzi ishtirok etgan voqealar borasidagi maʼlumotlari oʻzining haqqoniyligi, real tarixga mosligi tomonlama yuksak ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostoni ham Bobur faoliyatini tamomila oʻzga rakurslardan kuzatish asosiga qurilgani bilan muhim tarixiy qimmatga ega. “Shayboniynoma” muallifi bu oʻrinda Bobur egallagan ijtimoiy-siyosiy lagerning boshqa tomonida turib fikr yuritadi. Asarning tarixiy emas, badiiy xarakterga egaligi bir tomondan uning tarixiylikni aks ettirish darajasini cheklasa, boshqa tomondan bu davr voqeligiga xos botiniy holatlarni ifodalashi bilan talqin etilayotgan voqealar qamrovini botiniy, hissiy tomonga qarab kengaytiradi. Hatto Shayboniixon, Bobur Mirzo haqidagi baʼzi bir subyektiv fikrlarning ham tarixiy haqiqat nuqtay nazaridan qimmatli bor. Bunday jihatlar tadqiqotchi yoki ijodkor-adib uchun keng muqoyasalash, neytral pozitsiyada turib, predmet va detallarni kuzatish, haqqoniy xulosa chiqarish imkonini beradi. Xuddi shuningdek, Bobur va boburiylar faoliyati bilan bogʻliq yirik diapozondagi voqealarning Boburdan boshqa ishtirokchilar

(masalan, Gulbadanbegim kabi) hind, afg'on va yevropalik mualliflar tomonidan keltirilgan bayonlari ham bu davr fonini mukammal yoritishga xizmat qiladi.

A.N.Veselovskiy tadqiqotchilar e'tiborini tarixiylik uchun muhim yana bir narsaga qaratadi. Bu tarixiy davr yoki davrlar markazida turadigan "buyuk shaxs", boshqacharoq aytganda "markaziy siymo" konsepsiyasidir. A.N.Veselovskiyning fikricha, tarixiy shaxsni tadqiq etayotgan, u haqda badiiy asar ijod etayotgan subyekt birinchi navbatda o'sha "markaziy siymo" haqidagi "qarashlar butunligi", "munosabatlar uyg'unligi" uchun javob berishi lozim. Zotan, ko'p hollarda tarixiy shaxs haqidagi tasavvurlar ulkanligi u haqdagi real haqiqat ustiga soya soladi. Ayni paytda o'sha shaxsni tushunishga harakat qilayotgan sinchkov subyekt uchun ba'zi imkoniyatlar ham ochadi. Ya'ni uni har bir hodisa va detallarni yanada sinchiklab o'rganish, murakkab vaziyatlar, holatlarni, chigalliklarni jiddiy muqoyasa yo'li bilan yechishga majbur qiladi. "Bularning barchasi umumlashgan nuqtada,-deb yozadi davom etib olim,-garchi,

bu o'rinda shaxs faoliyatining zamon taraqqiyoti bilan nurlangan mazmuni emas, balki zamonaviy tadqiqotchining sof ritorik o'lchamlari yetakchilik qilsa ham, hamma-hammasining markazida ko'rgan ko'zga ko'rgazma tariqasida buyuk inson shaxsiyati qolaveradi. Holbuki, bu bizga mashhur nom uyg'otgan tashqi tasavvurlar yig'indisi bo'lib, ko'pincha uni zohiriy va botiniy butunlik sifatida qabul qilishga moyilmiz" [5]. Olimning bu fikrlari aynan tarixiy shaxs faoliyatini ilmiy, badiiy talqin etadigan subyekt uchun prinsipial ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Tarixni o'rganish, tarixiy shaxsni talqin etishga oid bunday murakkab jarayonlar bilan bog'liq muammolar o'zbek xalqi tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk shaxsiyatlar, xususan, Bobur va boburiylar misolida ham ko'plab topiladi. Bu jarayon tarixiy shaxslarning o'z davrlariga oid manbalar, turli xarakterdagi axborotlar tizimida uchraganidek, zamonaviy tarix, adabiyotshunoslik, badiiy adabiyot sohalarida ham ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати.-Тошкент: Ўқитувчи, 1979, Б. 128.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.-Тошкент: Akademnashr, 2010, Б. 313.
3. Философский словарь. Под редакцией И.Т.Фролова.-Москва: Издательство политической литературы, 1987, С. 179.
4. Боров Ю. Эстетика.-Москва: Издательство политической литературы, 1981, С. 222-223.
5. Веселовский А.Н. Историческая поэтика.-Москва: Высшая школа, 1989, С.
6. Навоий асарлари луғати.-Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
7. Yusuf V. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati.-Toshkent: "Sharq", 2010.
8. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент: "Шарк" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2002, Б. 87.
9. Ғиёсиддин бин Хумомиддин Хондамир. Буюклик хислати. "Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар".-Тошкент: "Шарк" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2011, Б. 3.
10. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. -T.: Akademnashr, 2018. - B.139-140.



UDK:811.1

Zilola SHUKUROVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD

E-mail: zilolashukurova7616@gmail.com

NamDU dotsenti, f.f.n M.Sulaymonov taqrizi asosida

ANTOLOGIYA GENEZISI VA KLASSIFIKATSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada antologiyaning genezisi, rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek ubda antologiyalar mavzusiga ko'ra turlarga bo'linib, misollar bilan asoslab ko'rsatishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Antologiya, Meleagr, adabiyot, to'plam, guldasta, she'r, an'ana, bayoz, shoir.

ГЕНЕЗИС И КЛАССИФИКАЦИЯ АНТОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье анализируется генезис антологии, этапы развития. Также антологии разделены на типы по тематике и предпринята попытка продемонстрировать их на примерах.

Ключевые слова: Антология, Мелеагр, литература, сборник, букет, поэма, традиция, баяз, поэт.

GENESIS AND CLASSIFICATION ANTHOLOGY

Annotation

This article analyzes the genesis of the anthology, the stages of development. Also, anthologies are divided into types according to the topic, and an attempt was made to demonstrate them with examples.

Key words: Anthology, Meleagr, literature, collection, bouquet, poem, tradition, bayaz, poet

Kirish. Dunyo adabiyotida ko'p uchraydigan to'plamlardan biri antologiyalardir. Antologiyalar bir necha shoirlarning ijodini bir joyda jamlay olishi bilan ahamiyatga molik. Shu sababli bu to'plam dunyoning turli burchaklarida keng tarqalgan. Xususan, o'zbek adabiyotida ham antologiyalarning kirib kelishiga ko'p asr bo'lmagan bo'lsa-da, har xil mavzudagi antologiyalarni uchratish mumkin. Bugungi kunga kelib turli sohalariga bag'ishlangan antologiyalarni uchratish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu to'plam turning paydo bo'lishi uzoq o'tmishga borib taqalib, ko'pgina tadqiqotchilar antologiyalarning kelib chiqish tarixi, taraqqiyoti, rivojlanish omillari va shu kabi masalalarga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borishmoqda. E.V.Smirnova antologiya atamasiga ta'rif berar ekan "ma'lum bir davr, oqim, yo'nalish, mamlakat va boshqalar adabiyotini aks ettiruvchi, shu jumladan, eng qimmatli asarlarni o'z ichiga olgan va ushbu sohada yozilgan narsalarning eng yaxlit tasvirini beradigan tanlangan asarlarning jamoaviy to'plami" [15] deb ataydi.

Manbalarda keltirilishicha, antologiyaning kelib chiqish tarixi uzoq o'tmishga borib taqalib, uning vatani hozirgi Suriya hududiga tegishli Gadar degan joyda yaratilgan. Yunon tilida "guldasta" [9], [10], [11] deb ataluvchi ushbu to'plam "er.avv 2000 yillik tarixga ega. Bu terminning ishlatilishi esa ilk marotaba er.avv 1000 yillikdagi manbalarda uchraydi"[15], aniqrog'i er.avv 60-70 yillar oralig'ida.

Unga ko'ra Meleagr nomli shoir qarilik chog'larini Kso orollarida o'tkazib, o'sha yerda jami 48 ta shoirning ijodidan tarkib topgan (o'zining ijodini ham qo'shganda) 130 ta epigrama (qisqa satirik she'r)dan iborat to'plam tuzadi" [15]. Ushbu to'plamda o'ziga qadar yashab o'tgan ijodkorlarning she'rlarini kiritish bilan birga u bilan zamondosh bo'lgan shoirlarning nomlarini ham keltirgan. Mazkur to'plam ikki jihatiga ko'ra diqqatga molik: avvalo, shoirlarni joylashtirishda qat'iy prinsipga amal qilingan. Ya'ni she'rlar birinchi misradagi birinchi harfiga ko'ra alfavit

tartibida joylashtirilgan. Bu esa to'plam tuzish an'anasi Meleagra qadar shakllangan degan farazni paydo qiladi. Meleagr ushbu to'plamning kirish qismida antologiyada kiritilgan barcha shoirlarning ismini keltirib o'tadi.

Ikkinchidan, o'sha davr adabiyotida she'rlarni gullarga o'xshatish an'anasi mavjud bo'lgan. Shoir esa ana shu an'anaga yangicha yondashuv asosida ish ko'radi. Ya'ni u she'rlarni emas, shoirlarni gulga o'xshatadi va bu jihati bilan yangi an'anani kashf etadi. Meleagr tomonidan tuzilgan ushbu to'plam keyinchalik butun Evropa tarqaladi. Xususan, "eramizning 40-yillarida Filipp Fessalonikiyskiy ham antologiya tuzib, Meleagr amal qilgan prinsip asosida yondashdi" [9].

Keyinchalik antologiya tuzish murakkablashib, ularga qo'yilgan talablar ham o'zgara bordi. Eramizning 900 yillarida Konstantin Kefal nomli shoir 4000 ga yaqin epigrammalarni to'plab, ularni mavzusiga ko'ra 16 ta turga bo'ladi. E'tibor berilsa, antologiyalarning prinsiplari shakllanib, yangi talablar qo'yilayotgan bo'lsa-da, asrlar davomida amal qilingan an'analar buzilgani yo'q. Ya'ni bu davrda ham antologiyalar epigrammalardan tuzilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. XIX – XX asrga kelib antologiyaning qamrovi kengaydi va uni tuzishda janriy xilma-xillik kuzatildi. Shakl tomondan esa ham nazmiy, ham nasriy yoki aralash turdagi antologiyalar yaratila boshlandi. Nafaqat shakldagi o'zgarishlar, balki fanning turli sohalariga bag'ishlangan antologiyalar ham paydo bo'la boshladi. Buni esa jamiyatda antologiyalarning gullab yashnagan davri deyish mumkin. Shu sababli uni o'rganish olimlarning diqqat e'tiborini torta boshladi. Xususan, D.Kuzmin antologiyalarni 4 turga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'radi: 1. To'liq antologiya – butun bir millat tarixini o'rganadi; 2. Qism antologiyasi – to'plamning nima haqida tuzilgani uning nomidan ko'rinib turadi. "Antologiya ruskogo verlibra"; 3. Mavzuga ko'ra antologiya. Masalan, janglar, din va h.k; 4. Muammolar antologiyasi – tuzuvchi tomonidan savol tariqasida qo'yilgan muammolar ketma-ket ochib borilaveradi [12]. D.Kuzminning

bu tasnifi keng qamrovli bo'lib, u antologiyalarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ularning sohalararo kengayish chegarasini aniqlash asosida kelingan xulosa samarasidir. Bizning maqsadimiz esa antologiyalarni sohalararo tarqalish holatini aniqlashtirish emas. Aksincha, adabiyot tarixida antologiyalarning o'rnini aniqlash bo'lgani sababli tor doirada tahlil qilishga harakat qilamiz:

Hududga ko'ra tuzilgan antologiyalar. Antologiyaning ushbu turida ma'lum bir davlat, hududda yashovchi tili, dini, qadriyatlari bir xil bo'lgan millatning uzoq o'tmishidan toki hozirgi kunga qadar yaratilgan adabiyot namunalari kiritiladi. Odatda ushbu turdagi antologiyalarda millat tarixiga oid og'zaki va yozma adabiyot namunalari eng saralari tanlanadi. Ushbu turdagi antologiyalarni tuzish millatning o'tmishi va kelakagini bog'lovchi muhim vosita bo'lib, kelajak avlodga millat tarixi haqida umumiy tasavvur hosil qiladigan ma'naviy mulk hisoblanadi. Masalan, XX asrning ikkinchi yarmida Moskvada seriali holda Rossiya imperiyasi hududiga qo'shib olingan davlatlar tarixiga oid bir necha tomlari antologiyalar nashr qilindi. Tili, dini, urf-odatlarini orasida kesishuv bo'lmagan ushbu imperiyaning boshqa millat tarixini yorituvchi katta hajmli kitobni chiqarishining sababi bu davlatlar imperiya tarkibiga qo'shib olingan hududlardan hisoblanardi. Ushbu antologiyalar turli millat og'zaki va yozma ijodidan iborat bo'lsa-da, to'planning asosiy tuzilishi o'xshash. Ya'ni ularning barchasida umumiy qolip – shoirlar haqida qisqacha ma'lumot va uning she'riyati berilgan. Asarning umumiy strukturasi ham barcha millat bo'yicha tuzilgan antologiyalar bilan bir xil (ayrim kichik farqlarni hisobga olmaganda):

Kirish. Tuzuvchining so'z boshi yoki shu millat vakili bo'lgan boshqa bir adabiyotshunosning kirish so'zi. Kitob va uning tarkibiy qismlari, dolzarbligi va shu kabilar yoritilgan;

Epos. Asosan shu millatning qahramonligini aks ettiruvchi, keyin esa sevgi-muhabbat va shu kabi mavzularda yaratilgan dostonlardan parchalar beriladi.

Klassik she'riyat. Yozma adabiyot namunalari saqlab qolingani ilk manbalardan toki XIX asrning 2-yarmiga qadar yaratilgan yozma namunalari;

Sovet davri she'riyati. XX asrning boshidan shu asrning 60 yillarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu ijod namunalari, asosan, sovet davri mafkurasi bilan sug'orilgan adabiyot materiallari hisoblanadi.

Antologiyaning ushbu strukturasi umumiy tuzilishi bo'lib, ba'zan ular ayrim jihatlariga ko'ra ular bir-biridan farqlanadi. Masalan, ayrim antologiyalarda shoirlarning she'rlari berilishidan avval shu shoirming hayotiga oid ma'lumotlar: tug'ilishi, vafot etishi sanasigina ko'rsatiladi [1], ayrimlarida shoirlarning avtobiografiyasida yuqoridagi ma'lumotga qo'shimcha ravishda ona yurti, qanday asarlar yozgani, adabiyotning qaysi yo'nalishida ijod qilgani xususida ma'lumot beriladi [2], ba'zilarida yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda kitob so'nggida lug'at ham ilova qilinadi [3].

Ayrim antologiyalarda kirish, xalq og'zaki ijodi bo'limidan keyin birdaniga XVIII-XX asrlar she'riyati beriladi. O'rtada bir necha asr adabiyoti ochiq qoladi. Shoirlarning she'rlari berilishidan avval ularning faqatgina tug'ilgan va vafot etgan sanalari ko'rsatiladi. Shoirlar haqidagi nisbatan to'liqroq ma'lumot esa kitob so'ngida berilgan ko'rsatgichda boyitiladi, lug'at ham ilova qilinadi [4], [5], [6].

Ma'lum davrni qamrab oluvchi antologiyalar. Bunda biror bir millat tarixini yorituvchi biror davr chegaralanib

olinib, shu davrga tegishli nasr va nazmdagi yozma adabiyotlarning sara namunalari kiritiladi. Masalan, "Zamonaviy Ozarbayjon she'riyati" nomli antologiya O'zbekiston va Ozarbayjon millatlari hamkorligida tuzilib, XX asr shoirlari haqida qisqacha ma'lumot beradi. Ushbu kitob faqat shoirlar ijodiga bag'ishlangan. Ularning orasida bugungi kunga qadar yashab faoliyat olib borayotgan adabiyotga yangi qadam qo'yayotgan yosh iste'dodli shoir va shoirlar ham kiritilgan. [14], [7], [13].

Mavzusiga ko'ra tuzilgan antologiyalar. Antologiyaning ushbu turida millat, hudud, davrning ahamiyati yo'q. Bunda tuzuvchi tomonidan biror-bir mavzu tanlanadi va shunga tegishli bo'lgan jahon durdonalar namunalari yig'iliadi. Yozuvchi yoki shoir haqida ma'lumotlar qisqacha bo'lgani holda uni qay tarzda berish tuzuvchining xohishiga bog'liq. Ba'zilarida ijodkor avtobiografiyasi tug'ilgan va vafot etgan sanasi bilan kifoyalansa, ayrimlarida unga qo'shimcha ma'lumotlar ham kiritiladi. Masalan, "Antologiya skazochnoy fantastiki"[14] to'plamida Evropa davlatlari yozuvchilarining sehirli fantastik hikoya va qissalari keltirilgan. Bunda yozuvchining qaysi hududda tug'ilganidan boshqa hech qanday ma'lumot berilmaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tahlillar shuni ko'rsatadiki, antologiyalar har bir davrning zamon talabidan kelib chiqib, xalqning tarixi, adabiy jarayoni kabilar haqida ma'lumot beruvchi adabiy manbadir. Antologiyalarning tuzilgan davriga qarab o'sha davrda adabiyot ahlining qiziqishlari haqida tahliliy ma'lumot olish imkonini bo'ladi.

XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshida yaratilgan antologiyalar ustida tadqiqot olib borgan V.V.Bajenova: "antologiyalar ma'lum bir davrning madaniy olamini modellashtirishda muhim rol o'ynagan, ko'pincha "muhim bosqichlarning o'zgarishini" belgilab, o'tmishdagi tajribaning badiiy yo'nalishlarini belgilab bergan va kelajakdagi rivojlanishni bashorat qilgan" degan muhim xulosaga keladi [8].

L.Kostyukovning fikricha, "Antologiya boshqa to'plamlarga qaraganda kuchli hoxish istak asosida tuzilganligi bilan ajralib turadi" [13]. Olimning ushbu qarashlari to'g'ri negaki, insonda biror istak bo'lmasa, uni amaga oshirishi qiyin. Antologiya hamda unga o'xshash barcha to'plamlar xalqning ana shunday adabiyotga muhabbati samarasida vujudga kelgan. Bu kabi to'plamlar adabiyot tarixida ko'p masalarni oydinlashtirishga xizmat qiladi. Jumladan, adabiyotning rivojlanish bosqichlari, unga ta'sir qilgan omillar, turli xalqlar adabiyoti bilan adabiy almashinuvlar kabi ko'plab masalalar yuzasidan tahliliy ma'lumot olish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, antologiya har bir davrning o'tmishi, adabiyoti, xalqning yashash tarzi haqida ma'lumot beruvchi manbalarning bir joyda yig'ilgan sara guldastalari to'plami. Ushbu to'plamlarning paydo bo'lishi tasodifiy hodisa bo'lmay, ma'naviy ehtiyoj samarasi o'laroq paydo bo'lgan. Bugungi kunda turli sohalariga bag'ishlangan antologiyalar tuzish va nashr qilish ishlari ko'lami kengayib, ushbu to'planning taraqqiyoti davom etib kelmoqda. Adabiyot sohasida esa davrga, mavzusiga ko'ra antologiyalar tuzish va tarbiyaviy-axloqiy jihatdan o'tkir ma'noli sara namunalarni kiritish kelajakda eng yaxshi milliy adabiyotimiz durdonalarini xalqqa yetkazishda muhim qadam bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Антология китайской поэзии. Ред. кол. – Москва. Государственное издательство художественной литературы. 1958. С 342.
2. Антология узбекской поэзии. Ред. кол. –Москва. Государственное издательство художественной литературы. 1950. С 508

3. Антология киргизской поэзии. Ред. кол.– Москва. Государственное издательство художественной литературы. 1957. С 444
4. Антология казахской поэзии. Ред. кол. 1 том. – Москва. Государственное издательство художественной литературы. 1957. С 874.,
5. Антология азербайджанской поэзии. Ред. кол. 1 том. – Москва. Государственное издательство художественной литературы. 1960. С 388.,
6. Антология кабардинской поэзии. Ред. кол. 1 том. – Москва. Государственное издательство художественной литературы. 1957. С 311.
7. Антология сказочной фантастики. Составитель: Е.Ванслова. 21 том. –Москва. Молодая гвардия. 1971. С385
8. Баженова В. В. Русский литературный сборник середины XX - начала XXI века как целое : альманах, антология : автореф. дис. ... канд. филол. наук. Новосибирск, 2010. С. 9.
9. Верина У.Ю. Современная поэтическая антология: генезис, типология. Ученые записки Орловского государственного университет 2016 №1 С 74.;
10. Пермяков А. “Время антологий, или мечта об идеале”. Время антологий, или Мечта об идеале — Журнальный зал (gorky.media) 25.09.2023.;
11. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. 32-б.;
12. Кузьмин Д. В зеркале антологий. Опубликовано в Журнале Арион, № 2, 2001. В зеркале антологий — Журнальный зал (gorky.media) 25.09.2025 кўрилди
13. Костюков Л. Антология как вопль. Арион журнал №2 2001 Антология как вопль — Журнальный зал (gorky.media)
14. Zamonaviy Ozarbayjon she'riyati antologiyasi. Tuzuvchi: Quli Kangari. – Toshkent: Extremum-press. 2016. B 336
15. Смирнова Ю.В. Антология как разновидность поэтического сборника. Кан. фил. наук. дисс...автореф. – Москва, 2003. Диссертация на тему «Антология как разновидность поэтического сборника», скачать бесплатно автореферат по специальности ВАК РФ 05.25.03 - Библиотечковедение, библиографоведение и книговедение (dissercat.com)
16. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BD%D1%82%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F> 25.09.2023 йил кўрилди.



UDK:811.1

Mohidil EGAMBERDIYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

O'z DJTU professori, filologiya fanlari doktori D.Teshabayeva taqrizi asosida

MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK PARADIGMASI

Annotatsiya

Joriy maqolada madaniyatlararo munosabatlar, o'zaro muloqotda nutqiy madaniyat, ya'ni nutqiy etiketning antroposentrik paradigmasi haqida so'z boradi. Maqolada shuningdek, nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi va madaniyatlararo muloqot tilshunoslik, madaniyatshunoslik fanlarining tadqiqot obyektlaridan hisoblanganligi sababli bu ikki faning antroposentrik paradigma haqidagi ilmiy hulosalar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Antroposentrik, obyekt, muloqot, nutqiy etiket, tamoyil, verbal muloqot, psixolingvistika, sotsiologiya, paradigma, layoqatlar kompleksi.

THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM OF SPEECH ETIQUETTE IN INTERCULTURAL COMMUNICATION

Annotation

The current article will consider intercultural relations, speech culture in mutual communication, the anthropocentric paradigm of speech etiquette. The article also studies the specific features of speech etiquette, and since intercultural communication is one of the research objects of linguistics and cultural studies, the scientific conclusions about the anthropocentric paradigm in these two disciplines are also analyzed.

Key words: Anthropocentric paradigm, object, communication, speech etiquette, principle, verbal communication, psycholinguistics, sociolinguistics, competence complex.

АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКАЯ ПАРАДИГМА РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация

В данной статье говорится о межкультурных отношениях, культуре речи во взаимном общении, антропоцентрической парадигме речевого этикета. В статье также изучаются особенности речевого этикета, а поскольку межкультурная коммуникация является одним из объектов исследования языкознания и культурологии, анализируются и научные выводы об антропоцентрической парадигме в этих двух дисциплинах.

Ключевые слова: Антропоцентрическая парадигма, объект, общение, речевой этикет, принцип, речевое общение, психолингвистика, социоллингвистика, компетентностный комплекс.

Kirish. Keyingi yillarda dunyo tilshunosligida tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqiy faoliyati, ruhiyati, ijtimoiy holati, yoshi, jinsi kabilar bilan bog'liq holda o'rganishga, tilning inson nutqiy faoliyati jarayonida kuzatiluvchi funksional imkoniyatlari tadqiqiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida o'tgan asrning oxirida tilni shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganish metodologiyasiga asoslangan va o'ziga xos tahlil usullariga ega antroposentrik tilshunoslikning turli yo'nalishlari ajralib chiqdi. Bugungi kunda kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, neyrolingvistika kabi mazkur yo'nalishlar o'z tadqiq obyekti, predmeti, aniq qo'yilgan maqsad, vazifalari, tahlil usullariga ega [1].

Tilshunoslikdagi antroposentrik yo'nalish inson mohiyatini til bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqadi. Ma'lumki, til va inson tabiatining o'zaro bog'liqligi til falsafasining asoschisi bo'lgan buyuk nemis olimi, faylasufi, tilshunos Vilgelm Gumboldt g'oyalaridan boshlangan. Olimning so'zlariga ko'ra, til insoniyatning olamga bo'lgan ma'naviy munosabatini belgilaydigan, ruhiy ijodiy ishlarining uzluksiz jarayoni deb hisoblanadi. Tilning insoniyatni bilishidagi roliga alohida e'tibor berib, u tilni insonning ma'naviy va ijodiy individualligini, ularning o'z taqdirini o'zi belgilashi va ichki o'zini o'zi rivojlantirishini belgilaydigan omillardan biri deb ataydi. Gumboldt o'zining lingvistik-falsafiy asarlarida tilning rivojlanishini inson tabiatining ichki dunyosi bilan bog'liq deb hisoblaydi va u tezisini ilgari suradi, til va xalq ruhi ajralmas, bir xil va bir-biriga yaqin o'zaro

bog'liqlikda, bir xillikda vaqt birligi: "Til millatlar ruhining tashqi namoyonidir: millatning tili - uning ruhi, millatning ruhi - uning tili va shunga o'xshash narsani tasavvur qilish qiyin" [2]. Olimning fikriga ko'ra, bu birlikda xalq ruhi etakchi mavqega ega va aynan tilni shakllantirish tamoyili xalq ruhiga bog'liq. "Biz xalq ruhida tillarning farqlarini aniqlaydigan aniq belgilovchi prinsip va asosni ko'rishimiz kerak, chunki millatning ma'naviy kuchi faqat eng muhim va mustaqil asos bo'lib, til unga bog'liqdir" [3]. Shu bilan birga u xalq ruhi faqat til yordamida namoyon bo'ladi degan fikrni quyidagicha ifodalaydi: "Millat ruhi va fe'l-atvori yuzaga chiqadigan barcha ko'rinishlar orasida faqat til o'ziga xos va nafis ifoda eta oladi. millat ruhi va fe'l-atvorining xususiyatlari va ularning ichki sirlariga singib boradi". Olim tomonidan ilgari surilgan taxminlar insonning mohiyati, uning ruhi tilga asoslanganligi, unda dunyoning inson tomonidan talqin qilinishi amalga oshirilayotganligi, shuning uchun ham til odamlarning fikrlash uslubi ekanligi bilan bog'liq.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham "Endigi vazifamiz - ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, ilmfanni, ilmiy-innovatsion faoliyatni barqaror rivojlantirish" deganda aynan shunday tadqiqotlar zarurligini nazarda tutgan edilar[4].

Madaniyatlararo muloqotning shaxsiga bo'lgan ijobiy va salbiy ta'sirlari yuzasidan izlanishlar o'tgan asrning 60-yillarida Amerika olimlari tomonidan boshlangan. Muloqotga kirishishni to'g'ri amalga oshirish uchun o'z madaniyatini boshqa xalq madaniyati bilan faqatgina solishtirib qolmasdan,

o'sha madaniyatning o'xshashligi va farqlari, go'zalligi va qo'polligi, yaqinligi va o'z madaniyatidan yiroqligi o'rtasida mutanosiblikni belgilab olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fransuz sosiologi Karmel Kamilyerining izlanishlari madaniyatlararo muloqot jarayonidagi aynan mana shu jihatlariga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Jahon tilshunosligida nutqiy muloqot, nutqning ijtimoiy ahamiyati, uning vazifalari, nutq odobi, uning nutqiy muloqotdagi o'rni kabi muammolarga juda ko'p e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda tilshunoslarning shaxslararo verbal muloqot va odamlarning bir-biri bilan o'zaro muloqoti muammolariga qiziqishlarining tobora ortib borayotgani sababli til egalari nutqiy faoliyatining har qanday shaklini hamda ularning kommunikativ va pragmatic xususiyatlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda mamlakatimizda o'zbek tilshunosligining diqqat markazida turgan antroposentrik tamoyil asosida psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalogik (uning bir qancha turlari: fonopragmatika, morfopragmatika), shuningdek, nutqiy akt nazariyasi kabi tarmoqlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Natijada muloqot, shaxslarning o'zaro muloqotga kirish jarayoni, muloqotni saqlab qolish, muloqotni yakunlash kabi ko'rinishlarining ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib berish, mulozamat, iltifotni fatik muloqotning bir janri sifatida o'rganish zarurati sezilmoqda. Bu borada "Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash vazifasi" sifatida tilshunoslikda turli ilmiy tadqiqotlar, amaliy tajribalar olib borish va o'tkazish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda nutqiy etiket birliklarining o'quv lug'atlarda berish mezonlarini yoritib berish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbek tilida nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar – affiksalar, leksik birliklar, turg'un birikmalarni tilshunoslikning zamonaviy paradigmatlari ko'zgarida o'rganish va muloqot madaniyatini shakllantirishning zaruriy vositalaridan bo'lgan nutqiy etiketlar o'quv izohli lug'atini tuzishning lingvistik, pedagogik va psixologik mezonlarini aniqlash, etiketlar o'quv izohli lug'ati uchun so'zlikni shakllantirish va leksikografik talqin qilish masalalari juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ma'naviyat tildan, til madaniyatidan boshlanadi. Tilning mavjud barcha vositalari va ularning imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda o'rinni, to'g'ri foydalangan holda tuzilgan nutq madaniy nutqdir. Nutq madaniyati ana shu tilni, aloqa aralashuv qurolini qanchalik mahorat bilan ishlatishga bo'lgan munosabatdir.

Til etiketi yoki nutqiy etiket salomlashish jarayonida, ruxsat so'ralganda, biron narsa so'rash maqsadida, biror kishiga murojaat qilganda to'g'ri intonatsiyadan foydalangan holda xushmuomalilik bilan ishlatiladigan iboralar va so'zlardir. Muloqot jarayonida ishlatiladigan har bir so'z yoki ibora millat madaniyatini ko'rsatib turadigan oyna hisoblanadi. Shunday ekan nutqiy etiket bu jamiyatning, qolaversa millatning bir bo'laki hisoblanadi va shu bilan bir qatorda o'zgaruvchidir. Biroq, adabiy til zamonaviy tilga nisbatan konservativdir. Bu, til vositalarini tanlash va sinchkovlik bilan tekshirish bilan bog'liq bo'lgan uzoq jarayon hisoblanadi.

Muloqot – insonning jamiyatdagi faoliyatida, o'sishi, turli munosabatlarni o'rnatishida muhim vositadir. Nutqiy etiket esa turli vaziyatlarda suhbatdosh bilan aloqa o'rnatish, uni istalgan maqsadda davom ettirish va yakunlash borasidagi turli qoidalarni jamlanmasi hisoblanadi. Madaniy aloqa, ko'nikmalarini rivojlantirish uchun nutqiy etiket qoidalari maydonga keladi. Nutqiy etiket birliklari muloqot jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u suhbatdoshning diqqatini jalb etibgina qolmay, nutq egasining individual munosabatini ko'rsatish xususiyatiga ham ega. Bugungi kunda nutq birliklaridan amaliy foydalanishni ilmiy o'rganish, jumladan,

nutq odobiga oid birliklarning pragmalogik xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb masala bo'lmoqda. Etiket – axloqiy madaniyatda yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlarning ko'rinishlaridan biri. U ko'proq insonning tashqi madaniyati, o'zaro munosabatlaridagi o'zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya'ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun qoidalashtirib qo'yilgan hatti-harakatni taqozo etadi. Etiketning o'ziga xos xususiyatlari nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik fanining ham tadqiqot obyektlaridan hisoblanadi. Bu esa o'z o'zidan ikki fan jihatlarini o'rganagan holda antroposentrik paradigma yaratish imkoniyatini beradi.

Etiket keng qamrovli tushuncha bo'lib, u, ma'lum ma'noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. Antroposentrik nutqiy paradigmaning asosiy talablaridan yana biri aytilmoqchi bo'lgan muddaoning tinglovchiga to'g'ri va aniq borib yetishi, ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi hamda bu masalalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo'yiladi, bu esa kommunikativ aspekt muammolaridan hisoblanadi. Nutkiy etiket deyilganda, so'zlashuv odobi qoidalari tartibga soluvchi milliy, o'ziga xos stereotiplar, suhbatdosh bilan aloqa o'rnatish, aloqani tanlangan tonallikda davom ettirish yoki tugatish uchun qabul qilingan formulalari nazarda tutiladi[5].

Tilni bilish bu o'sha tilda so'zlashuvchi xalq vakillari bilan to'liq muloqotga kirisha oladi, degani emas. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, til va madaniyat, xalqning an'analari, kundalik turmush tarzi tilni o'rganish, tilda gapirish va tilni tushunishga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda esa madaniyatlararo muloqotni shakllantirish hozirgi kundagi tillarni o'rganishda e'tibor qaratilishi muhim bo'lgan omil hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotni shakllantirishda har bir shaxsning alohida ijtimoiy va psixologik xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olish zarur. Bu xususiyatlar esa faqatgina bir-biriga taqqoslash orqaligina namoyon bo'ladi va bu qiyoslashni amalga oshirish uchun madaniy aloqa bo'lishi kerak. Madaniy muloqot har bir shaxsning o'ziga xos va shu bilan birga boshqa shaxslarga, boshqa millat vakillariga o'xshash ekanligini namoyon qilishga xizmat qiladi va shu orqali inson jamiyatda o'z mavqei va o'rini belgilab oladi. Til o'rganish orqali shaxs o'z madaniyatini shakllantirishi, insoniy fazilatlarini takomillashtirishi, boshqa xalq madaniyatini tushunish orqali hozirgi davrda muhim bo'lgan tolerantlik fazilatlariga ega bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi sanab o'tilgan omillarni hisobga olib aytishimiz mumkinki, chet tillarni o'rganish bu insonlar va turli millatlar o'rtasidagi mavjud to'siq va chegaralarni bartaraf etishga, yer yuzidagi yashovchi barcha xalq vakillarining birbirlarini to'g'ri tushunishlariga, hamjihatlik va o'zaro murosada yashashlariga ham xizmat qiladi. Shu sababdan, ingliz tilini o'rgatishda va o'rganishda ingliz tilida so'zlashuvchi barcha davlatlarda yashovchi xalqlarning urf-odatlarining xilma-xil ekanligini, masalan, Buyuk Britaniya va AQSHdagi madaniyat bir xil emasligi, fransuz tilini o'rganishda esa Fransiya madaniyati, Kanada va Afrika davlatlari madaniyatlari bir-biridan to'laligicha farq qilishligini e'tirof etishlik talab etiladi. Chet tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirishda "madaniyatlararo kompetentlik" tushunchasiga urg'u beriladi. Bu atama orqali shaxsning ijtimoiy ko'nikma va layoqatlari kompleks tushuniladi va uning yordamida shaxs o'ziga madaniyat vakillari bilan ham ijtimoiy-maishiy, ham kasbiy o'zaro aloqa jarayonida muvaffaqiyatli muloqotni amalga oshiradi. Madaniyatlararo muloqotni shakllantirish o'ziga madaniyat vakillarining madaniy o'ziga xos stereotip shakllarini tushunish va qabul qilish bilan bog'liq, shaxsning o'z xulq-atvori o'zgarishiga olib keladigan individual rivojlanish

jarayoni hisoblanib, har qanday muloqot jarayonida yuqorida sanab o'tilgan me'yorlarga ko'ra muomalaga kirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, til ijtimoiy hodisa sifatida insonlar orasidagi muloqotni yo'lga qo'yishda, ma'naviy yuksalish, ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarga erishish imkonini beradi. Bularning natijasida til bir hududda yashaydigan turli millatlarning o'zaro muloqoti, turli munosabatlari va oqibatda madaniyatlararo munosabatlarni

yo'lga qo'yadi va shu jihatdan ham tillarni o'rganishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy ahamiyati katta. Shuningdek, madaniyatlararo muloqotning mohiyati mamlakatlar va etnik guruhlar, milliy guruhlar, diniy tashkilotlar va boshqalar o'rtasidagi munosabatni rivojlantirishdan iborat va bu globallashuv hamda mintaqaviylashtirish kabi jarayonlarning madaniyatlararo aloqalariga ta'sirini ko'rib chiqishda e'tiborga olish muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. AZZI Assaad E. et KLEIN O – (1998) - Psychologie sociale et relations intergroupes. - Paris, Dunod.
2. Lutfullayeva D.E. – (2017) - Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent. 3-bet.
3. Mo'minov S. - (2000) – O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy lisoniy xususiyatlari. – Toshkent. 46- bet.
4. Sh.M.Mirziyoyev- (2017) Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston. -168-174- betlar.
5. Xudoyberganova D – (2013) Matnning antroposentrik tadqiqi (Monografiya). – Toshkent. 11-13 bet.
6. <http://library.navoiy-uni.uz/files/usmanova.%20lingvokulturologiya.pdf>



UDK 391.1:4:44

Zarifa ESHMURODOVA,
Samarqand davlat universiteti (PhD)
Email: zarifa.eshmurodova@gmail.com

Dildora NORQO'ZIYEVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: norkuziyevadildor@gmail.com

PhD A.Xasanov taqrizi ostida

ETNOMADANIY LEKSEMALARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada xalq ogzaki ijodidagi etnomadaniy leksemalar xususida fikrlar keltirilgan. Xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyat oid etnografizmlari, ularning o'z navbatida leksik va semantik kichik guruhlariga bo'linganligini aniqlangan. Maqolada fransuz va o'zbek xalq dostonlarida uchragan o'simlik va hayvon nomlariga oid etnografizmlar va ularni ma'nolari xususida so'z boradi. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan etnomadaniy leksemalarning qadimda qanday ma'no anglatganligi, kelib chiqishi xususida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: moddiy madaniyat, folklor, etnografiya, Barbamush, Saragos, Oyko'l, Ko'kamish, Tansandor, Velyantif, Ganelon, Passeserf.

О НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ХАРАКТЕРИСТИКАХ ЭТНОКУЛЬТУРНЫХ ЛЕКСЕМ

Аннотация

В статье исследуется этнокультурные лексемы фольклора. В материальной и духовной культурной этнографии народов в документе определено, что ее смысловое регулирование делится на лексическое и побочное. В статье рассматривается этнография названий растений и животных, встречающихся во французском и узбекском народном эпосе, и их значения. Обсуждаются значение и происхождение этнокультурных лексем, сохранившихся до наших дней.

Ключевые слова: материальная культура, фольклор, этнография, Барбамуш, Сарагос, Ойкул, Кукамиш, Тансандор, Вельянтийф, Ганелон, Пассесерф.

ON NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF ETHNO-CULTURAL LEXEMAS

Annotation

The article examines ethnocultural lexemes of folklore. In the material and spiritual cultural ethnography of peoples, the document determines that its semantic regulation is divided into lexical and collateral. The article examines the ethnography of the names of plants and animals found in the French and Uzbek folk epics and their meanings. The meaning and origin of the ethnocultural lexemes that have survived to this day have been discussed.

Keywords: material culture, folklore, ethnography, Barbamush, Saragosse, Oikul, Kucamish, Tansandor, Veliantif, Ganelon, Passeserf.

Kirish. Etnomadaniyat atamasi ikki qismdan tashkil topgan bo'lib: etno va madaniyat so'zlari qo'shilmasidir. «Etnos» so'zi ilk bor qadimgi grek tilidagi manbalarda uchraydi. Etno – yunoncha elat, xalq demakdir va shu bilan birga, ma'lum bir elat yoki xalqqa bo'lgan ishora. Etnoslar milliy - ma'naviy madaniyatining o'zak qismiga xos birinchi belgi tildir. Jumladan, ma'lum bir xalqning tashkil topishida til birligi bosh rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi bir elatning shakllanish jarayonida xo'jalik, uchinchisida esa moddiy madaniyat yetakchi belgi bo'lgan.

Til deganda ikki ma'no anglashiladi: birinchisi – ma'lum bir xalqqa, etnosga xos tarixiy-madaniy hodisa, ikkinchisi – milliy ma'naviy madaniyatni o'zlashtirganlik darajasi. Xalqlarning millat bo'lib uyushuvda ko'pgina etnik guruhlarining ishtirok etgani ma'lum. O'zbek millati o'z etnik tarkibining serqirra va murakkabligi bilan boshqa turkiy xalqlardan, fransuz millati esa boshqa roman tillar guruhiga mansub xalqlardan ajralib turadi. Bu hol fransuz va o'zbek tillarining ko'p shevali til bo'lishiga ham asos bo'lgan. Bu shevalar xalq yashovchi hududda va undan tashqarida yashovchi turli etnoslarning mahalliy tillaridir.

Millat tafakkurining o'ziga xos jihatlarini belgilashda muhim mezon vazifasini bajaradigan etnografik leksika zamirida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ajdodlarimiz

iqtidorining tarixiy ildizlari va tadjriy rivoji mujassamlashgan. Ma'naviy qadriyatlarimizning siyosiy-ijtimoiy, falsafiy, ilmiy mohiyatini talqin qilish ajdodlarimiz iqtidorining sarchashmalaridan keng ko'lamda bahramand bo'lish imkonini beradi. Zero, «Bugungi kunda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo'ymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o'z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo'ydik. Bu ulug' maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo'lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz. Ayni shu nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'yalaymanki, katta ahamiyatga ega» [Mirziyoyev 2018]. Darhaqiqat, urf-odatlar turli xalqlarni bir-biridan ajratib turuvchi muhim belgilar sirasiga kirishi bilan ularni chambarchas bog'lab turadigan jarayon hamdir. Etnomadaniy leksemalar sistemaviy tahlilga yetarlicha tortilmaganligi leksik tizimda alohida maydonni tashkil etgan etnomadaniy

leksemalarni monografik planda tadqiq etish lingvistik birliklarning o'zaro munosabatini ochishga, ularni qiyosiy tadqiq etishga qulay imkoniyat yaratadi. Demak, etnomadaniy leksemalarning ichki tuzilishi va tuzilish birliklari o'rtasidagi xilma-xil munosabatlarni ochish ham hozirgi tilshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega.

Etnomadaniy leksemalarni tadqiq qilish lahja va shevalarning tarkibi va lisoniy xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot olishga ko'maklashadi. Etnomadaniy leksemalarning aksariyati xalq tilida uzoq o'tmishda yuzaga kelgan nomlardir. Shu sababli qabila, urug' va ularning shaxobchalari nomlarida ko'pgina qadimiy tillarga, uning uzoq o'tmishiga oid leksemalar saqlanib qolgan. Demak, har bir xalqning etnomadaniy leksemalari va boshqa etnomateriallari millatning lingvomadaniy leksikasi sifatida ko'zga tashlanadi. Bu manbalar sheva leksikasida, maqol va matallar, frazeologizmlarda, tarixiy-badiiy asarlarda, xalq og'zaki ijodi materiallarida saqlanadi [Karipjanova, Abikenova: scienceph.ru /d/413259/d/...].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Keyingi yillarda jahonda etnomadaniy leksemalarni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish bo'yicha qator maxsus tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jahon va rus tilshunosligida mavzuga oid salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan Emil' Dyurkgeym [Dyurkgeym 1996], Marsel Moss [Moss 2011], Herber Norris [Norris 1999: 485], Florent Veniel [Veniel 2008], Tomas Miller [Miller 1979], rus olimlaridan T.Shepanskaya [Shepanskaya 2010], N.Shalotkina [Shalotkina 2007], C.Golubev [Golubev 1982] sohaga o'zining hissalarini qo'shganlar.

Fransuz tilshunosligida «Roland haqida qo'shiq» dostoni fransuz tilshunoslari Francis Mishel [Michel 1837], Ferdinand Bruntyer [Brunetiere 1890], Jozef Bede [Bédier 2004], Kristofer Lakken [Lucken 2014], Mat'yu Diyu [Dijoux 2015] va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

K.Mustaev [Mustayev 1994], S.Ismatov [Ismatov 2010] kabi tilshunoslari fransuz eposining til xususiyatlarini o'rganganlar. M.Jo'raeva [Jo'rayeva 2016] fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasini, O.Xolmurodova [Xolmurodova 2020] ingliz va o'zbek ertaklarining qiyosiy-tipologik jihatlarini, S.Qo'chqorova [Qo'chqorova 2022] o'zbek va fransuz ertaklarida madaniy ramzlarning kommunikativ-pragmatik rolini tadqiq qilganlar.

O'zbek tilshunosligida etnografik leksika va hududiy o'ziga xosligi masalasi ancha chuqur o'rganilgan [Mirzayev 1971; Jo'raboyev 1971; Xusainova 1984; Bobojonov 1997; Qahhorova 2009; Berdiyev 2017].

Tadqiqot metodologiyasi. Etnomadaniy leksemalarni tadqiq qilish lahja va shevalarning tarkibi va lisoniy xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot olishga ko'maklashadi. Etnomadaniy leksemalarning aksariyati xalq tilida uzoq o'tmishda yuzaga kelgan nomlardir. Shu sababli qabila, urug' va ularning shaxobchalari nomlarida ko'pgina qadimiy tillarga, uning uzoq o'tmishiga oid leksemalar saqlanib qolgan. Demak, har bir xalqning etnomadaniy leksemalari va boshqa etnomateriallari millatning lingvomadaniy leksikasi sifatida ko'zga tashlanadi. Bu manbalar sheva leksikasida, maqol va matallar, frazeologizmlarda, tarixiy-badiiy asarlarda, xalq og'zaki ijodi materiallarida saqlanadi [Karipjanova, Abikenova: scienceph.ru /d/413259/d/...]. Fransuz va o'zbek etnomadaniy leksemalari uzoq davr taraqqiyotini boshidan kechirgan bo'lib, ularda qadimiy qabila va urug'lar, ularning ko'hna davr ajdodlari amal qilgan urf-odatlar, falsafiy-diniy e'tiqodlar, qadimiy madaniyat izlari, so'z yasallish modellari va usullari o'z ifodasini topgan.

Etnomadaniy leksemalar haqidagi ma'lumotlar qadimiy yunon va xitoy manbalarida, keyinchalik boshqa til birliklarida saqlanib, bizgacha yetib kelgan. Etnomadaniy leksemalarni avaylab-asragan, e'zozlab avloddan-avlodga

meros qilib qoldirgan bu xalqning o'zidir. Ma'lumki, oila, avlod mansub bo'lgan urug', qabila nomlari yozuv paydo bo'lgunga qadar og'zaki usulda yod olish yo'li bilan avloddan-avlodga meros sifatida o'tgan bo'lsa, keyinchalik yozuv orqali shakllangan.

Tahlil va natijalar. Turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida orintologik terminlarning yuzaga kelishi tarixi va semantik taraqqiyotiga doir D.X.Bozorova, K.Ibragimov, D.Yo'ldasheva singari olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ularning juda ko'p turlari xususida atroflicha mulohazalar yuritiladi [Bazarova 1978; Ibragimov 1974: 37-47]. Jumladan, D.X.Bozоровaning qayd etishicha, birgina «Devonu lug'otit turki» asarining o'zida qushlarning yuzdan oshiq turlari tilga olinadi.

III. 30. Vous lui donnerez des ours et des lions et des chiens, sept cents chameaux et mille autours sortis de mue, quatre cents mulets dor et dargent chargés, cinquante chars dont on formera un charroi: il en pourra largement payer ses soudoyers // Unga sovg'a qiling ayiqlar, sherlar, itlar, yetti yuzta tuya, minglab lochinlar (qirg'iyalar), tilla va kumush ortilgan to'rt yuzta xachir, elliktacha arava. Undan bir karvon hosil bo'ladi: u o'z tomoniga og'dirish uchun ularni to'lashi mumkin bo'ladi (R.28).

CCLV. Ceux dOcciant braient et hennissent, ceux dArgoille glapissent comme des chiens // Oksiantdan kelga askarlar baqiradilar, kishnaydilar. Argoildan kelgan askarlar esa itlar kabi akillaydilar (P.2). Ya'ni bu vaziyatda Karlga qarshi kurashuvchilarni pastga urish va haqoratlash maqsadida mana shunday o'xshatishlar qo'llangan.

CXXXII. Ils nous enterrent en des aîtres déglises; nous ne serons pas mangés par les loups, les porcs et les chiens» Roland répond: «Seigneur, vous avez bien dit» // Ular bizni boshqa cherkovlarga dafn qilishadi; bizlar hech bo'lmasa bo'rilar, cho'chqalar va itlarga yem bo'lmaymiz. Hazrat siz to'g'ri aytyapsiz» (P.11). Arxiepskop Rolandga va uning askarlariga qarata «jangni to'xtatish», «qon tukmaslik» «bo'ri, cho'chqa va itlarga yem bo'lmaslikka» chaqirishga da'vatida bo'ri, cho'chqa, it metaforik birlik sifatida qo'llangan.

CXVI. Il monte le cheval quil appelle Barbamousche, lequel est plus rapide quepervier ou hirondelle // U Barbamush (Barbamousche) ismli otiga minadi, bu ot qaldirg'och va qirg'iy (lochin) dan ham ko'ra uchqir edi (P.6). Bu tasvirda Saragossalik (Saragosse) askar (Rolandni do'sti) ning otining uchqurligi lochindan ham uchqurroq ekanligiga urg'u beradi.

«Alpomish» dostonida ham keng qo'llangan quyidagi qush nomlari, zamonaviy tilda nisbatan passivligi bilan ajralib turadi: Italg'u /itilgi - lochinsimonlar oilasiga mansub yirtqich ov qushi. U saksak qush deb ham yuritilgan. Eski o'zbek va boshqa turkiy tillarda:

tuyg'un/tuyqar - oq shunqor, yirtqich ov qushi. Qarqara - eski o'zbek va boshqa turkiy tillarda qarqara qirg'iyisimon yirtqich qush. Suqsur - o'rdakning yovvoyi turi. So'na - yovvoyi yoki xonaki o'rdak.

Dostonda hayvon nomi bilan bog'liq etnomadaniy leksemalar miqdori ham ancha salmoqli bo'lib, ulardan quyidagilar til tarixida faol so'zlardan bo'lgan: Moya - eski o'zbek va boshqa turkiy tillarda tuya va tuya bolasi; qirg'iz tilida: bir o'rkachli tuyaning alohida turi moya deb yuritilgan. Luk - turkiy tillarda lug'lyk/lok - yuk ortishga mo'ljallangan bir o'rkachli, taqir yungli tuya (Bud. I. 276.; NAL, 342). Qarsaq - qadimgi turkiy tilda qarsaq, oq qarsaq (DTS. 425), qirg'iz tilida qarsaq /xarsak - odatdagilardan kichik cho'l tulkisi (Bud. II, 9). Masalan, Uchirgan suqsuring Oyko'l qo'nibdi, // To'qson g'ajir o'rta olib turibdi (A.101). Meni bilsang, Qo'ng'iro't elning to'rasi // Ko'kamish qo'lidan suqsur uchirdim, // Lochinni izlagan lochin bo'laman (A.100). Yana yo'lda seni lochin ko'rmasin, // Lochin ko'rib boz changiga olmasin, // Yurishingni olg'ir qushlar ko'rmasin, // Oqshom yurgin, seni lochin bilmasin (A. 233).

Ikkala xalq dostonida ham otlar ilohiyashtirilgan va ularga nom qo'yilgan. Asardagi qahramonlar - Karlning oti - Tansandor (sho'x, o'ynoqi); Rolandning oti - Velyantif, («veiller» fe'lidan hosil bo'lgan - «hushyor bo'lmoq» («hushyor», «sergak») yoki «vieil» - «eski» va «antif» - «qadimiy»); Ganelonning oti - Toshbrun (jigarrang olma) sifatlaridan shakllangan. Manbada keltirilgan iqtiboslar masalani oydinlashtiradi: CVII. Le comte Gerin monte le cheval Sorel, et son compagnon Gerier, Passecerf // Graf Gerin Sorel ismli otga uning hamrohi Gerie esa Passeserf ismli otga mindilar (R.3). CLVIII. Le comte Roland, quand il les voit venir, se fait plus fort, plus fier, plus ardent. Il ne leur cédera pas tant qu'il sera en vie. Il monte le cheval qu'on appelle Veillantif // Qarshisida kelayotganlarni ko'rib graf Roland yanada kuchliroq, mag'rurroq va shijoatliroq bo'ldi. Velyantif otiga shaxt bilan o'tirdi (mindi) (R.3). CLX. Pourtant, ils lui ont blessé Veillantif de trente blessures; sous le comte ils l'ont abattu mort // Taxminan ular Velyantifni o'ttizta joyidan yaraladi; shunga ham qanoat qilmasdan o'lgan otga yana xanjar urdilar (R.4). Roland o'limidan so'ng uning qilichi ham, oti ham dushman qo'lida qolmasligi uchun ularni yo'q qilishgan.

«Alpomish» dostonida ham Boychibor obrazi yetakchi mavqeda turadi. Dostonida Boychibor obrazini talqin etiluvchi qadim mifologik ot obrazi sifatida ota-bobolarimizning azaliy orzusi bo'lmish afsonaviy tulporga taalluqli sifatleri hamda ajdodlarimizning ot naschiligi tajribalari, malakalari zamirida shakllangan, deb baholangan. Ya'ni, jangovar ot qahramonni mavjud olamlar bilan bog'laydi. Bu xususda Hodi Zarifov batafsil to'xtalgan [Zarifov: 65-89]. Dostonlar talqinida epik qahramon va epik otning taqdir yo'li bir-biriga uyg'un rivojlanadi:

1. Alpomish-Roland va Boychibor-Velyantif g'ayritabiiy tarzda dunyoga keladi.

2. Har ikki obraz ham doimiy ravishda epik homiylar ko'magida, nazarida bo'ladi.

3. Qahramonlarning alplik – sohibqironlik yaroq-aslahalariga, otning asl tulporlik abzallariga ega bo'lishi.

4. Qahramon va otning jasorati.

5. Qahramon va otning barobar asl makonlariga ketishlari.

6. Baxshilarning qahramon va ot shuhratini qo'shiq qilib kuylab avloddan-avlodga o'tkazishlari.

Dostonlardagi afsonaviy otlar nafaqat xalq og'zaki ijodida, balki toponimlarda (Xazorasp), diniy e'tiqodda (totemistik tasavvurlar) ham namoyon bo'lgan. Bu esa, O'rta Osiyoda qadimgi davrlardan yilqichilik rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu sababli o'zbek tili leksikasida ko'plab yilqichilik uyurlari, sifatli ot navlari, yilqilarning yoshi, turi, rangi, vazifasiga ko'ra nomlanishi, ot abzallarini bildiruvchi etnomadaniy leksemalar saqlanib qolgan.

Otlarning yoshi asosida yuzaga kelgan ELlar: Do'non - to'rt yoshga to'lgan ot, qoramol, tualarga nisbatan

qo'llanilgan, masalan, Tulporliging boshidan bildim // Do'noningda abzal soldim (A.182). G'o'non - uch yoshli ot, qo'y shunday atalgan [Raximov 2006: 63-64]. Toy - yangi tug'ilgan ot bolasi ma'nosini ifoda etadi. Qulun - urg'ochi va erkak bir bahorga kirgan toycha. Masalan, Xurjun-quloq ortib yurgan toyim bor // Toy ham bo'lsa bosh otiga bo'lami (A.262).

Otlarning rang-tusiga ko'ra yuzaga kelgan ELlari: To'rig' - qora-qizil qo'ng'ir tusli ot. H.Zaripovning izohiga ko'ra, yoli tikroq, ikki tomonga tushgan tarzida ma'no ifoda etadi. Chovkar – ola-bula, qora xolli ot. G'iro't - dumi va yoli ola-bula tusli qora ot. Masalan, Tepaning boshida Yusuf tal'atli, Rustam sifatli, bir chovkar otli biron yonboshlab yotibdi (A.99).

Jismoniy layoqati va nasli asosida yuzaga kelgan ELlari: Arabi ot yoki aspi tozi – arab zotli chopqir ot. Bedov - chopqir yengiloq ot. Bedov badavi /arabi/ so'zi bilan bog'liq bo'lib, sahroyi, cho'lda yashovchi ma'nosini ifoda etadi. Arg'umoq - chopqir ot. Duldul - chopqir ot. Masalan, Ostida dulduli, belda zulfiqor (A.96). Ostingda bedovning halloslar qushday (A.99). Maydonda minartim bul to'bichoqi (A.36).

Otlarning shakl-ko'rinishi asosida yuzaga kelgan ELlari: To'bichoq - semiz, chiroyli ot, uyg'ur tilida to'buchaq katta, barvasta. Ko'lik - yuk ortish mumkin bo'lgan hayvonning orqa qismi. Cho'bir - teridagi dog'. Yobi – yovvoyi; yaroqsiz ot, ori, qarovsiz qolgan ot. Masalan, Yobi ot tuyoqdan otgan turpog'i (A.339). Maydonda minardim bul to'bichoqi // Xafa qilma, oyim, menday g'o'chchoqi (A.54).

Xulosa va takliflar. Ikkala xalq dostonida ham otlar ilohiyashtirilgan va ularga ham nom qo'yilgan. Asardagi qahramonlar - Karlning oti - Tansandor (sho'x, o'ynoqi); Rolandning oti - Velyantif, («veiller» fe'lidan hosil bo'lgan - «hushyor bo'lmoq» («hushyor», «sergak») yoki «vieil» - «eski» va «antif» - «qadimiy»); Ganelonning oti - Toshbrun (jigarrang olma) sifatlaridan shakllangan. «Alpomish» dostonida ham Boychibor obrazi yetakchi mavqeda turadi. Dostonida Boychibor obrazini talqin etiluvchi qadim mifologik ot obrazi sifatida ota-bobolarimizning azaliy orzusi bo'lmish afsonaviy tulporga taalluqli sifatleri hamda ajdodlarimizning ot naschiligi tajribalari, malakalari zamirida shakllangan, deb baholangan.

Sohaviy leksik tizimning birliklari sanalgan qurol-aslahalar, yilqichilik ELlariga tegishli ifodalarning ayrimlari polisemantik xususiyatga ega. Chunki ular, bir tomondan, umumiy leksik qatlamdagi denotativ ma'nolari bilan, ikkinchi tomondan, yaxlitlashgan birlik sifatidagi nomlar tarzida gavdalanadi. Mazkur barqaror ifodalar shakl va ma'no xususiyatlari asosida ham o'zaro sinonimik, antonimik, ko'p ma'nolilik belgilariga ko'ra farqlanadi. Jumladan, bir-biri bilan sinonimik asosda munosabatga kirishgan lug'aviy birliklar ko'proq xududiy jihatdan farqlanishi kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent, 2007. –B. 179.
2. Brady C. «Weapons» in «Beowulf: an Analysis of the Nominal Compounds and an Evaluation of the Poet's Use of them. // Anglo-Saxon England. Cambridge University Press, 1979. –P. 199-246. DOI: <https://doi.org/10.1017/S0263675100002611>
3. Gurevich A.Ya. Problemi genezisa feodalizma v Zapadnoy Yevrope. - Moskva, 1979; Gurevich A.Ya. Kategorii srednevekovoy kulturi. – Moskva, 1984.
4. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – B.89.
5. Yo'ldoshev Q. «Alpomish» talqinlari. – Toshkent, 2002. – B. 18.
6. Mirzaev T., Eshonqul J., Fidokor S. «Alpomish» dostonining izohli lug'ati. – Toshkent, 2007. - B. 19, 40, 42.
7. Olevskaya M.I. Funkcionirovanie terminov feodal'noy ierarxii vo frantsuzskom geroicheskom epose: AKD. - Moskva, 2002. – S.21.
8. Pastuxova Ye.N. Semantika naimenovaniy artefaktov v drevneangliyskoy geroicheskoy poezii: Avtoref.dis... kandi. filol. nauk. – Ivanovo, 2003. – 27 s.
9. Pipin A.N. Istoriya russkoy etnografii. SPb., 1890–1892. T. 1-4.

10. Uzbeksko-russkiy slovar. Tashkent, Gl.red. Uzbekskaaya sovetskaya ensiklopediya, 1988. – S.106.
11. Fozil Yo'ldosh o'g'li. Alpomish. – Toshkent, 1998.
12. Chistov K.V. Folklor i etnografiya // Folklor i etnografiya. S. 4.
13. Chistov K.V. Folklor i etnografiya: K devyanostoletiyu so dnya rojdeniya: Sbornik nauchnykh statey / Otv. red. A.K.Bayburin, T.B.Shepanskaya. SPb.: MAE RAN, 2011. 316 s. – S.3.
14. Shor R.O., Yarxo B.I. Pesn o Rolande. Pod obshey redaksiyey. – Moskva-Leningrad: Academia. 1934. 332 s.
15. Florent Vénier. Les hommes du Moyen âge: paysans, bourgeois et seigneurs à la fin du Moyen âge. — Paris: Éd. Errance, 2008. — 91 p. — (Histoire vivante). — ISBN 2877723739. p. 53-54.